

**SOBIRJON TOHIROV  
SAODAT YULDOSHEVA**

**ASIRIY VA UNING  
“SAID NASIMIY” QISSASASI**

*Tadqiqot va matn*

**Samarqand -2019**

**УЎК 891.709**

**ББК 83.3Уз**

**Ю 31**

Toxirov Sobir, Yuldasheva Saodat. Asiriy va uning "Said Nasimiy" qissasasi. – Samarqand: SamDU, 2020. – бет.

Mazkur monografiyada Asiriyning ijodiy faoliyati hamda uning "Said Nasimiy" qissasasi, qissaning mazmun-mohiyati, badiiy-uslubiy xususiyati, kompozitsion va poetik tahlili, obrazlar tasviri tadqiq etilgan.

**Mas'ul muharrir:**

G.Xoliqovq - Samarqanda davlat universiteti dotsenti

**Taqrizchilar:**

J. Hamroyev – Samarqanda davlat universiteti professori  
E.Musurmonov – Samarqanda davlat universiteti dotsenti

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy-uslubiy kengashining 2019-yil 28-dekabrdagi 4.6.2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## **So'z boshi**

Keyingi yillarda adabiyotshunoslik fanida o'ziga xos yo'nalishdagi qator ishlar maydonga kelmoqdaki, ular insonni ma'naviy komillikka yetaklovchi adabiy merosimizni yangicha ruhda tadqiq etishga turtki vazifasini o'taydi. Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimizning ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-irfoniy, diniy-madaniy merosi va saboqlarga boy umrini har tomonlama tadqiq etish adabiyotshunosligmizning ham dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, hozirgi kunda yosh avlodni ruhan sog'lom, ajdodlar merosini qadrlaydigan qilib tarbiyalashda mumtoz adabiy-badiiy adabiyotni chuqurroq bilish, unga xolisona yondashib tahlil etish katta ahamiyatga ega.

Insoniyat tarixi va adabiyotida o'lmas iz qoldirgan buyuk siymolar ko`plab yashab o'tgan. Ular umr bo`yi o'z dunyoqarashlari hamda ijod namunalari bo`lgan badiiy va san`at asarlari bilan xalq tafakkurini boyitib ketganlar. Shu bilan birga ularning nomlari mangulikka muhrlanib, adabiyotda badiiy timsol sifatida umrboqiyilik kasb etgan. Mansuri Xalloj, Said Nasimi, Boborahim Mashrab... . Ularning ziddiyatli voqealarga boy faoliyati bilan bog'liq hodisalar ham xalq orasida hikoyat, rivoyat tarzida yaratilib, davrlar o'tishi bilan tobora sayqallanib, adabiy ishlov berilib qissa, doston va boshqa janrdagi asarlarning yaratilishiga asos bo`lgan. Ana shunday insonlardan biri Sayid Imodiddin Nasimi bo`lib, uni ko`plab turkiy xalqlar o`zining ajdodi, millatining buyuk farzandi sifatida ko`rsatib kelmoqda.

Xususan, turkman olimlari Nasimi she`riyatidan

Arab nutqi tutilmishdir tilingden,  
Seni kimdir deyin kim turkmen sen.<sup>1</sup>

kabi satrlarini keltirib, turkman xalqining vakili deb, ozarbayjon olimlari "Ozarbayjon she'r madaniyatining ko`rkamli namoyondalaridan biri bo`lgan Sayid Imodiddin Nasimi ... . Nasimiyning tarixiy xizmatlaridan biri uning tug`ma ozarbayjon tilida yozgani..." kabi jumlalarini keltirish bilan ozar farzandi qilib ko`rsatishga urinadilar. Bu, albatta, bejizga emas. Nasimi ijodi va butun dunyoqarashi bilan chegarasiz mohiyatga ega bo`lib, barcha turkiy xalqlarni adabiyoti , tarixiga daxldor siymodir. Zero, hozirgi

<sup>1</sup> *Түркмен эдебиятиниң тарыхы. Ашгабад, 1975, 168-bet*

kunga qadar ham uning qaysi xalqning vakili ekanligini tasdiqlaydigan aniq bir dalil mavjud emas. Mazkur monografiyada Asiriy qalamiga mansub Said Nasimiy to‘g‘risidagi badiiy asar tadqiqot doirasiga tortilgan.

## **Shoir Asiriy va uning taxallusdoshlari**

O'zbek va fors-tojik adabiyotida taxallusdoshlik an'anasi odatiy hol. Jumladan, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab kabi taxalluslarning bir necha shoir tomonidan ko'llanilganligi ma'lum. Bunday holat ba'zan mashhur shoirga hurmat nuqtai nazaridan yuzaga kelsa, ba'zan chuqur va ko'p qirrali mazmunga ega bo'lgan so'zlar shunday holatga sabab bo'lgan.

SHulardan biri «asir» so'zidir. «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati»da «asir» so'zining o'ndan ortiq ma'nosi ko'rsatilgan. Jumladan, tutqun, bandi, mubtalo, mushtoq, qaram, mute, muhtoj, maftun bo'lmoq ayriliq giriftor bo'lmoq, g'arq bo'lmoq, bog'lanmoq, o'ldirmoq halok etmoq, rom etmoq, nafsni o'ldirmoq g'olib kelmoq, majbur qilmoq va hokazo. Ushbu so'zning nihoyatda chuqur majoziy ma'noga ega bo'lishi va so'fiyona irfoniy holatlarni tasvirlashda qo'l kelishi tufayli bir necha ijodkor uni taxallus sifatida qabul qdlishdi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Asiriy taxallusi bilan ijod qilgan dastlabki shoir XV asrning II yarmi XVI asrning boshlarida Xurosonda yashab ijod etgan. Bu shoir haqida Alisher Navoiy «Majolis-un nafois» tazkirasining uchinchi majlisida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

-...emdi zuhur qilg'on shuarodindur. Ammo nazmi hanuz shuhrat tutmaydur va she'rida masal ravishi bor. Bu matla' aningdurkim:

SHudam az yor judovu ba balo uftodam,

Chi balo bud ki az yor judo uftodam

(Mazmuni: Yordin judo bo'ldimu, baloga yuzlandim. Bu qanday balo ediki, yordin judo bo'ldim).

Bu shoirning asarlari hozirda aniqlanmagan va u hakda bundan boshqa manbalarda ma'lumot uchramaydi.

«Ozarbayjon adabiyoti tarixi» va «Turkman adabiyoti tarixi» tadqiqotlarida, turkman adabiyotshunoslari G.Nazarov hamda B.Axundov, T.Nafasov, A.Meredov, N.Gullaev ilmiy ishlarida XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida yashab ijod etgan o'zbek shoiri Asiriy haqida xabar berilgan. Mazkur manbalarda Asiriyning Qo'qon saroy shoiri ekanligi, hijriy 1189 (melodiy 1775) yilda «Nasimiy» dostonini yozganligi, ba'zi fikrlarga ko'ra kitobat qilganligi tilga olinadi.

XIX-XX asr boshlari adabiy muhitining o'ziga xos antologiyasi bo'lgan «Tazkirai Qayyumiyy»da Asiriy taxallusi bilan ijod qilgan ikki shoir tilga olinadi. SHulardan birinchisi o'zbek va tojik she'riyatida ancha shuhrat

qozongan Toshxo'ja Asiriy bo'lib, u haqda Po'latxon Domla quyidagi ma'lumotni keltiradi:

«Bu kishi asli Buxoroli bo'lgani holda Xo'jand shahrida nash'u namo etmish baland shoirlardandur. Nomi Toshxo'ja eshon. Aning alamli, zo'r qayg'uli hayotida ham shoir fig'onli nolasining turkiy tilda aytib yig'lagani ajoyib turkigo'y shoir ekanligini ochiq ko'rsatur... 1916 yilda vafot etmishdur» (72. 438). Toshxo'ja Asiriyning ko'pgina she'rlari «Armug'oni Xislat», «To'hfayi Xislat», «Bayozi Muhallo», singari bosma bayozlardan, shuningdek, ko'lyozma manbalardan joy olgan. Asosan tojik tilida ijod qilgan bu shoir o'zbek adabiyoti tarixida Zokirjon Furqat bilan she'riy yozishmalari va o'zbek tilidagi bir necha g'azallari bilan ma'lum va mashhur bo'lib, shu davr tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab darslik va qo'llanmalarda tilga olingan. Jumladan:

Zihi sarvo, mazorim uzra raftor aylamaysizmu,  
Meni xobi adamdin endi bedor aylamaysizmu?

-matla'i bilan boshlanadigan g'azali o'zbek shuarosi orasida katta shuhrat qozongan va naziralar bitilganligi ta'kidlanadi. Tazkirada tilga olingan yana bir Asiriy haqida quyidagi ma'lumotni o'qiyimiz: «Bu kishi Xo'qand shahrining Marg'ilon dahasiga tobe' sobiq SHahrisabz mahallada kosib oilasida dunyog'a kelmishdur; Masjidida bo'lmish usuli qadim mакtabida o'qib xat-savodli bo'lmishdur. Nomi Mullo Muhammadxon bo'lub, usto Iskandar o'g'lidur. Adabiy ijod ishida Usmonxo'ja eshon Zoriyning shogirdi... 1918 yilda 49 yoshinda vafot etmish». Demak, hozirgacha olib borilgan izlanishlar natijasiga ko'ra, Asiriy taxallusi bilan ijod qilgan to'rtta shoir ma'lum. Ulardan uchtasi yozilgan davri (til va uslubiy xususiyatlariga ko'ra asar XVIII-XIX asrlar adabiyotiga mansub ekanligi haqiqatga yaqin) nuqtai nazaridan «No'h manzar» qissasining muallifi bo'lishi mumkin. Ammo bu masalaga ham bir qadar aniqlik kiritmoqchimiz. Toshxo'ja Asiriyni bu tarkibdan chiqarish uchun etarli asoslар bor. Birinchidan, uning tarjimai holi va adabiy merosi bizgacha nisbatan to'liq etib kelgan. Bu borada qator tadqiqotlar ham mavjud. Uning adabiy merosida «No'h manzar» yoxud shunga yaqin nomdagi asar tilga olinmaydi. Ikkinchidan, uning she'rlari vazn, shakl va umuman badiiylik nuqtai nazaridan yuksak saviyada, mumtoz yozma she'riyatning eng ilg'or an'analariga mos tarzda yozilgan, binobarin, uslub jihatidan «No'h manzar» qissasi tarkibidagi she'rlardan tamoman farq qiladi.

Mullo Muhammadxon Iskandar o'g'li Asiriyning ham mazkur qissa muallifi ekanligi ehtimoli juda oz. Zero, uning 1869-1918-yillarda yashaganligini inobatga olsak, shoir sifatida shakllangan balog'at davri asr oxiriga to'g'ri keladi. Bu davrda esa mazkur syujet asosidagi qissalar ko'plab nusxalarda tarqalgan va litografik nashr etilgan. Asiriyning «No'h manzar» qissasi oldinroq yozilgan va keyingi asarlar uchun manba vazifasini o'tagan bo'lishi lozim. SHularni inobatga olganda, «No'h manzar» qissasining muallifi XVIII asrning II yarmi va XIX asr boshlarida yashab ijod etgan hamda «Said Nasimiy» qissasi atrofidagi munozaralarga sabab bo'lган shoir Asiriy bo'lishi hiaqiqatga yaqinroq degan xulosaga keldik, Mazkur masala bizning mavzuimizga bevosita aloqador bo'lганligini inobatga olib, «Nasimiy» yoki «Said Nasimiy» qissasining muallifi masalasini oydinlashtirishga, boshqacha qilib ayttanda, munozaraga ko'shilishga jazm etdik.

Turkiy xalqlarning yirik mutafakkiri, shoir va faylasuf Said Imoduddin Nasimiy (1370-1417) ajoyib g'azallari, jasorati va fojeasi tufayli sharqda nihoyatda katta shuhrat qozongan. Buni shoir haqida yozilgan har xil janr va shakldagi asarlar misolida ko'rish mumkin. Nurmuhammad Andalib hamda Asiriya nisbat beriladigan she'riy qissa shular jumlasidan. Bu qissaning ikkita qo'lyozma nusxasi mavjud. SHulardan biri Turkm FA Maxtumquli nomidagi Til va adabiyot institutining ko'lyozmalar fondida 487-inventar raqami ostida sakdanadi. 583 sahifadan iborat bo'lган bu ko'lyozmada yuqoridagi qissadan tashqari Xoja Ahmad YAssaviy, Fuzuliy, Saydi, Kamina va G'oyibiy kabi shoirlarning asarlari ham mavjud. Ko'lyozma hijriy 1301 (1883)-yilda ko'chirilgan.

Ikkinchi nusxa M.E.Saltikov-SHchedrin nomidagi Sankt-Peterburg Davlat kutubxonasida TNS 85 raqami ostida saqlanadi. Bu nusxa 96 sahifadan iborat bo'lib, hijriy 1287 (1870)-yilda ko'chirilgan. SHu ikkala nusxa asosida turkman adabiyotshunosi G.Nazarov qissaning arab yozuvidagi tanqidiy matnini ham nashr ettirgan (100).

Asar va uning muallifi haqidagi dastlabki ma'lumot 1960 yilda nashr etilgan «Ozarbayjon adabiyoti tarixi» tadqiqotidagi H.Araslining maqolasida keltirilgan: «O'zbek shoiri Asiriy 1775 yilda (hijriy 1189) yozilgan dostonini (asarning janri haqida ikki xil fikr bor) Nasimiy hayoti va fojeasiga bag'ishladi hamda ozarbayjon shoiriga nisbatan yuksak muhabbatini ifoda etdi» (matn o'zbekchalashtirildi -T.S.).

XX asrning 70-yillari turkman adabiyotshunosligida bu masalaga doir jiddiy munozara bo'lganligi kuzatiladi. 1972-yilda Nasimiyning she'rlar to'plamini nashr ettirgan N. Gullaev mazkur asarning muallifi Nurmuhammad Andalib ekanligini qayd etdi.

A. Nuryagdiev 1975-yilda nashr etilgan «Turkman adabiyoti tarixi» tadqiqotida qissaning ikkita nusxasidagi jiddiy tafovutlarni inobatga olib, ular boshqa-boshqa mualliflarga tegishli, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, TNS 85 ko'lyozmaning dastlabki muallifi Andalib bo'lib, u bu asarni 1765-68 yillarda yozgan. 487 raqamli qo'lyozma esa Asiriyligining mansub bo'lishi mumkin. Unda u o'z asarini 1774-75 yillarda yozgan bo'ladi. TNS 85 raqamli ko'lyozmaning kotibi Asiriyligining boshqa-boshqa shoirlar ekanligini bilmagan.

B.Axundov 1976 yilda nashr etilgan (T.Nafasov va A.Meredov bilan hammualliflikda) «Andalib ham Asiriyligining maqolasida H.Araslining fikrini tasdiqlab, qissaning muallifi Asiriyligining ekanligini aytadi. Ammo u bu xulosasini aniq faktlar, matniy tahlil bilan asoslamagani uchun, ushbu qissaning arab yozuvidagi tanqidiy matnnini tuzib nashr ettirgan G.Nazarov uning fikrini rad etadi va yana «Nasimiyligining qissasining muallifi Nurmuhammad Andalib degan to'xtamga keladi. Bu munozaralarning asosiy sabablari nimada?

Asarning Andalibga nisbat berilishiga quyidagi holatlar sabab bo'lgan deb o'ylaymiz: Birinchidan, TNS 85 inventar raqamli qo'lyozmaning boshida kichik nasriy muqaddima hamda Andalib qalamiga mansub bo'lgan yuz baytli masnaviy mavjud. Bu masnaviy mazmuniga ko'ra hamd, na't va asarning yozilish sababi kabi kirish boblari hiisoblanadi. SHu bilan birga, qissaning oxirida Andalibning "Navbat siza etdi" radifli muxammasi ilova qilingan.

Ikkinchidan, qissaning xotimasida keltirilgan quyidagi baytlar, aniqrog'i, ulardagi «kitobat» so'zi Asiriyligining ko'chiruvchi kotib ekanligiga asos qilib olingan:

Asiriyligining xotimasida keltirilgan quyidagi baytlar,  
Aniqrog'i, ulardagi «kitobat» so'zi Asiriyligining ko'chiruvchi kotib ekanligiga  
asos qilib olingan:

Asiriyligining xotimasida keltirilgan quyidagi baytlar,  
Aniqrog'i, ulardagi «kitobat» so'zi Asiriyligining ko'chiruvchi kotib ekanligiga  
asos qilib olingan:

Asiriyligining xotimasida keltirilgan quyidagi baytlar,  
Aniqrog'i, ulardagi «kitobat» so'zi Asiriyligining ko'chiruvchi kotib ekanligiga  
asos qilib olingan:

Uchinchidan, aynan o'sha ko'lyozma nusxada Nasimiyligining boshqa obrazlar tilidan keltirilgan she'riy parchalarning tili va uslubi Andalib she'riyatiga yaqin, degan xulosa bildirilgan. Ikkala ko'lyozma nusxani qiyosan o'rganish natijasida «Said Nasimiyligining qissasining muallifi

masalasiga oydinlik kiritishi mumkin bo'lgan quyidagi holatlar ma'lum bo'ldi:

TNS 85-nventar raqamli qo'lyozmaning boshidagi masnaviy quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Hazrati G'affor egam zuljalol,  
Yo'qtur oning birligina qiylu qol;

Ta'kidlaganimizdek, mazmunan hamd, na't hamda sababi nazm bo'lgan bu masnaviy aruzning sari'i musaddasi matviyi makshuf (mufta'ilun, mufta'ilun, fo'ilun) vaznida yozilgan. Masnaviy quyidagi bayt bilan tugaydi:

Andalib(n)ing barcha ishidur xato,  
Garchi xato Haqdin erur ko'p ato.

SHundan keyin, qissa boshqa vaznda, ya'ni hazaji musaddasi mahzuf (mafo'iylun, mafo'iylun, fa'uvlun) vaznida davom etadi:

Siposi beqiyos ul zuljalola,  
Sitoyish benihoyat loyazola.  
Vujudi vojib ul Xalloqi Olam,  
Murabbiy moliki arzu samo ham...  
Durudi sad hazoron Mustafog'a,  
Muhammad afzali koni safog'a...  
Ki andin so'ng qilay bir qissa og'oz,  
Xudodin bo'lsa tavfiq sarafroz.

E'tibor berilsa, bu va bundan keyingi baytlar ham hamd (Allohniumug'lash) va na't (Muhammad s.a.v. maqtoviga bag'ishlangan) boblar hisoblanadi.

Turkiy va fors-tojik adabiyoti tarixida asarning boshini boshqa vaznda, davomini boshqa vaznda yozish an'anasi bo'lmannidek, bir asarda har xil vazndagi ikkita hamd va na't boblarini keltirish holati ham uchramaydi. Muhimi shundaki, bu masnaviy Andalibning "YUsuf va Zulayho" dostonida ham mavjud. Faqatgina undagi: «...YUsufi Siddiqdin rivoyat bo'lar» misrasi o'rnilga, «...Said Nasimiydin rivoyat bo'lar» misrasi kiritilgan. "YUsuf va Zulayqo" dostoni an'anaga binoan sari' bahrida yozilganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu masnaviy aynan shu asarning muqaddimasi ekanligi oydinlashadi. 487 inventar raqamli qo'lyozma nusxada yuqoridagi masnaviy ham, oxirgi muxammas ham yo'q, Bu nusxa «Siposi beqiyos ul zuljalola» misrasi bilan boshlanadi, binobarin, unda Andalib taxallusi ham qo'llanmagan.

Demak, «Said Nasimiy» qissasining Andalibga nisbat berilishida asos qilib olingen bu masnaviy bilan muxammas chindan ham turkman shoiri qalamiga mansub bo'lsa-da, bu asar tarkibiga anglashilmovchilik yoki o'sha davrda mavjud bo'lgan an'ana natijasida ko'chiruvchi kotib tomonidan ko'shilgan. Zero, muxammasdan oldin Sayqaliy qalamiga mansub bo'lgan «yig'langizlar» radifli g'azal ham ilova qilingan. Bu esa yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Asiriyning yuqorida aytilgan "kitobat qildim" iborasi faqatgina kotib tilidan aytishi mumkin, degan fikr ham to'g'ri emas. CHunki, bu ibora ko'pgina muallif yoki tarjimonlar tilida ham qo'llangan, bunga mumtoz adabiyotimizda misollar talaygina. Jumladan, Xorazmiy "Muhabbatnoma"si haqida:

Kitobat boshladim anjoma etgay,  
Muhabbatnoma Misru SHoma etgay, - deb yozadi.

YOki Xo'jandiyning «Latofatnoma»sidagi:

Kitobat qilmadim behuda so'zlar,  
So'zumni bilmagan behuda so'zlar,

-baytini keltirish ham mumkin. Darvesh Bahriy ham «No'h manzar» dostonida («Bitildi turki tilga bu kitobat») bu so'zni ko'llaganini ko'rgan edik.

Asar xotimasidagi quyidagi baytlarga e'tibor qaratsak, Asiriyning kotibgina emas, balki boshqa bir manba asosida qissani qayta ishlagan yoki ijodiy tarjima qilgan muallif ekanligi ayon bo'ladi;

G'araz mendin ki qolgay yodgore,  
O'kug'onda yana ham do'stu yore.  
Musohiblar faromush etmasun deb,  
Maning nomu nishonim ketmasun deb,  
Qilibdur bir necha so'zlarni manzum,  
Umid aylab Asiriy ismi ma'dum.  
Duo birla qilinglar daftaram sayr,  
Biayn Alloh, bo'ldi tammat al xayr.  
Bilib bilmas so'zni etdim ma'lam,  
Kechur yozuqlarim vallohu a'lam.

487 raqamli nusxa shu misralar bilan yakun topadi. TNS 85 raqamli ko'lyozmada shundan keyin Sayqaliyning g'azali va Andalibning muxammasi keltirilgan.

«Valloxu a'lam» (Alloh bilguvchidir) iborasi har qanday asarning nuqtasi ekanligi ma'lum. Undan keyingi qismlar asarning dastlabki nusxasiga daxldor emas.

Asiriy muallif emas kotib bo'ladigan bo'lsa, unda muallif nutqi bilan kotib nutqining chegarasini aniqlash lozim bo'ladi. SHu fikr tarafdarlarining aytishicha, qissaning o'zi:

Nasimiy ruhidin ham etdi imdod,

Maqosadnomani yozdim qilib yod,

- bayti bilan yakunlanadi. SHarq qissachilik va dostonchilik an'analariga tayangan holda bu bayt syujet xotimasi bo'lib, umumiy itmom emas, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Ikki nusxa ikki muallifga tegishli, degan fikr ham shubhali. CHunki Asiriy taxallusi qo'llangan xotima baytlar ikkala nusxada ham bor. 487 inventar nusxada bu qismlar ancha kengaytirilgan.

YUqoridagilarni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin:

"Said Nasimiy" qissasining muallifi Asiriy taxallusli o'zbek shoiri. TNS 85 inventar raqamli ko'lyozmaga kirib qolgan Andalib va boshqa shoirlarning she'riy asarlari aslida qissaning birlamchi varianti bilan aloqador emas.

Garchand aniq fakt va ma'lumotlar hozircha mavjud bo'lmasa-da, yuqoridagi belgilar ikki qissaning, ya'ni «Said Nasimiy» va «No'h manzar» qissalarining bitta shoir qalamiga mansubligi va bu XVIII asrning II yarmi XIX asr boshlarida yashab ijod etgan o'zbek shoiri Asiriy ekanligini ko'rsatadi.

### **Asiriy va uning "Said Nasimiy" qissasi**

Sharq adabiyotida qahramonlik hamda mardlikning timsoli sifatida yaratilgan Sayid Imodiddin Nasimiy haqida bir qancha asarlar yozilgan. U tarixiy shaxs bo'lib, XIV asrning oxirlari va XV asr boshlarida yashab o'tgan. Uning shaxsiyati va ijodiyoti ozarbayjon olimlari tomonidan kengroq tadqiq etilgan. Jumladan, M. Guluzada (Азэрбајҹан эдебијаты тарихи. Бакы, 1960), H.Araslı (Имомиддин Насими, Тошкент, «Фан», 1973) kabi tadqiqotchilar tomonidan uning hayoti va ijodi o`rganilgan va qolaversa, turkman olimlari A.Nuryagdiyev (Туркмен эдебиятиның тарыхы. Ашгабат, 1975), G.Nazarov (Андалып, Несими. Ашгабат, 1978)lar Nasimiy shaxsiyati va ijodiga chizgilar berishgan. Yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqotlariga asoslanib Sayid Imodiddin Nasimiy haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin:

Shoirning ismi va sharifi masalasida har xillik mavjud. Oldingi tadqiqot-tazkiralarda Imodiddin va Nasimiddin deb qayd qilinadi. Vaholanki, bu shoirning oti emas, balki laqabidir. Lekin Halab tarixi yuzasidan babs yurituvchi arab manbalarida uning oti Ali deb ko`rsatiladiki, bu haqiqatga uyg`undir. Chunki, Fazlulloh Naimiyning "Vasiyatnoma" asarida Ali-Sayidali nomini ham keltiradiki, bu faktlar shoirga zamondosh bo`lgan arab tarixchilarining ma`lumotlarini tasdiqlaydi.

Nasimiyning tug`ilgan yeri ham turlicha ko`rsatiladi. Jumladan, Bag`dod, Diyorbakir, Tabriz, Sheroz, Shamohi, Boku... . Keyingi tadqiqotlarda ma`lum bo`lishicha, u XIV asrda- taxminan 1369-1370 yillarda Shamohi shahrida dunyoga kelgan. Bo`lajak shoir ilk tahsilni ham shu yerdagi maktabdan boshlagan. Ustozi Naimiyning "Vasiyatnoma" sidan aniqlanishicha, u Sayid Muhammadning o`g`li bo`lib, otasi ham o`sha davrda keng yoyilgan hurufiylik ta`limotiga yaqin shaxs bo`lgan.

Shoir tahsilning dastlabki davridanoq arab, fors-tojik tillarini, mantiq, riyoziyot, tabiat va astronomiyaga doir ilmlarni mukammal darajada o`rgangan. Nasimi Yaqin Sharqning mashhur tariqat olimlari badiiy asarlarini yaxshi o`rganib, arab, fors-tojik va boshqa xalq yozuvchilarining asarlarini yaqindan bilgan. Uning she`rlarida Jaloliddin Rumiy, Shams Tabriziy, Sa`diy Sheroziy, Farididdun Attor nomlari qatorida Ibn Sino, Muhyiddin Arabiy, Shibliy, Karxiy kabi Sharqning buyuk-mashhur faylasuf olimlari va shoirlarining nomlari tilga olinadi.

Nizomiy, Hoqoniy, Falakiy, Zulfiqor Shirvoniy, Avhadiy Marog`oiy, Shayx Mahmud Shabustariy va Orif Ardabiliy kabi shoirlarning merosi ta`sirida tarbiyalangan Nasimiyl ilk asarlarini "Husayniy" taxallusi bilan yozadi. Shoirning bu taxallusni olishi "Analhaq" degani uchun dorga osilgan Husayn Mansur Xalloj tariqatiga bo`lgan muhabbat tufaylidir. Nasimiyl "Sayid" taxallusi bilan ham she`rlar yozgan edi. O`rta asrlarda vujudga kelgan hurufiylik tariqatiga asos solgan tabrizlik Fazlulloh Naimiy Sharqning ko`pgina shaharlarini kezib, o`z fikrlarini yoyish uchun Bokuga keladi. Shu vaqtida Nasimiyl u bilan uchrashadi va fikrlarini qabul qiladi. Shundan boshlab unga hurmat yuzasidan o`z she`rlarini "Nasimiyl" taxallusi bilan yoza boshlaydi.

Ustozi Fazlulloh qatl etilgach, u Turkiyaga ketadi. U yerda yashagan vaqtida katta ta`sir quvvatiga ega bo`lgan she`rlar yozadi, xalqlar orasida kezib yuradi va shu asnosa uning g`oyalari keng yoyiladi. Hurufiyalar Turkiyada ham ta`qib ostiga olingani bois, Nasimi suriyaga ketadi. Shoир Halabda yashab, falsafiy-lirik she`riyati bilan ko`p do`sht va tarafdorlar orttiradi. Shariat tarafidan ta`qib ostiga olingan panteizm va hurufiylik aqidalarini tadbiq etgani bois dindorlarning g`azabiga duchor bo`ladi.

1417 yil Said Nasimiyni Halab shahrida fojiali bir tarzda qatl qilishadi.

Sharq xalqlari tarixida o`z maslaki uchun o`limga mahkum etilgan va o`lim qarshisida ham fikridan qaytmagan temir irodali shaxslar kam bo`lmagan. Lekin ularni hech birining o`limi buyuk g`oya fidoiysi Imodiddin Nasimiyning qatli kabi fojiali bo`lmagan. Shuning uchun ham besh yuz yildan ortiq vaqt va zamonlardan buyon uning sharafli nomi Yaqin Sharqda mardlik va temir iroda, fidokorlik va sadoqat ramzi sifatida hurmat bilan tilga olinadi, u haqida rivoyatlar va badiiy asarlar yaratib kelinmoqda. Asrlar mobaynida o`z maslagiga va g`oyasiga sadoqatini bildirmoqchi bo`lganlar, muhabbat to`g`risida charchamay bahs yuritganlar o`zlarini shu g`oya fidoiysiga o`xshatadilar, uning chidami, irodasi va o`limi fojiasini eslaydilar:

Koshki vasl qilib vaslingda o`ldirsa meni,  
Ishqida rasvo qilib olamga kuldirsa meni,  
Kim Nasimiydek kesib boshim so`ldirsa meni,  
Tonmayman andog` kim osmonga oshiқ bo`lmisham.

Berahmlar chun Nasimiydek terim so`ydirsalar,  
Bu shirin jondan kecharman, yorim, sendan kechmasman.<sup>2</sup>

Boborahim Mashrab ijodida ham ta`sirli baytlar mavjud:

Kufr etti deb Nasimiyning terisin so`ydilar,  
Go`shti po`stin so`zlatib olamga go`yo qildi ishq.<sup>3</sup>

Nasimiyning bu vahshiyona o`limi haqida har xil rivoyatlar va turli ma`lumotlar saqlanib qolningan.

<sup>2</sup> Аңдалып, Несими. Ашгабад, 1978

<sup>3</sup> Киссаи Машраб. Тошкент: «Ёзувчи», 1992, 8-бет

Rivoyatlardan birida hikoya qilinishicha, kunlardan bir kun Halab shahrida yosh bir hurufiy Nasimiyning bir she`rini baland ovoz bilan o`qiyotgan ekan. She`rda ifoda etilgan fikr ruhoniylarga yoqmay, uni hibsga olib, dorga osib o`ldirishga hukm etadilar. Shu vaqtida Nasimi y oyoq kiyimlarini yamayotgan edi. U hodisadan xabar topib jazo maydoniga yetib keladi va she`r o`zi tomonidan yozilganini aytib yosh do`stini ozod qiladi. Ruhoniylar uning hurufiylik murshidi ekanligini bilib, tiriklayin terisini shilib o`ldirishga fatvo beradilar. U o`limi oldidan ham o`z fikridan qaytmay “Analhaq” deydi. Shoirning bu matonatidan o`zini yo`qotib qo`ygan ruhoniylar istehzo bilan so`raydilar:

-Madomiki, sen haq esang, nega qoning oqdi deguncha sarg`ayasan?

Hozirjavob shoir:

-Men adabiyot ufqlarida tug`ilgan ishq quyoshiman. Quyosh esa, botayotganda sarg`ayadi, - deya jasorat bilan javob beradi.

Bu rivoyatda shunday qayd etiladiki, go`yo shoirning o`limiga fatvo bergen ruhoniylar degan emish:

-Bu shunday mal`undirki, uning qonidan qayerga sachrasa shu yerni kesib tashlamoq kerak.

Tasodifan shoirning qonidan bir tomchisi ruhoniyning barmog`iga sachraydi. Jamoat undan barmog`ini kesib tashlashini talab qiladi.

U esa:

-Men shunchaki bu so`zni bir misol tarzida aytgan edim, - deydi va barmog`ini yashiradi.

Shu paytda qonga belangan shoir:

Zohiding bir barmog`in kessang tonib haqdin qochar,

Ko`r bu miskin oshiqa sarpo so`yarlar yig`lamas, -

deya o`zining isyonkor ovozini baland taratadi va o`z dushmanlarini ustidan ma`naviy g`alaba qozongan holda hayotdan ko`z yumadi.

Boshqa bir rivoyatda deyiladiki, Nasimi Antobda valining yaqin do`sti ekan. Muxoliflar vali bilan uning orasini buzishga qasd qiladilar. Ular Qur`onning “Yosin” surasini ko`chirib shoirning kavishi ostiga joylab qo`yadilar. Valining huzurida undan oyog`ining ostida Qur`on surasini olib yurgan odam haqida fikri qanday ekanligini so`raydilar. Nasimi bunday odamni tiriklayin terisini shilib rasvo qilish kerakligini aytadi. Unga sen o`zing fatvo berding, deydilar va

Nasimiyning kavshi ostidan “Yosin” surasini chiqaradilar va uning terisini shilib o’ldiradilir. Bular, albatta, rivoyatlarda badiiy talqin etilgan voqealardir. Aslida Nasimiyning maslagi, u ilgari surgan g’oyalar, diniy qarashlari o’sha davrdagi riyokor dindorlarga yoqmagan va shu bois ham turli ig’vo va tuhmatlar bilan o’ldirtirib yuborishgan. Shundan bo’lsa kerak xalq orasida tarqalgan rivoyatlarda uning o’limi sababi turlicha ko`rsatiladi.

Halab shahrida amalga oshirilgan bu noxush voqeа butun Sharqni larzaga soladi va ilg’or fikrli kishilarni to`lqinlantiradi. Nasimiyning shogirdlari bo`lsa, uning g’oyalarini davom ettiradilar va uning she`rlarini xalq ichiga yoyadilar.

Nasimiyning bu fojiali o’limi uning nomini so`ndirmaydi, aksincha, uning shuhratini oldingidan-da yuqori ko’taradi. Nasimiyning o’z g’oyalaridan tonmay, mard va qahramonlarcha turishi butun dunyoni hayron qoldiradi. Shuning uchun ham Nasimiy mardlik va o’z idealiga sodiqlikning timsoli sifatida butun Sharqqa mashhur bo`lgandir.

Nasimiy shaxsiyati mardlik timsoli bo`lib kelishining yana bir sababi shundaki, uning chuqur falsafaga yo`g`rilgan asarlari ham o’z zamondoshlari va o`zidan keyingi shoirlarga ajoyib o`rnak bo`lib xizmat qiladi.

Nasimiy ijodida odamga baho berilganda uning millati yoki qaysi din vakili ekanligi hech rol o`ynamaydi. U o’z panteistik g’oyalarini targ’ib etar ekan, diniy e’tiqodlarga qarab insonlar orasiga adovat-nifoq soluvchi ruhoniylarni qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, butun dinlarning mohiyati bir xildir. Haqiqiy inson bundan kelib chiqib insonlarni ajratmaydi:

Oshiq oldida kufr ila islom birdur,  
Har qayda maskan aylasa oshiq-amirdur.  
Butxona ila Ka`bani vahdatda farq etgan,  
Ma`nida yetuk bo`lmadi u garchi pirdur.

Shoir insonlarning hammasini odam, dunyoda eng bir go`zal, eng bir qudratli zot sifatida qaraydi. Shuning uchun ham Nasimiyning asarlari bir necha xalqlar orasida keng tarqalgan. Misol uchun ozarbayjon adabiyotshunosi M.Sayidov o’z ishlarining birida Nasimiyni arman xalqining orasida ancha oldin shuhrat qozonganligini va Budax Mitetsi (XVI), Xachatur Digranagertsni kabi bir qancha arman shoir va sozandalarining davralarda Nasimiyning

she`rlarini aytganliklarini qayd qilgan. U Nasimiyning arman adabiyotiga kuchli ta`sir etganligi, XVII asrning mashhur shoiri Mironiy Nasimiyning shogirdi bo`lganligi, uning g`oyalarini davom ettirganligi haqida xabar beradi.<sup>4</sup>

Nasimiyning ijodi bir shoир yoki bir xalqning adabiyotiga emas, balki butun Sharq adabiyotiga kuchli ta`sir etgandir. Sharqning ko`p shoirlari u ilgari surgan g`oyalarni o`zlashtirib o`z asarlarini yaratgan bo`lsalar, bir nechalari Nasimiyning she`rlariga naziralar bog`laganlar. Nasimiyning yetuk shoirligi haqida Sharqning buyuk shoiri Alisher Navoiy fikrlari juda ahamiyatlidir. U o`zining "Majolis un-nafois" asarida Nasimiyning ijodiga yuqori baho bergandir. Bu haqda keyinroq to`xtalamiz.

Nasimiy shaxsiyati haqida tazkiralardagi ma`lumotlar e`tiborga molik. Shu ma`noda ilk mufassal axborot beruvchi tazkirachilardan biri sifatida Gestamonili Latifiyni qayd etmoq lozim. Latifiyning 1546-yilda (Nasimiy yashagan davrga yaqinligi bois ma`lumotlar aniqroq va ishonchliroq-N.O) yaratilgan "Mashahir ush-shuar" tazkirasida berilgan ma`lumot ba`zi nuqsonlarini nazarga olmasa, ko`p ahamiyatlidir. Latifiy Nasimiyni "ishq maydonining qo`rqmas askari va muhabbat ka`basining fidoiysi -azimi", -deb ta`riflaydi.

Nasimiy hayoti haqida nisbatan mufassal ma`lumot Amir Kamoliddin Husaynning "Majolis ul-ushshoq" asaridan o`rganilgan. Bu asarning eng qiymatli jihat shundaki, Nasimiyning o`ldirilishini butun manbalardan kengroq bergandir. Keyingi manbalar Nasimiyning hayoti haqida bundagi berilgan ma`lumotlardan qayd etganlar.

XIX va XX asrlarda Turkiyada Nasimiy shaxsini o`rganmoq sohasida jiddiy qadamlar qo`yildi. Uning "Devon"i 1849-yilda Istambulda "Tasviri afkor" matbasida, ko`p o`tmay 1881-yilda "Axtar" matbaasida nashr etildi. Nasimiyning "Devon"ini ilk nashrlari bo`lgani e`tibori ila albatta bular ahamiyatlidir. Lekin bu nashrlar notamom, jiddiy nuqson va tuzatishlardan ozod emasdир. Bunda shoirning dil ifoda xususiyatlari buzilgandir.

Nasimiy to`g`risida tadqiqot olib borgan turk professor-olimi F.Kupruluzoda "Turk adabiyotida ilk mutasavvuflar" (1918), "Ozar adabiyotiga oid tadqiqotlar" (1926) va boshqa asarlarda shoир haqida ba`zi diqqatga loyiq fikrlarni ilgari surib, Nasimiyni "Ozariy adabiyotning eng buyuk shaxsiyati, ta`sirining ko`lami va davomiyligi

<sup>4</sup> Сейидов М. Из истории азар-арменских литературных связей. Ереван, 1960

e`tibori bilan butun turkiy adabiyotning eng yuksak vasiylaridan” hisob etib, uni “usmonli turk adabiyotining osmonida-da porloq iz qoldirib” o`tganligini qayd etadi. Lekin, Kupruluzoda Nasimiyni faqat “vujudi so`fiyona ila she`rlar yozgan va hurufiylikning taraqqiyoti tarixida buyuk bir rol o`ynagan ilohiy san`atkor” bo`lganini qayd etadi. Uning lirikasidagi ijtimoiy – tarixiy mohiyatni, ijodidagi taraqqiyparvar g`oyalarni ochib ko`rsatmaydi.

Nasimiy Turkiya she`riyatining taraqqiyotiga katta ta`sir ko`rsatgan, asrlar davomida mashhur turk shoirlarining muallimi va ustozi bo`lgandir. U ta`sir etgan shoirlarning ijodida panteizm, hurufiylikning qarashlarini keltirish barobarida ularniadolat va haqiqatparvarligi tarannum etilib, falsafiy lirika, saroy she`riyatining qasidachilik va madhiyabozlik ruhidan uzoqlashishga intilish aks etadi.

Turk shoirlaridan biri Rafiiy “Bashoratnoma” nomli asarida Nasimiya bo`lgan teran muhabbatini tarannum etadi.<sup>5</sup>

Shuningdek, Fuzuliyning she`rlaridan ham ko`rinadiki, u ham Nasimiyning asarlari-she`rlarini o`qib, ijodining boshidanoq ulardan muayyan darajada ta`sirlangandir. Lekin Fuzuliy buyuk bir iste`dodga molik dohiy bir san`atkor bo`lib yetishishida o`z salaflaridan va ustozidan ham o`tib ketgandir. U Nasimiy an`analarini taraqqiy ettirib Ozarbayjon she`riyatining tarixida yangi, original tuyg`ularga molik adabiy maktab yaratgandir.

Shu o`rinda Nasimiy ijodiga muxtasar tarzda to`xtalib o`tamiz. Bir so`z bilan aytganda uning ijodi tasavvufiy g`oyalarning badiiy tasviridir va shuningdek, unda dunyoviylikni ham kuzatamiz. Unga “dahriy”lik begona, bag`rikenglik mavjud. Nasimiy she`riyatida yorga muhabbat, bu dunyo go`zalliklaridan bahramand bo`lish, yashashga ishtiyoq hissiyotlari(aslini aytganda, bunda ham diniy- tasavvufiy qarashlar mavjud: “bu dunyoga hamma sinovdan o`tish uchun keladi”, “olamdagи yaratilgan jamiki narsalar inson uchun, shuning uchun undan bahra olish kerak”), riyokor ruhoniylar va zolimlarga nafrat, shu bilan birga ularga qarshi kurash, butun xalqlarni yaqinlashtirishga, bir maqsad uchun kurashishga da`vat tuyg`ulari ufurib turadi.

Sharh agar qilsam jamoling daftaridan bir varaq,  
Har so`zi ming fasl o`lar, har fasli necha boblar.<sup>6</sup>

<sup>5</sup> Азэрбајҹан эдебијјаты тарихи. Бакы, 1960.268-269 betlar

Ko`rinadiki, insondagi go`zallik beqiyos ekanligi tavsifu tasvir etilgan. Shoir bu yerda ajoyib mubolag`a qo`llab uning husnini ta`riflashdan ojizligini ta`kidlagan. Bunda ham majoziy ma`no mavjud bo`lib, so`fiyona qarashlar tasvirlangan.

Soching tunida yuzing ikki haftalik qamardur,  
Buni bilguchi bilur juda ajab nazardur .  
Qora zulfini nigorning ko`zim ustida ko`rarman,  
Tun ila kunim hamisha g`amu shom ila sahardur.<sup>7</sup>

Shoir bir g`azalida

Ma`mur tut nishot ila jon mulkini mudom,  
Bu umr nozaninki, bilursiz, qilur shitob.  
Fursatni berma qo`ldinu aldanma bir nafas,  
Bir kun kelurki, tufrog` o`lur chashmi dil xarob.

Fursat shudirki boda ichaylik bu kecha biz,  
Sham` ila mutribu menu sen shohidu sharob.<sup>8</sup> -

deya dunyo tashvishlaridan faryod etib, bu qisqa umrda uning lazzatidan foydalanishga insonlarni chaqiradi. Umuman olganda, oxiratni deb bu dunyodan kechmang, dunyonи deb oxiratni unutmang, degan qarashni ilgari suradi.

Bu dunyo turar joy emas, ey dil safar ayla,  
Aldanma uning foliga, undan hazar ayla.<sup>9</sup>

Binobarin, bu kabi nekbinlik undagi hayotsevarlik va dunyoviylik bilan aloqadordir:

Nogahon bo`stonga kirdim subhidam,  
Lolaning qo`lida ko`rdim jomi jam,  
Savsan ayturki, eshitdim dam-badam,  
Dam bu damdur, dam bu damdur, dam bu dam.<sup>10</sup>

Nasimiying bu asarida ajoyib tashbih qo`llanilgan bo`lib, insonga kuchli ta`sir etish quvvatiga ega. Lolaning bargi uning qo`li, boshi jomga o`xshatilib, unga jon kiritmoqda, insoniy xususiyat bermoqda. Bu bilan dunyo bir bog`, undagi gullar shu hayotdan xushnud insonlardir, degan ma`no kasb etadi. Jomi jam ichida sharob emas, bu dunyoning hayotiy lazzatidir. Shoir ushbu qisqagina parchada

<sup>6</sup> *Shu asar.* 287-bet

<sup>7</sup> *Ҳ.Арасли. Имодиддин Насимий, Тошкент, «Фан», 1973* 48-bet

<sup>8</sup> *Shu asar.* 29-bet

<sup>9</sup> *Shu asar.* 31-bet

<sup>10</sup> *Shu asar.* 30-bet

olamcha ma`noni aks ettirib, subhidamdagи go`zal gullar kabi mana shu hayotiy lazzatdan totib yashash kerakligini ifoda etmoqda.

O`rta asrlar tarixida ruhoniylar, zohidlar yuqori mavqe kasb etib, xalqni avrab-aldab yo`liga solib, qul qilib ularni har tomonlama azoblab va shuning evaziga to`kin hayot kechirishga uringanlar. Mana shunday davrning barcha zulm-kirdikorlari ijodkorlar qalamida fosh etilgan, o`z ifodasini topgan. Ularning vositasida xalqning nafrati ifodalangan Nasimiyning ijodida ham jamiyatning takabbur, makrlixiyonatkor kimsalariga bo`lgan cheksiz qarshiligi-nafrati in`ikos ettirilgan:

Faqih odamga qilmas sajda, hurkar,

Bu devning xilqati iblisga o`xshar.<sup>11</sup>

Yoki boshqa bir joyda

Aytur mengaki, naqdni ber nasyaga zohid,

Hayvon erur ul asli bir zarra kam emas.

Ahsani taqvimni inkor aylar imonsiz faqih,

Ushbu zolimni otin haq dedikim, shayton budur.

Faqih , ey ahsani suvrat, seni masjud agar bilmas,

Bu osiy devu mal`unning xatosi rahbarindindur.<sup>12</sup>

Nasimi o`z davrining faqihlariga nisbatan salbiy munosabat bildirib, ularga o`z g`azabini izhor qiladi. Qur`oni Karimda shunday yoziladi: “Laqod xolaqnal insana fi ahsani taqvim” ya`ni “Darhaqiqat, biz insonni eng g`ozal shaklu shamoyilda yaratdik”<sup>13</sup>. Shoir ahsani taqvim deganda shuni nazarda tutadi. Shu bois ham ahzani taqvimni inkor qilgan faqihlarni imonsiz deya haqoratlaydi. Ularni Olloh la`natlagan shaytoni la`in o`rnida ko`radi.

Shuningdek, faqihlarni ko`zsiz, haqiqatni bilmagan, quyoshdan bekingan ko`rshapalakka o`xshatadi:

Qaramoq chiroyli yuzga tilamas faqihu so`fiy,

Shul erur quyosh yuzidin ko`zi ko`rlarga nasiba.

Xullas, Nasimiyning diniy, tasavvufiy, axloqiy-falsafiy qarashlarga yo`g`rilgan yuksak she`riyati bordir. Unda insonparvarlik ,

<sup>11</sup> *Shu asar. 33-bet*

<sup>12</sup> *Shu asar. 33-bet*

<sup>13</sup> *Куръони Карим. Ўзбекча изоҳли лугат.(Алоуддин Мансур таржимаси) –Т.: Чўлпон, 1992.-540 бет*

xalqparvarlik xislatlari ufurib turadi. Shoir bag`rikenglik, millatlararo totuvlik g`oyalarini ilgari suradi. She`riyati barcha millat, din vakillarini birday ko`rish kabi ajoyib fazilatlarning namoyon bo`lishi bilan ajralib turadi. Bu esa, yuksak axloqiy mohiyatga egadir.

Nasimiyning ijodi Navoiyning nazaridan ham chetda qolmagan. Bu haqda buyuk tanqidchi shoir “Nasoyim - ul muhabbat” nomli asarida Nasimiyning ajoyib san`atkor bo`lganligini qayd qilib o`tgan. Unda shunday yozilgan: “...mazkur bo`lgan mulk ahlig`a aning she`ri muqobalasida hamonoki she`r yo`qtur. Hamono taqlid ahli ani mazhabida qusur tuhmatig`a mutahham qilib, shahid qildilar. Mashhur shundoqdurki, terisini so`yar hukm bo`lubtur, ul holatda bu she`rni debdurki,

Nazm:

Qibladur yuzing, nigoro, qoshlaring mehroblar,

Surating mus`haf, vale xolu xating e`roclar.

Va bu she`rning taxallusi ushbu muddaog`a doldurkim, nazm:

Ey Nasimi, chun tuyassar bo`ldi iqboli visol,

Qo`y, teringni so`ysa so`ysin bu palid qassoblar.”<sup>14</sup>

Hattoki, Navoiy Nasimiyning ijodiga yuksak baho berib, uni “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida nazm bo`stonining sulton-i-orifi Lutfiydan ham yuqoriroq o`rinda ko`rsatadi. Bu esa, she`riyati keng yoyilgani va purviqor mazmun kasb etganligi bois she`riyatning buyuk mutafakkirlari e`tirofiga tuyassar bo`lganligini bildiradi. Nasimi yashagan davrlardan boshlab yaqin o`tmishgacha uning hayoti va ijodiga har bir davrning ziylilari o`z munosabatlarini bildirib, baho berib o`tishgan. Shu bilan birga u yaratgan buyuk falsafiy she`riyat va o`z g`oyasiga bo`lgan sobitlik , mardlik va jasorat uni xalqlar orasida mashhur qilib, shoirlar ijodida, xalq orasida tarqalgan rivoyatlarda badiiy timsol sifatida paydo bo`lishiga olib keldi. Shu ma`noda oldingi o`rinlarda keltirganimiz uning o`limi bilan bog`liq xalq rivoyatlari insonlarning bu shoir jasoratiga bo`lgan hurmati ifodasida yuzaga kelgandir. Shuningdek, shoirlar uning ijodidan ta`sirlanib, asarlarida, she`rlarida unga ergashib ijod qilganliklari, qolaversa, u haqida badiiy asarlar yozishganining guvohi bo`lamiz. Nasimi haqida yaratilgan asarlar orqali ijodkorlar bir tomondan unga dilxohlilik qilgan bo`lsa, ikkinchi bir maqsadi-o`zi aytgan so`zi-g`oyasiga qanchalik sodiqligini

<sup>14</sup> Навоий А. Асарлар. 15 томлик XV том, -Т.: Фағур Ғулом номидаги бадиий адабиёт науриёти 182-183 betlar

ko`rsatib, asarining emotsional ta`sirchanligini, g`oyaviy-estetik ahamiyatini oshirgan.

Mashhur turkman shoiri Maxtumquli o`z muassiri bo`lgan xivalik Durdi Shayx bilan bo`lgan mushoirasida Nasimiyning fojiasini xotirlaydi:

U nimadir yemadilar to`ydilar,  
U nimadir qiyomatga qo`ydilar,  
U kim edi, tovonidan so`ydilar,  
Shoir bo`lsang shundan bizga xabar ber.

Durdi Shayx:

U diydordir, yemadilar, to`ydilar,  
U nomozdir, qiyomatga qo`ydilar,  
Nasimiyning tovonidan so`ydilar,  
Bizdan salom bo`lsin, javob shundadir!

Ozarbayjon xalq og`zaki ijodida ham Nasimiyning olovli shoir, vafoli, sadoqatli oshiq bo`lib tanilgani quyidagi baytlarda namoyon bo`ladi:

Go`zallik soy ilandir,  
Shahmarda soy ilandir.  
Nasimiydek yolunda ,  
Bu oshig` soyulandir.<sup>15</sup>

Nasimiyning siymosi kichik asar-to`rtliklardan boshab katta epik asarlarda ham gavdalantirilgandir. U haqida qissa kabi yirik asarlar yozgan ijodkorlar o`zlaridan ajoyib yodgorlik qolishini va Nasimiyy siymosini-nomini abadiylashtirishni maqsad qilganliklarini qayd qiladilar. Ular Nasimiyning badiiy siymosini yaratish ekanlar, uning keng qamrovli hayot yo`li, ijodi, dunyoqarashi bilan birgalikda tasvirlaydilar. Boisi shuki, ularning hammasi aniq bir manbara asoslanib, bir insonning ma`lum bo`lgan dunyosini ochib beradilar. Zero, adabiyot tarixida bunday voqealar juda ko`plab uchraydi. Darhaqiqat, Nasimiyning badiiy timsolini yaratgan har qanday ijodkor o`z g`oyasi va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yondashsa-da, ularda umumiylar xususiyat-qo`rqmas, mard, jasoratli, qalbi teran valiysifat inson siymosini ko`ramiz.

Mana shunday asarlar qatoriga XVIII asr II yarmida vujudga kelgan “Said Nasimiy” qissasini kiritishimiz mumkin. “Said Nasimiy” qissasining muallifi masalasida noaniqliklar mavjud. Turkman

<sup>15</sup> Азэрбајҹан эдебијјаты тарихи. Бакы, 1960. 292-bet

adabiyotshunoslari uni Andalib yozgan deb qayd qiladilar. Xususan, adabiyotshunos olim G.Nazarov “Nasimiy” qissasining tanqidiy matnini tayyorlab, uning so`z boshisida bir necha faktlarni keltirib, Andalib qalamiga mansub qilib ko`rsatadi. Jumladan, unda shunday fikrlarni o`qiyimiz:

“...Nasimiyning ijodiga hurmat qo`yib, uning mard hamda mashhur shaxsiyatiga yondashib Nurmuhammad Andalib Nasimiy haqida bir asar yaratib, uning otini abadiylashtirish yo`lida harakat qilibdir. Ammo Andalibning “Nasimiy” poemasini ko`chirib yozgan va o`zi uchun Asiriy taxallusini qo`llagan kotib tarafidan poemaning oxirida shunday satrlar keltirilgan :

Asiriy xoksori bebizoat,  
Yurutub xomani qildim kitobat.  
... Asiriy ilgida bo`ldi kitobat,  
Bo`lub Karrux arosinda bu tammat.

Ana shu satrlarga asoslanib ko`chiruvchi kotib sifatida kelgan Asiriyni “Nasimiy” poemasining avtori yoki uni arabchadan turkiy tilga tarjima qilgan degan yanglish fikr mavjud. Bu yanglish fikrning tub sababi yuqorida keltirilgan misoldagi „Asiriy ilgida bo`ldi kitobat“ satrining asl ma`noda kelganligini ko`rsatmaslikdan kelib chiqadi. Agar „Nasimiy“ poemasi Asiriyning o`z original asari bo`lgan bo`lsa, unda u „Asiriy ilgida bo`ldi kitobat“ demay , unga avtor ma`nosini beruvchi „muallif“, „musannif“ der edi. Asiriyni „Nasimiy“ poemasini avtori hisoblamoqqa boshqa dalil yo`q. ”<sup>16</sup>

Aslini olganda, munaqqid masalaga bir tomonlama yondashganligi ko`zga tashlanadi. Yuqoridagi so`zboshining keyingi o`rinlarida „tarjima qildim“ jumlasini asliga nomuvofiq ekanligini, bunda original asar yaratilishini izohlagan <sup>17</sup> ushbu tanqidchi olimning yuqoridagi misollarni keltirishi haqiqatdan yiroqlashganligini, fikrlarida mantiqsizlik mavjudligini ko`rsatadi. Zero, adabiyot tarixida „kitobat qildim“ jumlesi ham „tarjima qildim“ kabi o`z ma`nosidan ko`chganligini bir necha misollar bilan asoslash mumkin. Jumladan, Xorazmiy „Muhabbatnoma“sining boshlanmasida:

Kitobat boshladim anjoma yetgay,  
Muhabbatnoma Misru Shoma yetgay,-

<sup>16</sup> Аналып, Несими. Аигабад, 1978. 21-22 betlar

<sup>17</sup> Shu kitob. 25-28 betlar.

deb yozgan. Fikrimizni oydinlashtiradigan bo`lsak, olimning bu so`zdan asl ma`no “izlashi” noo`rindir. Yana shu xil yondashishni davom ettirib quyidagi fikrlarni bayon etadi:

“Asiriy so`zining asl ma`nosi haqida aytildigan bo`lsa, u so`z “asir”, “qul” ma`nosida bo`lib, u so`z adabiy yodgorliklarda ana shu ma`noni anglatgan. Misol uchun o`zbek klassik adabiyotining vakili Sayqaliyning “Yusuf va Zulayho” poemasida ko`rsatilishicha , Yusufni qul sifatida sotadilar.

“Nasimiy” poemasi oxirida “Yig`langizlar” radifli g`azal keltirilgan:

Qora kunlarni ko`rgan ul necha moh

Asiriy mubtaloga yig`langizlar.

Ko`ringani kabi “asiriy” so`zi bu yerda xos ot emas, “asir”, “bandi” ma`nosida keladi.”<sup>18</sup>

Xo`sh, bu yerda “asiriy” so`zi munaqqid aytganidek “asir”, “bandi” ma`nosida ham deylik. Lekin bu bayot-g`azal asar qo`lyozmasining bir nusxasida bor, ikkinchisida yo`q. Qolaversa, olim shu o`rinda yana bir fakt keltiradiki, unga ko`ra, Sayqaliy “Yusuf va Zulayho” nomli dostonida Yusufning boshiga tushgan balolar Imom Husayn taqdiriga o`xshatilgani qayd qilinadi. Aynan Imom Husayn haqidagi bir she`r asar sujetiga umuman bog`liq bo`lmagan holda “Said Nasimiy” qissasining bir nusxasiga kirib qolgan. Shuni ta`kidlab o`tish joizki, mana shu qo`lyozma nusxaga asoslanib olim bu asarni Andalibga nisbat bermoqda. Uning izohini keyingi o`rinlarda yoritamiz. Shularni e`tiborga olgan holda tadqiqotchilar Asiriy taxallusini tadqiq qilsa haqiqatga yaqinroq bo`lardi.

G.Nazarov, shuningdek, asarning kirish qismi biroz o`zgartirish bilan Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonidan olinganini ta`kidlaydi va asar tarkibida kelgan g`azallar shoir uslubiga yaqinligini hamda asar oxirida mavjud bo`lgan muxammas aynan Nurmuhammad Andalib qalamiga mansubligini qayd etadi. Shu faktlarni keltirish orqali o`z fikrini asoslab, qissa Andalib qalamiga mansub degan masalani oydinlashtirmoqchi bo`ladi. Afsuski, bu misollar “Said Nasimiy” qissasining muallifi aynan Andalib bo`lib, uning ijodiga mansub deyishga yetarli asos bo`la olmaydi. Sababi, Andalib uslubiga yaqin deyilgan g`azallar ham, kirish qismi ham va oxirida keltirilgan muxammas ham qo`lyozmaning munaqqid e`tirop etmagan boshqa bir

<sup>18</sup> *Shu asar. 24-bet.*

nusxasida mavjud emas. Asarning asl nusxasi aynan ana shu-olim nazarga olmagan ikkinchi nusxa degan fikrni aytishimiz mumkin. Yuqorida tahlil etilgan she`rlar asarning umumiyl sujeti bilan bog`liq emas, balki ular ko`chiruvchi kotib tomonidan kirib qolgan bo`lishi mumkin. Imom Husayn fojiasi bilan bog`liq she`riy matn ham shular jumlasidan bo`lib, G.Nazarovning “ta`kidlashicha”, Sayqaliyning “Yusuf va Zulayho” dostoniga aloqadordir. Olimning keltirishicha, qissaning kirish qismi Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonidan olingan ham deylik. Unda muallifning ikkala asarni ham bir vaqtda ya`ni 55 yoshda yozganligini qanday izohlash mumkin. “Said Nasimi” qissasida ham, “Yusuf va Zulayho” dostonida ham bir xil misralarni o`qiymiz:

Barcha xaloyiq ichida bad ishim,  
Yetdi ellik beshga mening bu yoshim.<sup>19</sup>

Bu esa, ikki asarni bir vaqtda yozib bo`lmagani kabi qissani Andalib qalamiga mansub ekanligini ham inkor etadi. Shuningdek, Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonini bilan yaqindan tanishganimizda, uning yozilish uslubi bilan qissa uslubi o`rtasida hech qanday o`xshashlik mavjud emasligi ayon bo`ldi. Andalibning “Yuzuf va Zulayho” asari xalq kitoblariga o`xshash uslubda ya`ni ko`proq nasriy bayon bilan yozilib, muxammas shaklidagi she`riy parchalardan tashkil topgan. Andalibning boshqa asarlari haqida ham shunday fikr bildirish mumkin.<sup>20</sup> “Said Nasimi” qissasi esa, asosan she`riy yo`l bilan boshidan oxirigacha masnaviy shaklda bitilgan. Bu ham bo`lsa, asarni Andalib qalamiga mansub emasligini tasdiqlovchi holatdir.

Ozarbayjon adabiyoti tarixi kitobida ham Nasimiyning hayoti va fojiali o`limiga bag`ishlangan ushbu qissa haqida qayd etib o`tilgan:

“O`zbek shoiri Asiriy 1775-yilda (hijriy 1189) yozilgan poemasini Nasimiyning hayotiga va fojiasiga bag`ishlagan va ozarbayjon shoiriga bo`lgan teran muhabbatini ifoda etgandir.”<sup>21</sup> Ko`rinadiki, XVIII asrda yaratilgan ushbu qissa Asiriy tomonidan yozilganligini ozar adabiyotshunoslari ham e`tirof etganlar.

Shu o`rinda ta`kidlab o`tish kerakki, adabiyot tarixida hech bir ijodkor ikki asarini bir xil jumlalar-gaplar bilan boshlagan emas va bu narsa Andalib ijodida uchramasligi ham tabiiy holatdir. Zero, u ham

<sup>19</sup> Shu asar. 11-bet va H. Андалып. Дессанлар. Аш.: «Туркменистан». 1991. «Юсун-Зулейха», 126-бет

<sup>20</sup> Qarang: Нурмухаммат Андалып. Дессанлар. Ашгабат: «Туркменистан». 1991

<sup>21</sup> Азэрбајҹан эдебијаты тарихи. Бакы, 1960. 292-bet.

o`z davrining talantli va mahoratli ijodkorlaridan biri edi. Bu esa , albatta, uning bunday takrorga yo`l qo`yib, bir xil boshlanmali ikki asar yaratgan degan yondashishga monelik qiladi.

Shuningdek, bu masalada o`zbek adabiyotshunosligida ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. S.Tohirov o`zining “O`zbek shoiri Asiriy va “Said Nasimiy” qissasi” va “Shoir Asiriylar” kabi maqolalarida shu masala yuzasidan bahs yuritadi. Jumladan, “O`zbek shoiri Asiriy va “Said Nasimiy” qissasi” maqolasida asarning muallifi kim ekanligini asoslovchi bir qancha dalillar keltiradi va fikrlarini aniq ilmiy xulosalar bilan izohlaydi:

“Ikkala qo`lyozma nusxani qiyosan o`rganish natijasida “Said Nasimiy” qissasining muallifi masalasiga oydinlik kiritish mumkin bo`lgan quyidagi holatlar ma`lum bo`ldi.

1.85- inventar raqamli qo`lyozmaning boshidagi masnaviy quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Hazrati g`affor egam zuljalol,  
Yo`qtur Oning birligiga qiylu qol.

Mazmunan hamd, na`t hamda sababi nazm bo`lgan bu masnaviy aruzning sari`i musaddasi matviyi makshuf vaznida yozilgan. Masnaviy quyidagi bayt bilan tugaydi:

Andalib(n)ing barcha ishidur xato,  
Garchi xato haqdin erur ko`b ato.

Shundan keyin qissa boshqa vaznda ya`ni hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun, mafoiylun, fauvlun) vaznida davom etadi:

Siposi beqiyos ul zuljalola,  
Sitoyish benihoyat loyazola!...

... bu va bundan keyingi baytlar ham mazmunan hamd va na`t boblari hisoblanadi. Turkiy va fors-tojik adabiyoti tarixida asarning boshini boshqa vaznda, davomini boshqa vaznda yozish an`anasi bo`lmaganidek, bir asarda har xil vazndagi ikkita hamd va na`t boblarini keltirish holati ham uchramaydi. Muhimi shundaki, bu masnaviy Andalibning „Yusuf va Zulayho“ dostonida ham mavjud...

Demak, “Said Nasimiy” qissasining Andalibga nisbat berilishida asos qilib olingan bu masnaviy chindan ham turkman shoiri qalamiga mansub bo`lsa-da, bu asar tarkibiga kotibning xatosi tufayli kirib qolgan. Bu fikrni tasdiqlovchi omillardan biri shuki, 487-inventar raqami ostidagi qo`lyozmada bu masnaviy umuman mavjud emas.

2. Asar xotimasidagi quyidagi baytlarga e`tibor qaratsak, Asiriyning

kotibgina emas, balki boshqa bir manba asosida qissani qayta ishlagan yoki tarjima qilgan muallif ekanligi ayon bo`ladi:

G`araz mendinki qolgay yodgore,  
O`qug`onda yana ham do`stu yore...  
Musohiblar faromush etmasin deb,  
Maning nomu nishonim ketmasun deb.  
Qilibdur bir necha so`zlarni manzum,  
Umid aylab Asiriy ismi ma`dum.  
Duo birla qilinglar daftaram sayr,  
Biayn Olloh bo`ldi tammat al-xayr.

Ma`lum bo`ladiki, „Said Nasimi“ qissasining muallifi Asiriy taxallusli o`zbek shoiri, Andalib qalamiga mansub bo`lgan masnaviy va muxammasning aslida qissa bilan aloqasi yo`q...”<sup>22</sup>

Ko`rib o`tilgan ushbu maqolada qissaning muallifi Asiriy ekanligini isbotlovchi bir necha omillar keltirib o`tilgan. Biroq, bu yerda Asiriy taxallusli shoirlarning yashagan davri bilan asar vujudga kelgan vaqt bir-biriga mos kelmaydi. Qissa so`ngidagi

Edi tarix yuz sakson to`quzda,  
Qo`yub ming ustina, shak yo`q bu so`zda.  
Rabiussuni oyi qo`y yilinda,  
Tamom bo`ldi Asiriyning qo`linda,-

misralariga e`tibor bersak, asar hijriy 1189-yil (mil.1774) da yaratilgan. Maqolada esa, Asiriy taxallusli shoirlar XV asrning oxiri-XVI asr boshlarida Xurosonda hamda XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Toshkentda ijod etgan shoirlar ma`lumligi qayd etilgan. Binobarin, tadqiqotchi yana bir tadqiqot ishida XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Asiriy taxallusli bir shoir yashab ijod etganligi bayon etadi. Unga ko`ra, bu shoir „Sherzod va Gulshod“ nomli bir qissa yozgan bo`lib, uning til xususiyatlari „Said Nasimi“ qissasiga yaqindir.<sup>23</sup>

Qissaning muallifini aniqlashtirish tadqiqotimizning asosiy ob`ekti bo`lmasa-da, u adabiyotshunoslikda yechimini topishi kerak bo`lgan dolzarb masala bo`lgani uchun tadqiqotchilikda mavjud fikrlarni keltirib o`tdik. Va bunda o`ziga xos ilmiy va haqiqatga yaqin xulosalar chiqarishga intildik.

<sup>22</sup> Тоҳироев С. Ўзбек шоири Асирий ва «Саид Насими» қиссаси //Ўзбек тили ва адабиёти, 2003/4.71-73 betlar//

<sup>23</sup> Тоҳироев С. Шоир Асирийлар //Мулокот, 2004 42-43 бетлар//

„Said Nasimiy“ qissasini Asiriy yaratgan. Aniqroq aytadigan bo`lsak, u qissani avvaldan mavjud bo`lgan sujeti asosida yaxlit bir asarni vujudga keltirgan. Andalibga nisbat berilishi masalasiga kelsak, bunday xatoliklar va anglashilmovchiliklar adabiyotshunoslikda juda ko`p uchraydi. Shuningdek, XVIII-XIX asr xattotlik sohasida ham jiddiy nuqsonlar, o`zgartirib ko`chirishlar ro`y berib turgan. Xususan, xalq orasida mavjud bo`lgan “Qissai Mashrab” sujeti asosida kotiblar o`zlarining dunyoqarashlariga moslab qissaning bir necha matnini yaratganlar va shuning natijasida biroz farqli ravishda bu asarning nusxalari vujudga kelgan. „Said Nasimiy“ qissasi ham shunday urinishlar mahsuli o`laroq, biror-bir kotib tomonidan qayta ishlanib Asiriyning asari(asosiy matn)ga Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonidagi boshlanma, voqealarga mos tushuvchi qahramonlar histuyg`ularini ochib berishga xizmat qiladigan Sayqaliyning g`azallarini va shuningdek, elegiya-fojialarga bag`ishlanib yozilgan “Yig`lar bu kun” radifli g`azalni keltirish bilan yangi bir ko`rinishdagi matnni yuzaga keltirgan. Darhaqiqat, bu matn(85-qo`lyozma) ustida keyingi boblarda batafsilroq to`xtalamiz.

“Said Nasimiy” qissasi Nasimiyning hayoti , dunyoqarashi, faoliyati va fofiasiga bag`ishlangan liro-epik asardir. Bu asarda hamd, na`t, munojot kabi an`anaviy kirish qismidan so`ng Mansur Xalloj hayoti tasviri bilan asosiy sujet boshlanadi. Qissa shu tarzda davom etib, Mansur vafotidan so`ng bir necha vaqtlar o`tib qayta Nasimiy bo`lib dunyoga keladi. Bu kabi boshlanmaning o`ziga xos mazmuni shundaki, bosh qahramon Nasimiy obrazi Mansur Xalloj shaxsiyatiga muvofiqlashtirilgan. Uningdek adolatsizlik va zulmga qarshi kurashishi, o`z so`zidan voz kechmasligi, shuningdek, dinni pesh qilib xalqni aldab kelayotgan riyokor kimsalarni ham o`ziga tik boqib so`zlashi, ham she`riyati orqali fosh etishi kabi qator o`xshash jihatlarini ko`rsatishga ishoradir.

IX asrda yashab o`tgan xallojiya ta`limotining asoschisi Mansur Xalloj “Analhaq” degani uchun shariyat peshvolari tomonidan qatl qilingan. Nasimiy esa, yoshligidan unga xayrixohlik bildirib, izdoshlik an`analarini davom ettirgan. Xuddi u kabi ziddiyatli og`ir qismatni boshidan kechirgan. Shu bois ushbu qissada uning badiiy timsolini yaratishda ana shu narsaga e`tibor qaratilgan. Orada 5 asrlik vaqt bo`lsa-da, Nasimiy Mansur Xallojning surriyodi sifatida yaratilgan. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, muallif bu orqali katta muvaffaqiyatga

erishgan. Va bu esa, xalqimizdagi “ot izini toy bosadi” maqoliga to`g`ri keladi. Nasimiylar hayotidagi izdoshlik an`analari butun umri davomida namoyon bo`ladiki, bu holat asar sujetida o`z tasvirini ajoyib mubolag`a vositasida in`ikos etgan.

Shuningdek, uning timsolida Mashrabga xos xususiyatlarni, xarakterlarni kuzatamiz. Mashrabning maktabda mullo o`rgatgan “alif”ni takrorlab “be”ni aytmasligi Nasimiylar ham xos xususiyat bo`lib, o`xshashlikni vujudga keltirgan.

Nasimiylar haqida so`z borayotganda uning tilidan g`azallar keltirilgan. Bu esa, sujetning ichki bog`lanishini yuzaga chiqarish hamda obrazni jonlantirish uchun xizmat qilgan. Түркмен эдебиятинынг тарыхы kitobida ta`kidlanganidek, “Nasimiylar” qissasida Nasimiyning obrazi mifik qahramon sifatida, islom dinini buzganlar tomonidan o`ldirilgan mard, mashhur odam sifatida tasvirlanadi.

....qahramonini mullolarning qarshisiga chiqarmog`ining va halok etmog`ining sababi, birinchidan, tarixiy fakt bo`lsa, ikkinchidan, shoirning islom dinining ustunlariga o`zining ham noroziligi, Nasimiylar tuyg`udoshligi, qolaversa, uning ijodini ma`qullaganligi tufayli bo`lsa kerak.”<sup>24</sup>

Nasimiyning majnunvor hayotini chizishda quyidagi misralar yordamga kelgan:

Gohi kelib o`ziga gohi behush,  
Gohi alfozi kufr aylab gohi xush.  
Necha yillar bo`lib cho`llar makoni,  
Chu Majnun vahshiylar bilan ravoni...<sup>25</sup>

Ko`rinadiki, Nasimiyning obrazi Majnun obraziga yaqin ko`rinishda berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Sayid Imodiddin Nasimiylar tarixiy shaxs bo`lib, XIV-XV asrlarda yashab ijod etgan iste`dodli, otashnafas shoir bo`lgan. Undan bir devon qolgan. Xallojiya va hurufiylik g`oyalari sobit va izdosh bo`lgan bu ijodkor nomi barhayot va boqiyidir. Uning nomini barhayotlikka muhrlagan omil ham o`ziga xos falsafiy-tasavvufiy g`oyalari, purviqor she`riyatidir. Zero, insoniyat tarixida shahid ketgan kishilar ko`p bo`lgan, lekin ularning hayoti va faoliyati bu qadar ma`lum va mashhur emas.

<sup>24</sup> Туркмен эдебиятинынг тарыхы. Ашагабат, 1975. 171-172 betlar

<sup>25</sup> Андалып, Несими. Ашагабат, 1978. 68-bet

Badiiy adabiyot o`ziga qanchalik xalqqa tanilgan zotlarni qahramon qilib olsa, uning shuhrati-dovrug`i shu darajada ko`tariladi va emotsional ta`siri oshadi. Shu ma`noda shoirlar o`z asarlariga Nasimiy obrazini kiritib, o`zlari olg`a surgan g`oyalariga uningdek sodiqligini ko`rsatgan, qolaversa, asarning ta`sirdorligini kengaytirgan. Shuningdek, Nasimiyning g`oyalarini ma`qullagan va shu orqali jamiyatning riyokor kishilari va qabohat ishlariga o`z noroziliklarini izhor etganlar.

Xalq orasida-da keng tanilishi Nasimiyning mavqeい naqadar yuksakligining dalilidir. Uning timsolini xalq rivoyatlari, ijodiyotida ham uchratamiz:

Nasimiydek po`stin nohaq so`ydilar,  
Sening o`g`ling ikki ko`zin o`ydilar.<sup>26</sup>

Bundan ma`lum bo`ladiki, xalq ijodida ham unga nohaq jazolangan odam sifatida qaraladi. Nasimiyning “nafasi”ni bu qadar keng yoyilishining boisi ham uning xalq manfaatlariga uyg`un hayotiy she`riyati va g`oyalaridir.

Hatto, turkiy bo`lmagan xalqlar adabiyotida ham Nasimiyning timsolini yaratilishi uning dovrug`i naqadar yuksakligidan dalolatdir. Jumladan, rus adabiyotida vujudga kelgan Nasimiy haqidagi poema fikrimiz dalilidir. Sergey Ivanov tomonidan yaratilgan “Imadeddin Nasimiy” nomli bu asar Nasimiy jasoratiga bag`ishlangan doston bo`lib, she`riy usulda bitilgan. Unda shoirning butun borlig`ini aks ettirishga harakat qilingan. Nasimiyning falsafiy qarashlari insoniy yuksak fazilatlari bilan birlikda tasvirlangan. Asar 1941-yil yozilgan bo`lib davrining illatlaridan holi emas. Shuning uchun uni Nasimiy siyosini qanchalik e`tibor bilan yaratilishiga qaramasdan, tahsil va tadqiqida hayotiy haqiqatni esdan chiqarmaslik lozim. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, bunda Nasimiy obrazi barcha insoniy go`zallik va fazilatlarga yo`g`rilgan holda yoritilgan.

### **Said Nasimiyning tarixiy shaxs sifatidagi badiiy talqini**

Adabiyotimiz tarixida Said Nasimiy timsoliga murojaat qilingan asarlar ham ko`pchilikni tashkil qiladi. Nasimiyning zamondoshi va shogirdi, turk shoiri Rafiy “Bashoratnoma” dostonida, Latifiy “Mashahir ush-shuaro” tazkirasida (1546 y.), Amir Kamoliddin Husayn

<sup>26</sup> Аңдалып, Несими. Аигабат, 1978. 8-бет

“Majolis ul-ushshoq” tazkirasida, turkman shoiri Maxtumquli (XVIII asr), taniqli o‘zbek shoiri Asiriy (XVIII asr) o‘z she’rlarida Nasimiyning hayoti va fojiali o‘limi to‘g‘risida alamlı satrlarni bitishar ekan, ozarbayjonlik buyuk shoirga o‘zlarining samimiyl munosabatlarini bildiradilar. Uning zamondoshlaridan Amir G‘iyosiddin ham “Istivonoma” asarida Nasimiyni o‘z davrining eng zakovatli darveshlaridan biri bo‘lganligini ta’kidlaydi [16, 4-b.]. Nasimiy fors va arab tilida she'r bitibgina qolmay, turkiy tilda ham ijod qilgan va mumtoz turkiy she’riyatni fors va arab she’riyati darajasiga ko‘tara olgan. Bu haqda Pahlavon Muhammad Navoiy bilan bo‘lgan suhbatida ta’kidlagan. Navoiy ham o‘z navbatida bu fikrga qo‘shilgan [16, 27-b.]. Nasimiy haqida SHamsiddin Osiy, Oqmuhammad, Asiriylar she’riy qissalar yozganlar. Bularidan Asiriyning qissasi shakli va g‘oyaviy-badiiy mazmuni jihatidan ancha mukammalligi bilan ajralib turadi.

“Qissai Said Nasimiy” asari hanuzgacha bugungi alifbo asosida nashr qilingan emas. Uning bir qancha qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, arab yozuvida yozilgan va ko‘chirilgan. Ushbu qissaning birinchi nusxasi Rossiya Federatsiyasi M.E.Saltikov-SHchedrin nomidagi Sankt-Peterburg Davlat kutubxonasida inv.№ T.II.S 85 raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozmadir. Bu qo‘lyozma 96 sahifadan iborat. Bu matnning fotonusxasi Turkmaniston FAning Maxtumquli nomidagi Til va adabiyot institutining qo‘lyozmalar fondida inv.№ 1138 “V” raqami ostida saqlanmoqda. Sankt-Peterburg Davlat kutubxonasida saqlanayotgan qissaning yana bir nussasi – inv.№ T.II.S 28 raqamli qo‘lyozma dotsent Q.Tohirov tomonidan transliteratsiya qilinib, Samarqandga olib kelingan. Qissaning uchinchi nusxasi Turkmaniston FA Maxtumquli nomidagi Til va adabiyot institutining qo‘lyozmalar fondida inv.№ 487 raqami ostida saqlanib turibdi, qo‘lyozma 583 sahifadan iborat. U bayoz-antologiya shaklida bo‘lib, Ahmad YAssaviy, Miskin SHarafiy, Maxtumquli, SHaydoi, Fuzuliy, Saidiy, Kamina, G‘oibiy kabi shoirlarning she’rlaridan namunalarni ham o‘z ichiga olgan. Qo‘lyozma nusxaning 528-567- sahifalarida “Said Nasimiy” qissasi matni keltirilgan. Asar 1382 satrdan iborat bo‘lib, shundan 1092 satri muallif qalamiga mansub, 200 satri Nasimiyning she’rlari va uning tilidan berilgan she’riy namunalardan tashkil topgan. Asar masnaviyda yozilgan bo‘lib, qahramon tilidan aytilgan turli vazndagi g‘azallar lavhalarni “ulovchi” vosita vazifasini o’tagan. SHu bilan birga 20 satr nasriy parcha ham keltirilgan Asar so‘ngida

hijriy 1301 (mel. 1883) yil sanasi qayd qilingan.

“Said Nasimiy” qissasi muallifi haqida olimlar va tadqiqotchilar turli nuqtai nazardan fikr bildirganlar. H.Orasli qissaning muallifi Asiriy deb qayd qilgan [58, 202-b.]. A.Nuryagdiev, N.Gullaev, G.Nazarov kabi turkman adabiyotshunoslari asar muallifini Andalib deb hisoblaydilar [60, 117-b.]. O’zbek adabiyotshunosligida tadqiqotchi S.Tohirov ushbu masala bo'yicha qissaning nusxalari asosida matniy tahlillaridan kelib chiqib, asarning ijodkori Asiriy degan fikrni bildirgan [106, 73-b.].

Tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan siymolardan yana biri Sayid Imodiddin Nasimiy bo'lib, Gestamonili Latify 1546 yilda yaratgan “Mashahir ush-shuaro” tazkirasida Nasimiyni: "...ishq maydonining qo'rqmas askari va muhabbat ka'basining fidoiysi – azimi”, – deb ta'riflagan. SHoir hayoti va ijodi bo'yicha izlanishlar olib borgan H. Orasli tazkirachilarning shoir nomini Imodiddin va Nasimiddin deb yuritganligini, vaholanki, bu ism emas, balki laqabligini aytadi. Fazlulloh Naimiyning “Vasiyatnoma” asaridagi ma'lumotlarga asoslanib, uning haqiqiy ismi Ali-Sayidali ekanligini isbotlashga harakat qilgan [44, 5-b.]. Olim boshqa tadqiqotchilar ko'rsatganidek, Said Nasimiy Bag'dod yaqinidagi Nasim qishlog'ida, Diyorbakirda, Tabriz, SHeroz, Bokuda emas, balki XIV asr o'ttalarida – taxminan 1369-1370 yillarda SHamohi shahrida tug'ilganligi va buni Fazlulloh Naimiyning 1394 yilda SHirvon qamoqxonasida yozgan “Vasiyatnoma” asaridagi ma'lumotlar ham tasdiqlashini qayd qiladi. Ularda aytilishicha, u Sayid Muhammadning o'g'li bo'lib, Sayid Muhammad hurufiylargacha yaqin kishilardan bo'lган.

“Said Nasimiy” qissasi inv. № T.II.S 85 matn nusxasi asosida Ashxoborra 1978 yilda G. Nazarov tomonidan “Nasimiy” nomi bilan arab yozuvida nashr etilgan bo'lib, unda kirish qism (hamd, na't, yozilish sababi) mavjud. Nasriy parcha davomidan 96 misralik boshlanma aruzning *sari' musaddasi matviy makshuf (muftailun muftailun foilun)* vaznida keltirilgan:

*“Ammo qadim ayyomda Said Nasimiy degan bir buzruk vor o'tubdur. Arab tilinda erdi. Turkiy tilina aylantirub necha kunlar mehnatu mashaqqat tortib nazm etarga bel bog'lab, tarix moh jumodussoniy oyinda o'n birlanji kuni yozmoqqa mashg'ul bo'ldim.*

*Hazrati g'affor egam zuljalol,  
Yo'qtur oning birligina qilu qol.” [123, 5-b.]*

SHundan keyin boshqa vazn (*hazaji musaddasi mahzuf / mafoiylun mafoiylun fauvlun*)da davom etib, yana mazmunan hamd bo'lgan baytlar boshlanadi:

*Siposi beqiyos ul zuljalola,*

*Sitoyish benihoyat loyazola.*

*Vujudi vojib ul xalloqi olam,*

*Murabbiy moliki arzi samo ham... [123, 12-b.]*

Inv.Nº T.II.S 487 nusxasi ham shu misralar bilan boshlangan. Inv.Nº T.II.S 28 nusxasida esa bu qismlar mavjud emas. Noma'lum sababga ko'ra tashlab ketilgan va to'g'ridan to'g'ri:

*Ki ondin so'ng qilay bir qissa og'oz,*

*Xudodin bo'lsa tavfiq sarafroz. [157, 7-b.]*

deb boshlangan.

"Qissai Said Nasimiy" asarida voqealar ikki shaklda, ya'ni masnaviy va nasriy yo'l bilan bayon qilinadi. Asar tarkibida g'azal, mustahzod, muxammaslar epizodik obrazlar hamda bosh qahramon Nasimiy tilidan aytildi. Ammo qissaga kiritilgan she'riy namunalarning barchasi Nasimiyga tegishli deyolmaymiz.

"Qissai Said Nasimiy"da qahramonning tug'ilgan yili zikr etilmagan. Asar Nasimiyning tug'ilishi, nasl-nasabi bilan bog'liq voqealar badiiy to'qimaga boyligi bilan ajralib turadi. Qissa boshlanishidayoq Nasimiy obrazi Mansur Hallojga bog'lab talqin qilinadi. Asar boshida xalq orasida fojiali hayoti afsonaga aylangan Mansur Halloj haqidagi rivoyat keltiriladi. Mansurning o'limiga sababchi bo'lgan "Anal Haq" iborasi badiylashtirilib, lavha yaratilgan. Keyinchalik u shu iborani aytgani va o'z e'tiqodidan qaytmaganligi uchun qatl qilinib, kuli suvga oqizib yuborilgan. Ana shu suvdan ichgan Halab shohining qizi g'oyibdan homilador bo'lib qoladi. Qiz bo'yidagi bola aslida qayta zuhur bo'lgan Mansur Hallojdir, deb talqin qilinadi qissada. Nomus qilgan shoh qizi va nevarasidan voz kechadi. Sandiqda oqizib yuborilgan qiz va go'dak daryo oqimi bilan Bag'dodda bir baliqchining to'riga tushadi.

"Qissai Said Nasimiy"da qahramonning tug'ilgandagi hamda ulg'aygan vaqtdagi tashqi ko'rinishi tasviri haqida asarda:

*Bu sandiq ichida bir o'g'il bo'ldi,*

*Jamolidin bu sanduq nura to'ldi."*

*...Borib uyga ochdi ko'rdi bir nur,*

*YOninda mohivash o'g'lon bir hur" [159, 54-b.], -*

tarzda ta'rif qisqa berilgan. Baliqchi ularni farzand qilib asrab oladi va bolaga Nasab deb nom qo'yadi. Asarda baliqchi zohiran Nasabning o'gay otasi deb tasvirlansa-da, Mansur Halloj botinan uning yaratuvchisi ekanligiga urg'u berilgan" [159, 14-55-b]. Tarixiy haqiqatga ko'ra Nasimiyning dastlabki hurufiylik qarashlari otasi – Sayid Muhammad ta'sirida shakllangan bo'lsa, qissada botiniy rahnamosi Mansur Halloj izmidan borganligi tasvirlangan. Adabiyotshunos H. Oraslining ma'lumot berishicha, Nasimiyning yoshlik davri SHamohi shahrida o'tadi. U shahar madrasasida ta'lim oladi. Arab, fors-tojik tillarini, mantiq, riyoziyot, tabiat va astronomiyaga doir ilmlarni mukammal o'rganadi. YAqin SHarqda mashhur bo'lgan tariqat olimlarining badiiy asarlari bilan tanishadi [44, 8-b.]. SHe'rlarida Jaloliddin Rumiy, SHams Tabriziy, Sa'diy SHeroziy, Farididdin Attor kabi shoirlarning, Ibn Sino, Muhyiddin Arabiy, SHibliy, Karxiy kabi mashhur faylasuflarning nomlarini tilga oladi.

Badiiy asarda ham Nasabning tutingan ukasi Amir bilan madrasada tahsil olishi aytib o'tilib, uning yoshlikdanoq avliyolarga xos sifatlarni o'zida namoyon qilishi va u tug'ma valiyzot ekanligiga urg'u beriladi. Buning isboti uchun ayrim voqealar misol sifatida keltiriladi: madrasada tahsil olayotganda "Alif"ni o'qib, "be"ni o'qishdan bosh tortishi va uni izohlashida, ustoz qo'ygan shartlarni mohirona uddalashida ko'rindi. Qalandarning maslahati bilan madrasa talabalari ikki shartni bajarishlari lozim bo'ladi. Birinchisi, chumchuqni hech kim ko'rmaydigan joyda so'yish, ikkinchisi, o'tinni puflab yondirish. Nasab har bir o'y-fikr, harakatimizni Olloh ko'rib, bilib turadi, deb bilgani bois chumchuqni so'ymaydi, o'tinni ho'llab kelgan bo'lsa-da, bir puflashdayoq yondirib yuboradi. SHu vaqt unga mullo Nasimi deb yangi nom qo'yadi. Valiylik sifatlari oshkor bo'lgach, Nasimi madrasadan bosh olib chiqib ketadi [159, 56-65-b.]. Tarixiy manbalarga ko'ra XIV asr o'rtalarida Ozarbayjon temuriylar tomonidan bosib olingan edi va unga qarshi turishga undovchi kuch sifatida paydo bo'lgan hurufiylik tariqati g'oyalari Nasimiya ham ta'sir etmay qolmadi. "Harflarning ba'zi sir va haqiqatlarga ega ekaniga e'tiqod qiluvchi hurufiylik – islom olamida Fazlulloh Astrabodiyy Hurufiy (mel. 1394 y.) tomonidan tartibga solingan. Eronda yashagan bu kishi ko'proq botiniylikdan, qisman tasavvufdan ta'sirlanib, o'z tartib-qoidasini joriy qilgan. Botil fikrlari uchun Amir

Temurning o'g'li tomonidan qatl ettirilganligiga qaramay, hurufiylik, ayniqsa, Onado'lida tarqalish imkonini topgan" [58, 34-b.]. Nasimiy bu davrda bir tomondan shiachilik ta'siri, ikkinchi tomondan Mansur Hallojga bo'lgan hurmati tufayli "Husayniy" taxallusi bilan ijod qiladi. Keyinchalik u Fazlulloh Naimiy bilan tanishadi va undan ilhomlanib "Nasimiy" taxallusini qabul qiladi. YUqoridagi ma'lumotlardan shuni e'tirof etish mumkinki, qissadagi va tarixiy manbadagi taxallus olish bilan bog'liq voqeа o'zaro uyg'unlikni tashkil etgan.

H.Oraslining qayd etishicha, Nasimiy 1394 yilda Fazlullohning kichik qiziga uylanib, Bokudan chiqib ketadi. "Qissai Said Nasimiy"da esa Nasimiyning oila qurbanligi haqida ma'lumot keltirilmagan. Asosiy e'tibor uning yolg'iz umr kechirganligiga va dashtu biyobonlar, tog'u toshlar tomonga yo'l olib, o'zi kabi darveshsifat kishilar bilan hamroh bo'lganligiga qaratilgan:

*Nasimiy tog'u toshlarda yururdi,*

*Necha hikmat o'qub sayron qilurdi.*

*Qolurdi goh shahra, goh cho'la,*

*Ishi kechayu kunduz erdi yo'la.*

*Anga keldi, qo'shuldi ikki abdol,*

*Bu uch devona bo'ldi necha moh sol.*

*Banogoh keldi bu shahra uch yor,*

*Bularga pir yo'luqdi boyakbor... [159, 75-b.]*

O'sha pir ularni ziyorat qilgach, ularning keyingi taqdiridan belgi beruvchi uchta narsa beradi: biriga non, ikkinchisiga olma, Nasimiya esa qizil olmani pichoq bilan kesib beradi. So'ng pirning duoi fotihasini olib, uch yor-do'st o'z yo'lini davom ettiradilar. Bu voqeа va uning natijasi quyidagicha tasvirlangan:

*O'turub dam olib so'zlashti bular,*

*Bu so'zlar ma'nisin qo'zg'ashdi bular.*

*Nasimi aydi bu sirning ma'nisi bor,*

*Nega anglamadingiz, ey naku kor.*

*Ki etti kun o'tub bo'lg'on zamoni,*

*Bilurin birga ko'mub non oloni.*

*Urarlar to o'lancha tosh otibon,*

*Bu shahr o'rtosinda sangsor e'tibon.*

*YAna olma olamni doro osg'ay,*

*Soling'ay bo'ynig'a ib oni qilg'ay.*

*Qizil olmani so'yib manga berdi,*

*Beklanglar ul alomat bizdin erdi.  
 Mani qo'ydek era bosib yiqrarlar,  
 So'yubon terima samon tiqarlar.  
 Bu so'zni eshitib yig'lashurlar zor,  
 Bo'yunsundi xudo amrina nochor.  
 Ki o'tdi etti kunda ey neku kor,  
 Birini osdilar, birini sangsor.  
 Nasimi o'qub anda bu g'azalni,  
 Xalab shahrina bordi ko'rjadalni... [159, 77-79-b.]*

Nasimiy dunyoqarashi faqat shar'iy amallarni bajarish bilan cheklanib qolgan, harakatlarida shaxsiy manfaat ustun bo'lgan bir guruh din ahlining qarashidan keskin farq qilar edi. H.Oraslining ko'rsatishicha, shoirning keyingi hayoti quyidagicha kechgan: "...u bir muddat Bag'dod shahrida istiqomat qiladi, Iroq shaharlarida bo'ladi, Turkiyaga boradi va Onado'li shaharlaridan Tokat, Bursa va boshqa erlarda yashaydi. SHoir o'zi bo'lgan joylarda hurufiylikni targ'ib etganligi uchun bir necha daf'a qamoqqa olinadi, "bandu zindonlarga" mahkum etiladi. ...Nasimiy Halab shahriga kelgandan so'ng maslakdoshlarini to'plab hurufiylik ta'limotini keng yoyishga kirishadi. Bir qancha ta'qib etilgan xurufiylar Boku va SHamohidan bu shaharga kela boshlaydi. SHoir Halabda uy-joy qilib, uzoq vaqt oilasi bilan yashaydi. Lekin shoirning bu shahardagi faoliyati ruhoniylar va Misr sultoni Muayyaddin nazaridan chetda emas edi. 1417 yilda shoir Halabda muhokama etilib, fojiali bir tarzda qatl qilinadi." [44, 11-12-b.] Amir Kamoliddin Husaynning "Majolis ul-ushshoq" tazkirasida Nasimiyning o'ldirilishi bilan bog'liq lavhalar boshqa manbalardagidan ko'ra kengroq yoritilgan.

Qissada ham Nasimiyning dushmanlari mullo-muftilarning anchasi to'planib, shohga arz qilib, unga oliy jazo berish kerakligini so'raydilar. Ma'lumki, Nasimiyning tutingan ukasi Amir kal Bag'dod shohi etib tayinlangandi. Nasimiy mudarris huzuridan chiqib ketganidan beri Amir u haqda biror xabarga ega emas edi. Arz qilinayotgan shaxs aynan Nasab - akasi ekanligi xayoliga ham kelmagandi va davlat ruhoniylarining g'azabini qo'zg'atgan, tinchini buzgan xurufiy shoir ustidan hukm chiqarib yuboradi. Farmoni oliyni bajarishga shay turganlar, darhol Nasimiyni tutib keladilar va Bag'dodning qoq markazida namoyishkorona qatl etadilar. Uning o'ldirilishi bilan bog'liq lavha ham Mansur Halloj o'limini eslatadi. Qissada bu holat

quyidagicha zikr qilinadi:

*Ki ba'd az etti kun qoziyu mufti,  
YOninda muhtasib mullosin ko'rdi.  
Kelibon jumla xona qildilar arz,  
Muning qatli erur shohim siza farz,  
Chu dora osmoq ila o'ljadi bu,  
Magar bu o'rganibdur sehru jodu.*

*Tilin kesib, ko'zin o'ymoq kerakdur,  
YOturib er uza so'yomoq kerakdur.  
Tutub xalqasidin oni bosinglar,  
Terisini so'yub somon ticinglar.  
Bosib har erga urdilar fichoqni,  
Tilindin qo'ymadi bu zikri haqni.  
Pichoq kor etmadi hech eriga,  
Ki xarchand zo'r etar o'tmas teriga.  
Keltirdilar necha o'tkir pichoqni,  
Bu qo'ymastur tilindin zikri haqni.  
Anga kor etmadi har bir pichoqlar,  
Anga o'tmas necha ursa tayoqlar.*

*CHekibon chora muncha necha jallod,  
Qilur behad tayoqu g'ayr mu'tod.  
Agar oxir dedi jallodi zolim,  
Maning hech qolmadi bir zarra majolim.  
Tabonimdan yorib, so'ying terimni,  
Abas ta'zim etmang har rahbarimni.  
Tabonim birla bosqonman najosat,  
Pichoq kesmak ila bo'lmish kasofat.  
Tabonidan tutub so'ydi terisin,  
Tamom a'zosidin qo'ymay birisin.  
Solib somon ichiga tiqdi bosti,  
Kelturub oni darvozag'a osti.  
Amir kal bo xudo etisi banogoh,  
SHikora chiqdi bo'lub erdi ul shoh.  
Ani ko'rgach, o'qudi bu g'azalni,  
Bayon aylab anga bo'lg'on jadalni... [159, 89-90-b.]*

Qissadagi Amir kal – Nasimiying tutingan ukasi to'qima obrazdir. Hukmdor bo'la turib inisini qutqara olmagani uchun ham o'zini kechira olmaydi. Amir kal ovdan qaytayotib, darvozadagi jasadga

ko'zi tushib, o'z akasi Nasab qatl etilganligini anglab, larzaga keladi. Ichidagi dard-alamni faryod chekish bilan ham engillata olmaydi. Nihoyat, ichki bir g'alayon uni barcha mullo-muftilardan qasd olishga undaydi. Ularni hiyla bilan saroyga taklif etib, hammasini qilichdan o'tkazadi. Qissa shu tarzda yakunlanadi. Qissanavis g'aflatdagি Amir kal o'rnida o'zini his etib, Nasimiyning dushmanlaridan shoh qo'li bilan o'chini oladi. Nasimiyl bilan bog'liq aksar manbalarda, asosan, uning metin irodaga ega ekanligi, jasoratliligi va dovyurakligi tilga olinadi. Oxirgi daqiqada ham u o'z maslak-e'tiqodidan qaytmay, o'limni mardonavor qarshilagani va uning o'limi insoniyat tarixida yuz bergen eng dahshatli fojialardan biri ekanligi ta'kidlanadi.

"Qissai Said Nasimiyl"da Nasimiyl cho'rtkesar, hozirjavob, tili va dili bir bo'lмаган qoziyu mullolarning adabini berib, ularni hajv qila oladigan darajadagi kishilar deya ta'riflanadi. "Qissai Said Nasimiyl"da Nasimiyl xarakterini yorituvchi quyidagi parcha keltirilgan:

*"Ammo Nasimiyl ko'rdi va besh yuz mulloyu oxun, qozi mufti yig'ildilar. Nasimiyl maxduqla loya qul bo'lub maxzuq erdi, aydi: "Assalomu alaykum, ey ichi qaro, tish(tashqari)lari oq, juma kuni kalda kal, mullo musulmonda kal". Bu so'zni mullolar eshitdilar, avvaldin ham darg'araz erdilar, tutdilar, ta'zir etdilar. YAna qo'ymadni, takror etdi. Mullolar bu ehtimola ketib edi. Bul aytur: "Juma kuni kun degil, mullo musulmon degil", - der. "Juma kunlarning afzali bo'lsa, mulla musulmonlarning afzali bo'lsa, bu so'z bizga haqarat turur"- dedilar. Ammo Nasimiyning so'zi bu erdi: "Juma kuni kunlarning ichinda kal erur, mullo musulmonlarning kali erur", - degan erdi, mullolar bu ehtimola bormadilar. Zeroki, avvaldin darg'araz erdilar. Tishoq deganda zikri ehtimola ketib erdilar. Mullalarning so'zi:*

*Bu so'zlarni eshitib mulla bari,*

*Dedi xona borib dodiyu zori.*

*Qilib bizlarga ko'p turluk haqarat,*

*Ki bu devona deb qildi ishorat.*

*Urubon, avvalo bisyor ta'zir,*

*Solib g'ul bo'ynig'a oyoqa zanjir.*

*Bu shoh qoshinda ham qildi iroda,*

*Kelib mullolarning qahri ziyoda.*

*Ihonatlar biza ko'p qildi tayin,*

*Bo'lub kofir kitob mujtahiddin.*

*Biza qildi haqoratu yana qildi,*

*Xudog'a qildi, rasulina qildi*" [159, 85-86-b.].

Nasimiy siy whole siy whole qiyosiy o'rganishda ma'lum bo'ladiki, qissalarda har ikkila qahramon xalq orasidan etishib chiqqan kishilar manfaatini himoya qilishga urinuvchi isyonkorlar sifatida talqin qilingan.

Qissalarda qahramonlarning tilidan qator she'riy misralarning keltirilishi orqali ularning badiiy ijod sohibi ekanligiga ham urg'u berilgan. "Ijod ahllarining obrazlarini yaratishda esa muallif oldida "qahramonning ijtimoiy turmush bilan bevosita bog'liq bo'lgan faoliyatini va dardini tekshirish hamda ko'rsatishgina emas, balki uning ijodiyoti psixologiyasini, asarlarida keyinchalik ifoda qilingan poetik mayllarning tarixiy – real ildizini ham ochib ko'rsatish vazifasi turadi" [82, 19-b.]. "Qissai Said Nasimiy"da Nasimiyning ijodkorligiga urg'u berilib, qissada uning tilidan qator she'riy namunalar keltirilgan. Nasimiy ozarbayjon adabiyotining etuk shoirlaridan biri bo'lgan. Uning qator asarlari o'z davrida zamondoshlari tomonidan jamlanib kitobat qilingan, sevib o'rganilgan. Qissada Nasimiyning ijodkor shaxs bo'lganligi va uning she'riy namunalarini ixlosmand shogirdlari tomonidan jamlanganligi haqida quyidagi qayd mavjud:

*G'azallar benihoyat aytib anda,*

*Ani yozsa jahona sig'mas anda.  
YOzib bir nechasin tashladi g'ora,  
Ki qolsun do'st yora yodgora.  
Izidin izlab erlar bir nechani,  
Topib manzum safha aylab oni.*

*Oni ham qildilar daftar kitobi,*

*Ki shoyad bo'lg'ay deb bizga savobi.  
Biz andin bu risola ichra bir oz  
G'azallarni solib qilduk bu dom soz  
Birisi bu erur ey tolibi rox,  
O'quq'il yaxshi ko'ngling birla tinglo, [159, 69-b.] –*

deb, "G'azali Nasimiy" sarlavhasi ostida "sig'masam", "bor edim" radifli g'azallari keltirilgan. SHuningdek, qissada Nasimiy tilidan qator she'riy namunalar keltirilganki, ularni aynan Nasimiyning asarlari deb bo'lmaydi. Nasimiy yaratgan adabiy meros nafaqat ozarbayjon xalqlari orasida, balki butun SHarq xalqlari (turk, arman, o'zbek va hokazo) orasida keng yoyildi, o'rganildi. SHoir ilgari surgan g'oyalarga ergashgan, o'zlashtirib asarlar yaratgan hamda she'rlariga naziralar bog'lagan ijodkorlar soni ortib bordi. XVII asrning mashhur arman

shoiri Mironiy Nasimiyning shogirdi bo'lgan, uning g'oyalarini davom ettirgan [53, 48-b.].

Tadqiq qilinayotgan qissada qahramon o'zi yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan voqealarga o'z munosabatini bildirgan.

### **Said Nasimiyning manqabaviy hayoti badiiy talqini**

Qissaning xususiyatlardan yana biri - manqabaviy lavhalarning mavjudligidir. Hozirgi kun estetik dunyoqarashimiz nuqtai nazaridan asar qahramonlarining g'ayriodatiy tuyulgan xatti-harakatlari, gapso'zlari kishi diqqatini tortadi.

Said Nasimiyl oddiy kishilardan farqli ravishda g'aroyib xususiyatlar, fe'l-atvorga ega. Uning tug'ilishidan tortib o'limiga qadar bosib o'tgan hayot yo'li ham oddiy kishilarnikidan farq qiladi. Qissalarda boshdan-oyoq ularning g'ayb olami bilan chambarchas bog'liq avliyolar ekanligiga alohida urg'u beriladi. Ma'lumki, valiy insonlarning hayoti, so'zlari va ezgu amallari ko'pchilikka ibrat va saboq bo'lgan. Qissada u komil insonlar - barcha ilmlardan, zohiriyl va botiniy donishdan boxabar, qalbida g'ayb asrori jo'sh urib turgan zotlar sifatida tasvirlanib, siyrati va suratida ilohiylik va insoniylik mujassam etilgan. Albatta, qissalarni o'qigan oddiy kitobxon qahramonlarning o'ziga xos jihatlari, kashfu karomatlarini badiiy adabiyotga xos bo'lgan mubolag'a, bo'rttirish sifatida tushunishi mumkin. Qissalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritganda, qahramonlarning tarixiy-badiiy qiyofasi, xarakterini yoritib berishda ularning tasavvuf ahli vakili ekanligini yodda tutish lozim. CHunki voqealarni oldindan ko'ra bilish, o'zgalar fikrini o'qish va fikran o'zgalarga ta'sir o'tkazish, nafas quvvati, nazar quvvati, dil quvvati, bir fikr yoki hodisaning bir yo'la ikki-uch kishi qalbida paydo bo'lishi, holatga kirib, vujuddan nur taratish, bir zumda boshqa joyda paydo bo'lish, ruhning jismdan ajralib sayr etishi va qaytib kelib jismga kirishi kabi favqulorra xislatlar namoyon etish tasavvuf ahliga xos xususiyatlar hisoblanadi. Bunday holatlarda folklor asarlariga xos poetik tasvir ta'siri ham ochiq seziladi.

Alisher Navoiy "Nasoyimul muhabbat" asarining debochasida ko'rsatishicha, "Avliyolarda zohir bo'ladigan g'ayritabiyy odatlar va karomatlar bayoni va avliyolarning martabalari ko'p bo'lganidek, bular ham ko'pdirlar. CHunonchi, bir nechtasini sanab o'taylik:

mavjudlikdan yo‘q bo‘lish va yo‘qlikdan mavjud bo‘lish va yashirin amrning izhori va ko‘rishib turgan amrning yashirinishi va duoning ijobat bo‘lishi va ozgina vaqt ichida uzoq yo‘lni bosish va sezgilar (ko‘rish, eshitish kabi) sezmaydigan ishlardan xabar topish va bir vaqtning o‘zida bir necha xil joylarda hozir bo‘lmoq va o‘likni tiriltirish va tirikni o‘ldirish va jismlar, o‘simliklar, hayvonlar tilini anglash, ularning xudoga tasbehini bilib turishi va taom, ichimlikka hojat paydo bo‘lganday bularning sababsiz paydo bo‘lishi va suv ustida yurish va havoda uchishdek va odamlar emaydigan narsalarni eb kun o‘tkazish va hayvonlar bilan do’stlashish va badanda haddan ziyod quvvat paydo bo‘lib, daraxtni ildizi bilan qo‘porish va devorni barmoq ishorati bilan teshish va muxolifning boshini ilik ishorati bilan o‘chirmoq va g‘arq bo‘layotgan kemalarni qutqarmoq. Odam ahli tilaganidek ishlar, masalan, yomg‘ir yog‘dirish, shamol qo‘zg‘atish, sel keltirish yoki selni daf’ qilish va chigirtka ofatini daf’ qilish va turli suratda ko‘rinish. Biyobonda sarson bo‘lganlarga rahnamolik qilish va yordam berish” [135, 22-23-b.].

Kashfu karomatlar ko‘rsatish bilan atrofdagilarga ta’sir etish avliyolarga xos xususiyat bo‘lgani bois qissalarda qahramonlarning ana shu xislatlarini tasvirlashga alohida e’tibor qilingan. Xo‘sh, karomat deganda o‘zi nimani tushunishimiz kerak? “Karomat – valiyolarga xos xususiyat. Avliyolar payg‘ambarlarning vorisi o’laroq, g‘ayriodatiy hodisalarini tushuntira olishi, namoyon eta olishi kerak. Olloh sidq egasiga ikrom qilib, g‘ayb asrorini ochishi natijasida karomat hosil bo‘ladi. CHunki eng ulug‘ karam sohibi Udir. ...Evropa sharqshunoslari karomatni favqulodda mo“jiza deb tushunib, tasavvuf mistikasining asosini shu g‘ayritabiyy voqealar bilan bog‘laganlar. Ammo karomatni sehru jodu o‘rnida qabul qilish to‘g‘ri emas. CHindan ham ayrim manoqibnavis muridlar o‘z shayxlari obro‘sini ko‘tarish uchun har xil rivoyatlar keltirishga harakat qilganlar. CHunki manqabat etishdan maqsad, Mahmud Taroziy aytganidek, maqtashdir“ [116, 48-b.]. SHuni e’tiborga olmoq kerakki, tahlil doirasiga tortilayotgan asarlar manoqib emas, balki qissalardir. Ushbu qissalarda manqabaviy tasvirlarning keltirilishi qaysidir jihatdan manoqib janri bilan uyg‘unlikni hosil qilgan. Ijodkor qissanavislar bosh qahramon – valiy insonlarni maqtash maqsadida asarlarida ayrim o‘rinlarda badiiy to‘qimalardan foydalanganlar. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qissalar syujetidagi badiiy

lavhalar xayoliy va hayotiy uydirmalardan tashkil topgan deyish mumkin. Uydirmalar o'zining xarakter-xususiyati, vazifasi, sifatiga ko'ra rang-barang bo'lganidek, syujetlar kompleksi ham xilma xildir. Ana shu xilma xil syujet va kompozitsion yo'naliishlarni chuqur o'rganish qissa janrini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xayoliy uydirmalar asosiga qurilgan syujetlarda sehr-jodu, mo"jizalar hamda karomatlar bilan bog'liq voqeа-hodisalar haqida hikoya qilinadi. Qissalarda quyidagi hayoliy uydirmalarni uchratamiz: "Qissai Said Nasimiy"da chiltonlar bilan Anolning uchrashuvi, Mansurning o'limidan so'ng to'fon bo'lishi va uni bostirishda "kul"ning ta'siri, sirli suvni ichgandan so'ng malikaning homilador bo'lib qolishi va Nasabning tug'ilishi, keyinchalik uning otashnafas ekanligi ayon bo'lishi, qatldan so'ng Nasimiy tana terisining tilga kirishi bilan bog'liq bo'lgan voqeа-hodisalar hikoya qilinadi.

Hayotiy uydirmalar asosida qurilgan syujetlarda ko'proq ijtimoiy-siyosiy ruh ustunlik qiladi. "Kissai Said Nasimiy"da Zunnun Misriyning Mansur bilan Nasimiy taqdirlarini bog'lovchi rishta vazifasini o'tashi, qahramonning sandiqda oqizib yuborilishi, Nasabning yoshligidan ilmi g'aybdan voqif bo'lishi, o'z taqdirini oldindan bilishligi, davlat qushining Amirni tanlashi va uning xon bo'lishi, xon barcha mullolarni suv tegirmonidan o'tkazib, qatl qilishi, yillar o'tib bir cho'loq mullodan dunyoda mullolarning ko'payishi kabi syujetlarda esa mavjud hayotiy uydirmalar ko'proq ijtimoiy-siyosiy ma'noni talqin etadi. Hayotiy uydirmalar asos bo'lgan syujetlarda qahramon raqibini, muammoli vaziyatni yoki to'siqni ko'proq o'z kuchi, aql-idroki va jasorati bilan engib o'tadi. Element shaklida kelgan sirli vositalar, karomat sifatida talqin etilgan sehru mo"jizalar esa yordamchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Qissada Nasimiyarning nasl-nasabi mamlakat shohining farzandlari deb ta'riflanadi. Nasimiyning ona tomonidan Xalab yurtining malikasi (ismi qayd etilmagan), ota tomonidan esa g'oyiban Mansur Halloj deb ta'riflanadi. Fikrimizcha, qahramonni zotan mamlakat hukmdorlariga bog'lab tasvirlanishida ham ma'no bor. Islom teologiyasida hukmdorlar Xudoning nazariga tushgan va er yuzida davlatni hamda xalqni adolatli boshqaradigan Uning "soya"si deb tushunilgan. Hukmdor va farzandalarning har bir xatti-harakati keng omma nazaridan chetda qolmagan va ma'lum ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Xalq ularda o'z idealini ko'rishga harakat qilgan. SHu nuqtai

nazardan qissanavislar ushbu qahramonlarni ideallashtiradilar, boshqa insonlardan farqlaydilar va mubolag‘alarga boy lavhalarda ulardagi valiylik sifatlarini yoritib boradilar.

“Qissai Said Nasimiy” qahramoni - Nasimiy siyomosi tug‘ilmasdanoq Haq ishq bilan yo‘g‘rilgan avliyo zotlar sifatida ta’riflanadi. Nasimiy aslida qayta zuhur bo‘lgan Mansur Hallojdir deb tasvirlanib, shoh qizining g‘oyibdan homilador bo‘lib qolishi va o‘g‘il farzand ko‘rishi lavhalari Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi Qaqnus qushi haqidagi voqeа tasviriga hamohang [136, 169-b.]. Ma’lumki, Qaqnus – bu afsonaviy xushovoz qush, uning tumshug‘ida juda ko‘p teshikchalar (360 ta) bo‘lib, bu teshikchalardan chiqqan unlardan yoqimli kuy taralarmish. Navoiyning hikoya qilishicha, bu qush ko‘p jihatdan boshqa qushlarga o‘xshamas ekan. Uning patlari turli ranglarda tovlanadigan, tumshug‘ining teshiklaridan esa yangi-yangi un va kuylar taralar ekanki, eshitganlar mungli kuydan ta’sirlanib, bexush bo‘lib qolarkan. Bu qush umr bo‘yi yakkayu yolg‘iz yashab, o‘rmonda xas-o‘tin yig‘ish bilan mashg‘ul bo‘lar ekan. Xo‘lmi-quruqmi yiqqan o‘tinlari bir xirmon bo‘lgach, ustiga chiqib shunday hazin ohanglar bilan nola tortib kuylar ekanki, eshitgan jamiki qushlar, vahshiy hayvonlar uning atrofiga to‘planib, hatto jon ham taslim qilarmish. Qaqnusning navosidan uchqun chiqib ketib, uyulgan xirmon olovlanib ketadi va gulxan ichida Qaqnus ham yonib kulga aylanar ekan. Qizig‘i shundaki, kul uyumidan yangi qaqnus bolasi dunyoga keladi va u ham yaratuvchisi kabi uning hayotini takrorlab umr kechiradi.

Ushbu lavha Nasimiyning tug‘ilishi bilan aynan o‘xhash. Mansur Hallojning sufiyona fikrlari, g‘oyalari o‘z davrida din peshvolari tomonidan qattiq qarshilikka uchragani bois uni vahshiyona qatl etganlar: tiriklayin gulxanda yoqib yuborganlar. Mansurning jismi yonib kulga aylanadi. Uning kuli ma’naviy piri – Zunnun Misriy (epizodik obraz) vositasida suvga oqizib yuboriladi va kul bora-bora shoh qizining hovuchiga tushadi. Xo‘plangan bir hovuch kulli suv bois qiz homilador bo‘lib qoladi va vaqt soati kelib Nasabni dunyoga keltiradi. YA’ni Mansur Halloj gulxanda yonib fojiali halok bo‘lgan “Qaqnus” bo‘lsa, Nasimiy uning kulidan yaralgan “qaqnus bolasi” – uning surriyodi, ishining davomchisi.

Islomiy aqidalarga ko‘ra olam, borliq ilohiy Ishq tufayli yaralgan. Illohiy Ishq har qanday insonga ham nasib etavermaydi. Agar inson yaratuvchi va boriq haqida aqlga, mantiqqa asoslanib fikr yuritsa,

unda atrofni o'rab turgan olamdan narini bilishga, ruhiyatni, g'ayb olamini qalban sezaga olmaydi. Ishq esa inson ruhini tarbiyalaydi, dunyoviy-nafsoniy sifatlardan xalos ettirib, ilohiy sifatlarni kashf etishiga kuch bo'lib xizmat qiladi. Inson ruhan o'zini poklab, ilohiy ma'rifikatni egallgach, Mutlaq Zotning o'ziga qo'shiladi, ya'ni foni bo'ladi. U ilohiy Zotning bir qismiga aylanadi, tavhidga erishadi. YUqoridagi ikki lavhada Mansur Halloj va Qaqnus qushi ilohiy Ishq sohiblari sifatida talqin qilingan. Ikkala obrazning olov qa'rida yonib kulga aylanayotgani tasvirlansa-da, ular aslida allaqachon jismonan o'zligini unutgan va ruhan asl yaratuvchisiga qaytish uchun chekayotgan har qanday qiynoq va iztiroblar qahramonlar uchun hech gap emas. Moddiyundan xalos bo'lib, asl manbaiga tezroq qaytish ularning asl maqsadidir. Bunday kuchli ilohiy Ishq qudrati tufayligina yangi oshiq qalblar tug'ilishi mumkin. SHu boisdan ham Ishqdan ishq zarralari yaraldi. Ijodkor Mansur Halloj va Nasimiyning hayotdagi maqsad-e'tiqodi bir ekanligiga asoslanib, ularni uzviy bog'laydi. Bu bilan hayotdagi barcha narsa, shu qatorda insonlar izsiz yo'qolib ketmaydi, balki vaqt o'tib, ulardagi abadiy tirik ruh boshqa shakldagi narsa yoki kishida namoyon bo'ladi, degan hurufiyona fikrni tasdiqlaydi. Vaholanki, islomda ruhning ko'chib yurishi qoralanadi. Borliq haqidagi bu falsafiy fikr bevosita bosh qahramonning tavalludi bilan izohlanadi va shunisi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Haqiqatda esa Nasimi Mansur Hallojning ta'limoti va g'oyalarini eng ma'qul yo'l deb, unga ideal shaxs sifatida qaragan, umri davomida o'z idealiga muvofiq kelishiga harakat qilgan va bunga erishgan ham.

Nasimiyning chin oshiq ekanligi, yoshligidanoq Ollohning birligi va borligiga imon keltirishi mактабда savod chiqarishlari bilan bog'liq lavhalar mazmuniga singdirib yuborilgan. Bu lavhalar deyarli bir-biridan farq qilmaydi. "Qissai Said Nasimi"da bu lavha she'riy tarzda quyidagicha bayon qilinadi:

*Baliqchi berdi mullog'a bularni,  
O'qitur bo'ldi mullosi alarni.  
Amira o'rgatib berdi saboqni,  
Ul aytib boshda ham chun zikri haqni.  
Ki andin so'ng Nasaba keldi navbat,  
YOzib taxtag'a hushatdin necha xat.  
O'quv avvalda ul nomi xudoni,  
Kimga aytibon zikri samoni.*

*Tiliga joriy qildi ul “alif”ni,  
 O’qutmoq uchun ul damda Nasabni.  
 Nasab “alif” dedi anga barobar,  
 Desa mullosi “be” dedi sarosar.  
 YAna takror aytib qildi ado,  
 Nasab na derini qildi ziyoda.  
 Ki hargiz “be” demas urdi yuziga,  
 To’lub xunobdek boshi, ko’ziga.  
 Dedi mullog’a: “O’ltursang o’zumni,  
 Demasman ul so’zing eshit so’zimni.  
 Kerakmas ul menga ta’lim xudoying,  
 Menga o’qut agar bilsang Qur’oning”.  
 O’qutur bo’ldi mullo anda Qur’on,  
 Ochib Qur’onni o’qi deb buyurg’on.  
 Dedi ul damda: “Ma’nisin o’qutg’il,  
 Ki andin so’ngra ul xatlarni tutg’il”.  
 Kelibon qahri mulloning u so’zga,  
 Necha martaba shaffoti urdi yuzga.  
 Nasab aydi: “Kishi ma’nini bilsun,  
 Digar ma’nisi yo’q xatni na qilsun”.  
 Dedi bir necha tavsif anda ul on,  
 Ko’rub oni ul mullo bo’ldi hayron.  
 Ki ondin so’ng oni mullo o’qutmay,  
 O’z oldiga qo’yaberdi bekitmay.  
 Kelib-ketib yurur ul xizmat etib,  
 O’qumas anda lekin taxta tutub, ...[159, 57-58-b.]*

Qissada Nasimiyl ning bashorat qila olish xususiyati ketma-ket lavhalarda ko’zga tashlanadi. Nasimiyning yoshlik davridayoq o’z qismatini ukasi Amirga bashorat qilishi aks etgan:

*Nasim aydi Amira ey inim jon  
 Bu Bag’dod shahrina sen xon bo’lursan.  
 Siyosatlig’ ulug’ elga buyursan  
 Mani sangsor etib ham dora osib  
 So’yursan so’ngra terim erga bosib  
 Terimga tiqdurub somoni bug’doy  
 Osib darvozada o’n kuncha turg’ay [159, 56-b.]*

Voqealarni oldindan ko’ra bilish bugungi kun ilm-fanida qisman o’z ifodasini topmoqda. SHu bois, lavhalardagi bashorat qilish hodisasi

hayotiy reallikka monandlikni kasb etgan desak bo'ladi. Qahramonda g'ayritabiyy odatalar va karomatlar namoyon bo'lishi kuzatiladi. Masalan, Nasimiyning otashnafaslik iqtidoriga e'tibor qaratilgan. Uning xo'l o'tinlarni bir oh urish bilan olovlanadir yuborishi, bir nafas bilan tandirda olov yoqishi tasvirlari keltirilgan. Qissadagi bir rivoyatda mudarris xotiniga tandirga o't yoqishga yordam berish uchun Nasimiyni jo'natadi. Nasimiy tandir ichiga faryod bilan nafas urganda tandir ichi olovlanadi. Bundan dovdirab qolgan xotin eriga voqeani aytganda, u xotiniga "Bu bola valiydur, undan sen ham ogoh bo'lgin deb yoningga jo'natgandim", - deydi. Ishqning qalbda zo'rayib ketishi, otash bo'lib vujud ichida yonishi bois oshiqning ahvoli oshkor bo'ladi. Uning nafasidan "uchqun" lar ufuradi. Illohiy Ishq o'z ishini ko'rsata boshlaydi, vujudni kuydirib o'tib tashqariga intiladi. O'z holi ayon bo'lgach, oshiq solik tanholikni izlab, dashtu biyobonlarni o'ziga makon qiladi.

Mansur Hallojning qatli lavhasida mamlakatni suv bosishi va uni Mansurning o'limidan so'ng qolgan kul vositasida bartaraf etilishida ham katta ma'no bor. Olloh ishqida yurgan insonni xalq vahshiylarcha qatl etgani uchun Tangri ularni jazolaydi:

*Xudoning qudratidan qo'pdi bir el,  
Oning orqasidan jo'sh ayladi sel.  
Misr shahrini tutdi sel g'arqob,  
Necha lashkar bila shoh bo'ldi betob.  
Ilojin tobmayin bechora bo'ldi,  
Tengiz dardi bilan ovora bo'ldi.  
Ki oxir jar chaqirtib har kishi huv,  
Tengizni qaytarib nest aylabon suv.  
Beroyin benihoyat mol bisyor,  
Eshitdi onda Zunnuni neku kor.  
Borib bir necha kul oldig'a soldi,  
Ki qaytib ul tengiz bir damda ketdi.* [159, 43-b.]

Bu voqeani Mansur o'z ma'naviy piri Zunnun Misriy bashorat qilgan va mamlakat aholisini qutqarib qolish uchun o'z kulini sepib yuborish kerakligini so'ragan edi. Zunnun Misriy uning so'zini bajaradi va shahar xalqini qutqaradi. Lavhada Mansurning nechog'lik karamli, kechirimli ekanligiga urg'u berilgan.

"Qissai Said Nasimiy"da g'ayb kishilari obrazi mavjud. Asar boshida Mansur Hallojning qatli vaqtida Zunnun Misriy siymosi

kiritilib, u bir necha asr keyin yashagan Nasimiyning tug'ilishiga sabab bo'lgan vositachi rolini o'ynagan. SHuningdek, qissaga yana bir g'ayb kishisi obrazi kiritilgan. Asarda aytilishicha, Nasimiy tahsil olayotgan maktab mullosi sirli tush ko'rib hayron bo'lib turganda:

*"Banogoh keldi maktabga bir abdol,*

*Munga dediki ravshan aylayin hol,"* – deya Nasimiyning valiy zot ekanligidan xabar beradi. Uning tavsiyasiga ko'ra mullo talabalarni sinab ko'radi. Nasimiy bu imtihondan muvaffaqiyatli o'tadi.

Xalq e'tiqodini rag'batlantirish uchun karomat va valiylik bilan bog'liq bo'lgan yuqoridagi zikr etilgan va to'qib chiqarilgan badiiy lavhalar xalq qissalarining tarixiy ahamiyatini kamaytirgan. Xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida ta'riflanayotgan obrazlar xalq tasavvurida ilohiy kuch-qudratga ega qahramonlarga aylangan. Kishilar ma'lum maqsad uchun yo'naltira olmayotgan o'zidagi jasoratni qahramonlarda ko'radi va o'z navbatida ularning xotirasini, g'oyalarini diliqa tugadi. Qahramonlar kitobxon ko'z o'ngida individual, betakror siymo sifatida gavdalanadi. Tadqiqotning ushbu bobi bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tarixiy va adabiy manbalarda Said Nasimiyning shaxsiyatini yorituvchi ma'lumotlar salmoqli miqdorni tashkil etgan. SHarq va g'arb adabiyotshunosligida ushbu shaxslar faoliyati va qarashlari haqida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, qator maqola va risolalar bitilgan.

2. Qissalardagi bosh qahramon – Said Nasimiylar tarixiy shaxs sifatida badiiy talqin qilindi. CHunki asarlarda qahramonlarning aks ettirilgan hayot yo'li, voqeа-hodisalarining asosiy qismi tarixiylik zaminida yaratilgan bo'lib, ular xayoliy va hayotiy to'qimalar, rivoyatlar orqali namoyon bo'lgan.

3. Qahramonlarning badiiy tasviri (tashqi qiyofasi, fe'l-atvori, badiiy ijod sohibi ekanligi) bilan tarixiy haqiqat orasida uyg'unlik borligi, ularning yashash davri va joyi, tariqati har xil bo'lsa-da, hayot haqiqatining asl mag'zini tushuntirishdagi fikrlarida, xatti-harakatlarida umumiylig mavjudligi qayd etib o'tildi.

4. "Qissai Said Nasimiy" asarining ilk marta o'rganilayotganligini hisobga olib, tadqiqotda uning mazmuni va Nasimiy siyemosini bat afsil yorituvchi lavhalar kengroq sharhlandi.

5. Qissa da boshdan-oyoq qahramonlarning g'ayb olami bilan chambarchas bog'liq avliyolar ekanligiga alohida urg'u beriladi.

Ularning avliyo zotlar ekanligini ko'rsatish, bashoratlari va karomatlari mohiyatini oddiy xalqqa tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida kiritilgan SHarq adabiyotiga xos syujet va lavhalar tarixiy haqiqat bilan qorishiq holda berilgan. Ushbu kiritma lavhalarning ramziy mohiyatini teran anglash orqali qahramonlarning ma'naviy ruhiyatini, ularning haqiqiy tarixiy qiyofasini oydinlashtirish mumkin bo'ladi.

6. Asarda manqabavilarga xos karomat bilan bog'liq qator manqabaviy lavhalar aks etgan: voqealarni oldindan ko'ra bilish, o'zgalar fikrini o'qish va fikran o'zgalarga ta'sir o'tkazish, nafas quvvati, nazar quvvati, duoning ijobat bo'lishi, hayvonlar tilini anglash va ular bilan do'stlashish, taom va ichimlikka hojat paydo bo'lganda bularning sababsiz paydo bo'lishi, suv va olovning insonga daxl qilmasligi kabilar. Ushbu lavhalardagi ramziy belgilari imkon qadar sharhlandi. Manqabaviylik xususiyati qissalarning asosiy negizini tashkil qilib, asarlarning badiiy jihatdan qimmatini oshirgan.

### **"Said Nasimiy"da boshqa janrlarga xos mushtarak jihatlarning aks etishi**

Nasimiy tasavvufning ancha gullab-yashnagan, ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilgan davrda faoliyat ko'rsatgan. Ular xalq orasidan chiqqan oddiy kishilardir ijodkor shaxslardir. Nasimiy XIV asrda Ozarbayjondagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy ahvolga befarq qarab turolmagan. Nasimiy "aqli, ma'nan kuchli va erkin odam - shijoatli shaxs" [113, 92-b.] bo'lganliklari uchun hayotdan Haqiqatni axtaradilar, ochiq-oydin dilidagini so'zlaydi. Qaerda bo'lmasin nohaqlik va riyoni qoralaydilar, ayrim shayx-zohidlarni - dinni niqob qilib olib, o'z manfaatlarini va ehtiyojini qondirish uchun harakat qilayotganlarni shafqatsizlarcha masxara qiladilar. Nasimiy tasavvufona qarashlari bilan kishilarga haqiqiy yo'lni ko'rsatadi. Xurufiya tariqatiga mansub bo'lib, g'oyaviy maqsadi - pokiza, halol yashash, toat-ibodatlar qilish va Olloh rizoligiga erishish edi. Ijtimoiy tuzumdagi nohaqlik, tengsizlikka qarshi kurashish, jamiyatning yuqori tabaqa vakillarining ijtimoiy-siyosiy qarashlariga mos kelmasliklari tufayli ular sultanat tomonidan mudom quvg'in ostiga olinganlar va fojiali tarzda halok bo'lganlar. "Qaerdaki haqiqat axtarish boshlansa, o'sha joyda yangi hayot barq uradi. Tasavvuf ayni shu tarzda odamlar ongini o'zgartirish va hayotga yangilik olib kirish maqsadi bilan

maydonga chiqqan ta'limotdir. SHuning uchun tasavvuf ahli boshdanoq qattiq qarshilikka uchragan, biri biridan og'ir va qiyonoqli sinovlarga duch kelgan. Ular Ishq va Ma'rifat bayrog'ini baland ko'targancha ta'qibda yashagan, hibsxonalarga tiqilgan, o'lim jazosiga hukm etilgan" [113, 93-b.].

"Qissai Said Nasimiy" asarining boshlanishidayoq qahramonlar kichikligidan Ollohni sevgan bandalar sifatida ta'riflanadi. "Xudoyi taborak va taolo azal kunda ruhlarini oshiq yaratibdur. Shul vajhdin aytgon baytlari oshiqonadur" [152, 7-b.]. Mashrab tug'ilgach, g'ayritabiyy sifatlari ayon bo'lib boradi. Ota-onasi uni etti yoshga etganda mudarrisga, so'ng mullo Bozor ohund tarbiyasiga bergenlarida, bolaning "devonae barhaq"ligi oshkor bo'lishligi lavhalari asarning dastlabki ekspozitsiya qismidir. Bu qism "Qissai Said Nasimiy"da birmuncha o'zgacharoq. Unda "Mansur Halloj va singlisi Anol", "Mansur Halloj va Zunnun Misriy" haqidagi rivoyatlar o'zaro ulanib, so'ngra bosh qahramonning g'ayritabiyy tug'ilishi, voyaga etishida avliyolik sifatlarining namoyon bo'lishi asar ekspozitsiyasini tashkil etgan. Qissalardagi bu ekspozitsiya qismlari o'ziga xos individuallikni kasb etgan.

"Qissai Said Nasimiy"da Mansur Hallojning qatl etilganidan so'nggi voqealar lavhasi ta'sirli etib tasvirlanib, undan qolgan bir hovuch "kul" badiiylashtirilib, mubolag'ali tarzda ifodalangan. Bu lavhada mifologik motivga xos "kul" misolida Mansurni ilohiylashtirish, ikkala dunyoda ham uning ruhi abadiy hayot bo'lishligi ko'rsatiladi. "Kul"ning suvga oqizib yuborilishi va uning girdob hosil qilib oqib borishi motivi hindlarga xos urf-odatlarni eslatadi. Qadimgi hind odatlariga ko'ra murda kuydirilgan va kuli suvga oqizilgan. Iskandar Zulqarnayn bilan bog'liq afsonalarni tadqiq qilgan K.Imomov ikki afsonadagi qahramon - Iskandarning dafn etilish jarayoni farqlanishini aytib o'tib: "Birinchi afsonada murda tuproqqa ko'milsa, keyingi afsonada esa katta tosh ustida kuydiriladi. Bundan tashqari, har ikki afsonada ham ko'mish yoki kuydirish suv bilan aloqador. Biri "dengiz suvidan ko'tarilib turgan tosh ustida", ikkinchisi esa "bir sharsharaning ostida ekan". Qizig'i shundaki, har ikki afsonada mavjud ko'mish yoki kuydirishning suv bilan bog'liq holda kelishi qadimi hind urf-odatlari bilan aloqador",-degan xulosaga keladi. Abu Rayhon Beruniy hind dinining nishoni bo'lgan tanosuxni ta'riflaydi. "...Jonning bir badandan ketib boshqasiga ko'chishi tanosux deyiladi" [122, 56-b.]. SHuningdek,

qadimiy hind kitoblarida ta'kidlanganidek, "jon... chiqib kelgan joyga qaytadi. Bu xuddi kunjut o'simligi gullab urug' boylaganidan keyin yog'dan ajralmagani singari ..." [122, 57-b.]. Abu Rayhon Beruniy ana shu tushunchaning boshqacha bir ta'rifini Suqrot kitobidan keltiradi: "Tirik o'liklardan paydo bo'ladi" [122, 59-b.] yoki hindlarning qadimiy "Braxman" dini shunday o'rgatadi: "Tabiatda mavjud barcha jonzot borki, ular o'z tanasiga aloqador bo'lмаган va o'limidan so'ng tana hujayralaridan chiqib boshqasiga ko'chib o'tadigan jonga ega" [26, 9-b.]. Demak, jon xaqidagi diniy tushunchalardan ayon bo'ladiki, xayoliy uydirmalardan tashkil topgan mazkur motiv va uning mazmuni aslida qadimgi mifologiya zaminidan kelib chiqqan. Mifologik tushunchaga ko'ra jon abadiy. U yoki bu yosh go'dakka nom qo'yish odati ham qadimda ana shu mifologik tushuncha zaminida tashkil topgan. Ma'lumki, qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari orasida tug'ilgan bolaga ajdodlar nomini qo'yish odat bo'lgan. Bu odatga ko'ra, tug'ilgan bolaga ajdodlardan birining nomi qo'yilsa, o'sha bolaga o'sha ajdod ruhi kiradi. YA'ni ruh o'sha ruh egasining nomini olgan yosh go'dakka ko'chadi" [27, 77-b.]. "Qissai Said Nasimiy"da ham Nasabning nomini qo'yishda uning jismida zuhur bo'lgan Mansur Xalloj ruhiga ishora qilingan. Nasab – asli qaysi nasl-nasabdan ekanligini ifodalaydi, ya'ni bir tarafdan Xalab shohining nevarasi – vorisi bo'lsa, ikkinchi tarafdan ruhan Mansur Xallojning aksi sifatida namoyon bo'ladi. Qissada Nasimiyni ideallashtirish va betakror siymo sifatida tasvirlash maqsad qilib olingan. Ko'rib turganimizdek, tarixiy shaxs bilan bog'liq bo'lgan qissada mifologik personajlarga xos bo'lgan xususiyat Nasimiy obraziga singdirilgan.

"Qissai Said Nasimiy"da shoh qizining g'oyibdan paydo bo'lgan homilasi tufayli ota-onasi or-nomus qilib, uni maxsus yasatilgan sandiqqa joylab dengizga oqizib yuboradilar. Ushbu lavha qator o'zbek xalq ertaklariga xos bo'lib, "sandiq" detali aksariyat hollarda qahramonning jonini saqlab qoluvchi vosita rolini o'ynagan. "Sandiq" detali eron, arab, slavyan va afrika ertaklarida ham mavjud bo'lib, uning ham mo"jizaviy, ham ijtimoiy ahamiyatga egaligi namoyon bo'ladi. YA'ni, yog'och sandiqda bo'lgan inson husnda yanada go'zallahadi hamda o'zga yurtda, o'zga muhitda bo'lsa ham o'z baxtini topadi. V.Mikushevich slavyan va afrika ertaklarini tadqiq etar ekan, yog'och qo'g'irchoq, yog'och sandiq bilan bog'liq detallarga e'tiborini qaratadi. "YOg'och qiz" (afrika ertagi), "YUlianka yoki yog'ochning

siri" (ukrain ertagi) ertaklari mazmuni o'xhash bo'lib, ularda qizlar o'z otasining tajovuzidan saqlanib qolish uchun yog'och qo'g'irchoq ichiga yashirinadilar. SHunisi ahamiyatlici, ikkala ertakda ham qizlar yog'och g'ilofdan qutulgach, quyosh yanglig' yorqin rangli libosda tovlanib chiqadilar. "Xuddi shunday motiv "Sandiqdagi qiz" ertagida ham takrorlanadi. Qiz yog'och sandiqda bo'lgan taqdirdagina quyoshday nurafshon va go'zal qiyofaga ega bo'lib chiqadi. Ma'lum bo'ladiki, slavyan va afrika ertaklarida ham yog'ochning xususiyati bir xil. YOg'och inson qiyofasini o'zgartirish xususiyatiga ega. Tengsiz go'zallikka erishish uchun yog'och orasidan o'tish kerak" [52, 9-b.]. Bu motiv keyinchalik dostonlarga o'tgan. "Qissai Said Nasimiy"da yosh Nasimiy: "*jamolidin bu sanduq nura to'ldi*" deb qisqa ta'riflanib, nurafshon yuzli ekanligiga urg'u berilgan. Bu esa V.Mikushevichning fikrini tasdiqlaydi. SHuningdek, asarda "sandiq" vositasida malikaning oriyati saqlab qolinadi, farzandi bilan sog'-omon qoladi. Bunda "sandiq" ijtimoiy rol vazifasini o'tagan.

"Qissai Said Nasimiy"da ertak, rivoyat va afsonalarga xos muammoli masala, ya'ni sinov motivi mavjud. Mudarris shogirdlaridan qay biri donishmand avliyo ekanligini aniqlash maqsadida muammoli topshiriqni beradi. CHumchuqni Xudoning nazari tushmagan erda so'yish, o'tinlarni bir ufurish bilan olovlantririb yuborish sinovli shartlarni bajarishda shogirdlaridan aynan Nasabning xatti-harakati uning diqqatini tortadi. Nasabning hech kimga ma'lum bo'lмаган yashirin sifatlari oshkor bo'ladi. Ushbu sinov motivi dono aql va o'tkir zehnli kishilarni ulug'lab, kaltabinlik va nodonlikni qoralaydi.

"Qissai Said Nasimiy"da voqealar Misr, Halab, Bag'dod shaharlarida bo'lib, bosh qahramonlar Mansur Halloj, Nasab - Nasimiydir. Personajlarning nomlarini keltirishda ertaklarga xos tarzda aniq nomi keltirilmay, balki ularning laqabi yoki biror belgisi nomi bilan atalgan. Masalan: Halab shohining qizi, uning ota-onasi, baliqchi, baliqchining o'g'li Amir kal yoki Kal, mullo-muftilar.

Qissada SHarq xalqlari og'zaki ijodiyoti an'analariga rioya qilinib, qissa ichida qissa beriladi. "Qissai Said Nasimiy"da roviy Nasimiyning obro'sini ko'tarish, uning oddiy odamlar toifasidan emasligini ko'rsatish maqsadida, shuningdek, xurufiya ta'limoti g'oyalaridan kelib chiqib qissaga Mansur Halloj voqeasini kiritadi. Asar boshida Mansur Halloj to'g'risida hikoya qilinib, u Nasimiy to'g'risidagi qissaga

ulab yuboriladi. Mansur Halloj haqidagi rivoyat Nasimiy qissasining mazmuniga singdirilgan. Davlat qushini uch marotaba qo'yib yuborib, mamlakat hukmdorini saylash kabi motiv ham qissalarga afsona, ertaklardan o'tgan. "Qissai Said Nasimiy"da Amir kal ota-onasidan etim qolgach, faqirona turmush kechirib, kunlik harajati uchun o'tin sotib kun kechirar edi. Bag'dod xoni vafot etgach, taxt egasiz qoladi. Vorisi bo'lmanligi uchun bo'lsa kerakki, bu mamlakatda davlat qushini uchirish orqali davlat hukmdorini saylash rasmi mavjud edi. Xalq maydonga to'plangach, uch marotaba davlat qushini uchiradilar. Qush har safar Amir kalning boshiga qo'nib, uni tanlaydi. Noiloj qolgan saroy a'yonlari Amir kalni saroya keltirib, yuvib-tarab, kiyintirib, mamlakat hukmdori etib tayinlaydilar. Sinfiy tengsizlikni yo'q qilish maqsadida roviy oddiy xalq orasidan chiqqan faqirni hukmdor sifatida ko'rishni istaydi Bu nafaqat uning, balki o'sha davr mazlum xalqning istagi edi. Davlat qushi vositasida xalqning azaliy orzu-istagi namoyon bo'lgan: taxtda adolatli, xalq dardini tushunadigan, el-yurt farovonligi uchun kurashadigan insonparvar hukmdorni ko'rmoqchi edilar.

Qissalardagi uchlik motivi ham folkloridan kirib kelgan. "Ma'lumki, sonlar ichida uch soni ibtidoiy odam xayolida baxtsizlik keltiradigan son sifatida o'rnashgan va shu ma'noda keng tarqalgan edi. Bu narsa ertaklarda aniq va ravshan ko'rindi. Uchlik motivi qadimiy dualizm va feteshizm tushunchalari bilan bog'langan bo'lib, syujet chizig'inинг turli qismlarida keladi. Syujetdagi uchlik bilan bog'liq bo'lgan narsa va hodisalarning uchinchisi nihoyatda og'ir, mushkul hodisa. Uchinchi olma zaharlangan yoki uchinchi yo'l "borsa kelmas", aka-ukalarning uchinchisi baxtsiz, uchinchi kecha mashaqqatli kecha va boshqalar" [27, 20-b.]. Dostonlarda an'anaviy uchlik motivi bilan bog'liq bo'lgan voqeа va hodisalar juda kam. Borlari ham asosan ertaklardan o'tgan va alohida motiv shaklida namoyon bo'lgan. "Qissai Mashrab"ning so'ngida Mashrabni qatl etishga buyurgan Maxmudxon uch kundan keyin o'zi ham olamdan o'tadi. Bu haqda Mashrab bashorat qilgan edi va oxir-oqibat haqiqatan ham shunday bo'lgan.

"Qissai Said Nasimiy"da uchlik motivi Nasimiyning uch yor-do'sti bilan Bag'dodga kirib kelishi, ularga bir pirning yo'liqishi va uch narsani: non, olma va yarimta qizil olmani ularga berishida namoyon bo'ladi. Bu sirli ishning ma'nosini Nasimiy bayon qiladi:

*Ki etti kun o'tib bo'lg'on zamoni,*

*Belidin erga ko'mub non oloni,  
 Urarlar to o'luncha tosh otibon,  
 Bu shahr o'rtasida sangsor etibon.  
 YAna olma olg'anni dora osg'ay  
 Soling'ay bo'ynig'a ib oni qisg'ay.  
 Qizil olmani so'yib manga berdi,  
 Bilingkim ul alomat nedin erdi.  
 Mani qo'ydek era bosib yiqrarlar,  
 So'yibon terima somon tiqarlar.  
 Bu so'zni eshitib, yig'lashdilar zor,  
 Bo'yusundi xudo amrina nochor.* [159, 77-b.]

Ushbu lavhada “olma” detali ham borki, u ertaklardagidan farqli ravishda insonning qatl etilishi bilan bog’lab sharhlanadi. Tushlar ta’biriga oid kitoblarda “olma” haqida quyidagi fikrlar mavjud: “*Olma* daraxti – o’lim haqida xabar; *olmalar* – kasallik; esa – ixlos qaytish, g’azab; ularni terish – xonadondagi noxushliklar; ko’rish – umuman noxushlik” [148, 49-b.]. Ertaklarda “olma” detali dunyoga yangi zurriyod kelishiga sabab bo’luvchi vosita sifatida kiritilgan. Masalan, “Tohir va Zuhra” ertagida shoh bilan vazir befarzand bo’lib, ziyoratga chiqadilar, ularga bir pir yo’liqib, holidan xabar oladi va ikkallasiga olma berib, xotinlari bilan eyishlarini tayinlaydi. Ular shunday qiladilar, ma’lum muddat o’tgach, shoh qizlik, vazir esa o’g’il farzandlik bo’ladi [129, 270-b.]. SHuningdek, ertaklarda Malikaning o’zi yoqtirgan kishisiga “*olma*” otishi lavhalarida, olma mehrmuhabbat ifodasi ramzini ham bildirgan. Umuman olganda, asarlarda “olma” detaliga turlicha yondoshilganligining guvohi bo’lamiz. Epizodda “non” detali ham borki, u ham insonga noxushlik keltirishi bilan izohlangan. Tushlar ta’birida “non” haqida: “*Non* – daladagi don holida – daromad; esa va ko’rsa – xursandchilik; yangilik; yopayotgan bo’lsa – baxtsizlik” – deb sharhlangan [148, 49-b.]. “YUsuf va Zulayho” syujetida bu detal mavjud. YUsuf zindonda ikki yigit bilan bo’ladi. Ular o’z tushlarining ta’birini YUsufdan so’raydilar. Yigitlardan biri: “*Tushumda zambilga non solib podshohga eltar erdim. Nogoh osmondin bir bo’lak qushlar kelib ul nonlarni olib ketdilar*”, -debdi. YUsuf alayhissalom aydilar: “*Seni uch kundin so’ng chiqorurlar, eltib dorga osorlar. Qushlar kelib go’shtingni uzub erlar*”, – deb turdi” [56, 86-b.]. Demak, “non” kundalik turmushimizda aziz ne’mat sifatida qadrlansa-da, asarlarda, ta’birlarda uni kimgadir berish – rizqini yo’qotish

ma’nosida tushunilgan, shu bois ko‘chma ma’noda “noxushlik, baxtsizlik, xatto o’lim” tushunchalarini bildirgan.

Qissalarga folkloriga xos “tush ko‘rish” va uning ta’biri bilan bog‘liq motiv ham kiritilgan. Xalq dostonlari va adabiy dostonlarda uchrovchi bu motiv qissalarda ham o‘ziga xos vazifani o’tagan. “Qissai Said Nasimiy”da mudarrisning tushida:

*Tushinda maktab ichinda bir daraxti  
Ko‘korib nurbar ko‘plarga yoxti.  
Erur bo‘yi oning misli chinori  
To‘la oltun kumushdin shoxalari.  
Oning yaprog‘lari la‘li zabarjad,  
SHakardin mevalari anda behad.  
Uyondi bu na tush bo‘ldi hayron,  
Bu tush shukronasi chun qildi ehson* [159, 60-b.]

Bu tushning ta’birini bir yo’lovchi darvesh aytib beradi, ya’ni mo“jizaviy daraxtni ko‘rishing maktabingda bir valiy bolaning borligidan dalolatdur, deydi. Sinovli topshiriq yordamida mudarris valiy bolani aniqlaydi. Nasab o‘zining ahvoli fosh etilganidan so‘ng bu dargohdan bosh olib chiqib ketadi. Qissada “tush” qahramonni ko‘pchilik ichidan aniqlash, fosh etish vazifasini o’tagan. “Tush” va sinovli shartlar Nasimiy hayotini tubdan burib, darveshona turmush kechirishiga turtki bo‘ladi.

“Qissai Said Nasimiy”larining so‘ngida Mashrab, Nasimiylar qatl etilganidan so‘ng hukmdorlarning pushaymoni ikkala asarda o‘zaro o‘xhash bo‘lib, ta’sirli tasvirlangan. “Qissai Mashrab”da: “*SHoh Mahmudxon aydiki: “Ey noinsoflar, man sizlarga shoh Mashrabni o‘ldurunglar deganimda ko‘zumni qisib, hazilu mutoiba qilib aytmadimmu?” Jallodlar aydilar: “Bizlar bilmaduk. Gardanlarig‘a tanob ham solmaduk. O‘zlari bur juftak urub, sakrab dorg‘a osildilar va ham o‘zlarini bir tig‘lari bor ekan, ani berdilarki, shul tig‘ birlan urg‘il deb. Bizlar o‘shal tig‘ birla bir solduk. Ikki solg‘onimiz yo‘q.” Andin so‘ng podshoh Mahmudxon pushaymon va nadomatlar qilib zor-zor yig‘ladi*” [152, 164-b.].

“Qissai Said Nasimiy”da Amir kal kimni qatl etganligini anglamay, shikordan qaytayotib darvozada osilib turgan jasadning ovozidan Nasimiy ukasini tanib qoladi:

*...Buyurdi beklari motam qulig‘a.  
Borib izzat bilan darvozadin siz,*

*Osilg'on on terini olib kelingiz.  
Borib olib kelturdi oni eshon,  
Oni ko'rgach, o'zidin ketdi bu xon.*

*YOqosin chok etib faryod qildi,  
Ko'nglida g'am uyin obod qildi. [159, 97-b.]*

Amir Nasimiy jasadi ustida zor-zor yig'ladi, ogohsiz qilgan ishidan pushaymon bo'ladi va "naylayin vo Sayido" radifli [159, 98-b.] g'azalini o'qib, mullo-muftilardan qasd olishga ahd qiladi. Ular uchun "ziyofat" uyushtirib, barchasini tiriklayin suv tegirmonidan o'tkazib, jazosini beradi. Har ikkala lavhada ham ijtimoiy-siyosiy motiv ustunlik qilib, o'sha davr ayrim ruhoniylarining riyokorligi, qabih ishlarga qodirligi, haqiqiy Olloh ishqida riyozat chekuvchilarni ko'rolmasliklari fosh etilgan. Ularning yo'rig'iga yurgan hukmdor ham jazoga loyiq. SHu sabab uch kun o'tgach, Mahmudxon yotgan uyi qulab, ostida bosilib jon beradi. "Qissai Said Nasimiy"da xalq dilidagi nafrat tug'yonni Amir xonning mullo-muftilarni jazolashi orqali ifodalangan. Asarda bunday soxta, o'z manfaatlari yo'lida hech narsadan toymaydigan din peshvolarini er yuzidan sidirib tashlash orqali dunyoning pokligini saqlab qolish mumkin, degan g'oya ilgari suriladi. "Qissai Said Nasimiy" va "Qissai Mashrab"da esa faqat bosh qahramonning sarguzashtlari bilan bog'liq bo'lib, parallel tarzda keluvchi qo'shimcha epizodlar yo'q. SHu sabab bo'lsa kerakki, "Qissai Mashrab"da voqealar "alqissa", "andin so'ng" so'zi bilan boshlanib, "... qo'llarig'a setor olib, yo'lg'a ravon bo'lub, bu g'azalni o'qudilar", "...tarafg'a ravon bo'lub, borg'uncha yo'lda bu g'azalni o'qudilar", "...SHoh Mashrab boliklari birla bu baytni o'qudilar" kabi jumlalar vositasida voqeadan voqeaga o'tilgan. "Qissai Said Nasimiy"ning nusxalari ikki xil shaklda: nazmda va nasru nazmda kitobat qilingan bo'lsa ham, ularda ham quyidagilarni uchratish mumkin: "ki andin so'ng qilay bir qissa og'oz", "rivoyat ba'zidin ul shayxi Zunnun", "andin so'ng onasi ham zor-zor yig'lab", "ki andin so'ng oni mullo o'qutmay", "ki andin so'ng Nasimiy bo'ldi ism, demadi so'ngra so'ze besh yo kam" nasriy va nazmiy jumlalar bilan voqealar bog'langan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu faslda tadqiqot doirasidagi qissalarda boshqa janrlar bilan aloqador bo'lgan jihatlar bo'rtib turadi. Bu bilan biografik mavzudagi qissalarning taraqqiyotida o'zga janrlarning ta'siri qay darajada bo'lganligini ko'rish mumkin. Qissalarning g'oyaviy - mazmuniy va kompozitsion tuzilishiga ishlov

berish jarayonida xalq kitoblari turkumini tashkil etuvchi xalq qissalariga og'zaki va yozma adabiy janrlarning unsurlari, belgilari kiritilgan.

### **" Said Nasimiy" qissasining uslubi va badiiy mahorat**

Badiiy asarning jozibadorligi, sermazmunligi, ravon va puxtaligi birinchi galda yozuvchining nutqi orqali bilinadi. "Ma'lumki, nasriy asarlarda muallif nutqi ulkan badiiy vazifani bajaradi. Birinchi navbatda muallif nutqi bevosita tanishtiruv va axborot beruvchi xarakterda bo'lib, asar asosidagi g'oyani ochishga qaratiladi. ...Yozuvchi o'zining bevosita nutqi bilan asardagi barcha voqealar tasvirida qatnashadi. ...Kitobxon qahramon qiyofasi, xarakteri va ruhiy dunyosi bilan ana shu nutq orqali tanishadi" [107, 86-b.]. Muallif nutq vositasida axborot berish va tanishtirishda tasvirni obrazli jumlalar bilan boyitadi va ta'sirchanligini oshiradi. Bu bilan o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi hamda o'z individual uslubini namoyish qiladi.

Tadqiqot doirasidagi qissalar garchi xalq qissalari hisoblansa-da, bu manbalarni ijod qilgan qissanavislarning ham asarda o'z nutqi va uslubi bor. Qissanavislар qahramonlarni yaratar ekanlar, ularga munosabatini dastavval nutqi orqali bildirganlar. Qissalar roviy tilidan hikoya qilish usuli bilan yaratilgan. Qissalarda xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotiga xos xususiyatlar o'zaro uyg'unlashib, biri ikkinchisini to'ldirib, o'ziga xos ifoda uslubini vujudga keltirgan. "Qissai Said Nasimiy" ifoda uslubining oddiyligi, xalq tiliga xos sodda tarzda bayon qilinishi bilan ajralib turadi. Qissada o'g'iz lahjasи ta'siri yaqqol sezilib turadi: "...*o'ton giton* u erdin qildi sangsor", "...bu na so'zdir, - dedi, - *jonim do'g'onim*...", "...urarg'a keldi oni bir *yig'ochlan*...", "*izindin* izlab erlar bir nechani", "valilarning valisi *ullisi* bor" va sh.k. Qissada muallif nutqi bilan birga personajlar nutqi ham qorishiq holda kelganki, bu bayon qilish uslubining ishonarli bo'lishini ta'minlagan. Nasrda personajlarning savol-javobi ko'chirma gaplar tarzida berilib, "aydi", "dedi" kabi muallif so'zlari bilan ifodalangan. SHe'riy namunalar asosan bosh qahramonlarning ruhiyati, quvonchi, qayg'uli holatini, axloqiy va falsafiy qarashlarini ifodalash uchun qo'llangan.

Nasimiy ijodkor ahlidan bo'lganligiga qissada ishora qilingan hamda ularning tilidan g'azallar, muxammaslar, mustahzodlar keltirilgan. Boshqa personajlar dialogi va so'zlari oddiy nasriy yo'l bilan ifodalangan. Demak, qissalarda she'riy namunalarning qorishiq

holda kelishi syujetning ichki bog'lanishini yuzaga chiqarish hamda obrazni jonlantirish uchun xizmat qilgan.

Nasimiyning haqiqatgo'y, hozirjavob va cho'rtkesar ekanligi haqida fikr bayon qilgan edik. Said Nasimiy siymosi tarixiy faktlar va hayot haqiqatiga mos keladigan badiiy to'qimalar asosida yaratilgan. Bu obraz o'z prototipidan ancha keng qilib tasvirlangan. "Qissai Said Nasimiy" asarlarida qissanavislар asosan qahramonlarning xarakterini ochib berishga katta e'tibor bergan. Nasimiyning o'z davrida maslak-e'tiqodi yo'lida sobitligi va jasoratliligin yaqqol aks ettirilgan.

"Qissai Said Nasimiy"ning mavjud uch nussasida she'riy matnning hajmi turlicha, ya'ni T.II.S 487 da 11ta g'azal 178 misrani; T.II.C 85 da jami 595 she'riy misradan, 1ta mustahzod 14 misra, 16 ta g'azal 236 misra, 28 misra murabba', 155 misra muxammas, 2 ta tarje'band 162 misrani tashkil etgan. T.II.C 28 ni transliteratsiya qilish jarayonida Q. Tohirov matndagi ayrim she'rlarni qisqartirib ketganlar va buni qayd qilganlar ham. SHuni hisobga olgan holda, transliteratsiya qilingan qissada jami 540 misra she'riy matn berilgan, shundan 16 ta g'azal 236 misra, 2 ta tarje'band 132 misra, 1 ta mustahzod 14 misra, 28 misra murabba', 130 misra muxammasdir. T.II.S 85 bilan T.II.S 28 qiyoslanganda ikkalasining matni hamda she'riy mundarijasi bir xil ekanligi ko'zga tashlanadi.

"Qissai Said Nasimiy" masnaviy shaklda, aruzning hazaji musaddasi mahzuf bahrida bitilgan:

*Ki andin so'ng/qilay bir qis/sa og'oz,*

*Xudodin bo'l/sa tavfiyu/sarafroz.*

### ***mafoiylun mafoiylun fauvlun***

Unda asosiy matndan ko'ra emotsiyal, g'oyaviy ta'sirni oshirishga xizmat qiladigan she'riy parchalarning hajmi ortiqroqdir. Ularning ba'zilari bayon qilinayotgan voqeа bilan ma'no-mazmun jihatidan uyg'unlikni tashkil etgan bo'lsa, ayrimlari asar mazmuniga umuman bog'lanmagan. Masalan, Mansur singlisi Anol ortidan borib, chiltanlarni ko'rganda bir mustahzod o'qiydi:

*Hajringda men besaru somon bo'layozdim, dil xastayu abgor,*

*Parvona bo'lib ishq o'tina ham kuyayozdim, yo mehnati bisyor...[159, 21-b.]*- deb boshlanuvchi mustahzod asar matni bilan uyg'unlikni hosil qilgan. Unda yor vaslining hajrida kuygan Majnunning ohu nolalari aks etgan bo'lib, majoziy ma'noda Haqqa bo'lgan muhabbatning hijron kechinmalari ifodasidir. Bunda Mansur

holatining tasviri keng berilgan. SHe'r uning his-tuyg'ulari, qarashlariga o'zgacha bir emotsiyal xususiyat qo'shgan. Inv. № T.II.S 28. qo'lyozma nusxada Mansur tilidan keltirilgan etti bandli murabba' esa asar syujeti bilan mantiqan bog'langan emas. Podshoh Mansurni qatl etishga buyurib turganida, Mansurning uning sha'niga "tasadduq" deb she'r o'qishi o'rinsizdir. Garchi shunday bo'lsa-da, she'rda o'zgacha joziba bor:

*Qaysi badan/ ravanisan/ jonisan,  
Raftoringga/ ruhi ravan /tasadduq.  
**mafoiylun mafoiylun foilun**  
v --- v --- - v -  
Qaysi mehr anbarisan xokisan,  
Ruxsoringga mohi Kan'on tasadduq.* [157, 27-b.]

SHe'r shohga murojaat ruhida yozilgan bo'lib, unga nisbatan bo'lgan lutfu karam, hurmat, olqish izhor etilgan. Hakning diydorini tilagan oshiq uchun shohga maqtov bag'ishlash mumkin bo'limgan holatdir. Ollohnинг haqiqiy shaydolari tezroq foniy dunyoga ravona bo'lish uchun hukmdorlarga nojoiz so'zlarni gapirganlar, aqllarini shoshirib, "gunohkor"liklari tufayli o'zlarini shahid qildirishlariga undaganlar. SHunday ekan, Mansur obrazi uchun bu monolog notabiiydir. YOki Mansurni dorga osganlarida keltirilgan "bu kun" radifli muxammasiga e'tiborni qaratsak. Marsiya mazmunidagi bu muxammas aslida payg'ambarning suyukli kuyovi Ali Murtazoga bag'ishlangan she'rdir. Uning oxirgi misralarida Saidiy tahallusi qayd qilingan bo'lib, she'r Sayqaliy qalamiga mansub bo'lishi mumkin (inv №TIIS 28dagi dots. Q.Tohirovning qaydlari asosida). Muxammasda qahramonning ichki hissiyotlari, do'stu yordan ayrilish iztiroblari aks etgan. Ushbu muxammasning asar bilan umuman aloqasi yo'q. Unda:

*...Andalib gul/din judo, ey/ dod quridi/ durri nob,  
Necha axzar/ bargi kul bo'l/di etib ax/gar bu kun... [157, 33-  
b.]*

- v - - - v - - - v - - - v -  
**foilotun foilotun foilotun foilun**

keltirilgan band misralaridagi Andalib so'zi tufayli bu she'r asar tarkibiga kirib qolgan bo'lishi mumkin. Asarda yana bir o'nlik tarje'band mavjudki, u ham Imom Husaynning o'limini aks ettirgan marsiya mazmunidagi voqeaband she'rdir. Unga ko'ra, bir shoh sayrga

chiqqanida dushmanlari tomonidan o'ldiriladi va uning oti yolg'iz saroya qaytadi. Tulpor shohning o'limi haqida xabar bergandan so'ng o'zi ham jon beradi. Tarje'band she'r ma'lum bir shohning vafotiga bag'ishlangan mustaqil asardir. Bu voqeaband she'rning qissaga hech qanday aloqasi yo'q. Tuzuvchi muallif she'rni qaysi jihat bilan asarga bog'laganligi bizga noma'lum. Darvoqe, bu she'r Turkman adabiyoti tarixi kitobida Andalibga, boshqa bir manbada (Q.Tohirovning transliteratsiyasida qayd etilishicha, № 5176 raqamli bizga noma'lum qo'lyozmada bu she'r) Sayqaliyga nisbat berilishi qayd etib o'tilgan.

Qissaning inv № 487 qulyozma nusxasida 11ta g'azaldan 10 tasi Nasimiy tilidan, 1 ta g'azal Amir shoh obrazi tomonidan keltirilgan. Inv. № TIIS 28 nusxasida esa kiritilgan 16 ta g'azaldan "G'azali Nasab" bilan birgalikda o'nta g'azal Nasimiy tilidan berilib, bittasi Nasab, ikkitasi Saidi, qolgani Nasimiy taxalluslari bilan keltirilgan. G'azallarning 5 tasi: "G'azali Bibixonim", "Munojoti duxtar" va Amir og'asi tomonidan aytilib, ularning dastlabki ikkitasida maqta' qismida taxallus qayd etilmagan, Amirga tegishli g'azallarda esa Amir hamda Saidi taxallusi berilgan. Inv. №TIIS 28 transliteratsiya nusxasida Q.Tohirov "Nasab", "Saidi" taxallusli she'rlarni Sayqaliy qalamiga mansubligiga ishora qilganlar. SHunga ko'ra bu kiritma g'azallar Nasimiy obraziga muvofiqlashtirilgan bo'lishi mumkin. G'azallar mazmuni qahramonlarning syujet davomidagi ruhiy xolatiga muvofiq holda joylashtirilgan.

Asarda Nasimiyning g'orda yashab, faqirona kun kechirib yurgan kezlarida she'rlar bitganligi aytib o'tilib, ijodidan namuna sifatida "sig'masam", "bor edim" radifli g'azallari keltirilgan. Nasimiyning bizgacha etib kelgan ijodiy merosida ushbu g'azallar qayd qilingan [141, 96-97-b.], "Sig'masam" radifli g'azalning qissa varianti bilan she'riy to'plamdag'i variantini yonma-yon qiyoslaganda, matniy tafovutlari borligi ayon bo'ladi.

Bu kabi radifli she'r Mashrab ijodida ham mavjud. Nasimiyning "sig'mazam" radifli g'azaliga Mashrab "sig'mamdur" va "sig'madim" radifli ikki g'azalini nazira tarzida yaratgan. "Bor edim" radifli g'azalida tasavvufiy falsafaga asoslangan fikrlar nazm etilib, ya'ni Ruhning azaldan mavjudligi va boqiyligi, o'zining oshig'i oliy mavjudot - insonning yaratilishi, Haqqa darkorligi va Uni barhaq deyishi, Mansur Hallojning yo'lini tutishi oqibatida qozilarining unga jazo berishi bayon qilingan.

Asarning inv. №TIIS 28 qo'lyozma nusxasi so'ngiga kiritilgan "Yig'langizlar" g'azali va "Navbat siza etdi" muxammasi tasodif yoki biron bir maqsad natijasidir. Turkman olimlari bu haqida quyidagicha fikr bildiradilar: "Bu g'azal to'liqligicha "Nasimiy" poemasi oxirida keltiriladi. CHunki bu g'azal shuning kabi fojialarga bag'ishlab yozilgan elegiya bo'lgani uchun ko'chiruvchi uni "Nasimiy" poemasining oxiriga qo'shgandir. YAna ko'chiruvchi kotib bu g'azalni Sayqaliyning oti bilan bog'langan so'nggi ikki satrida uning nomi o'rniiga Nasimiyni o'ldirgan Amir otli xonning otini keltiradi:

*Kutilmas bu Amir dunyoda g'amdin,  
Nasab baxtiqaroga yig'langizlar.*" [123, 5-b.]

Andalibning "Navbat siza etdi" radifli muxammasi asarga xotima so'z sifatida kiritilib, asarni mazmunan xulosalagan:

*Ibrat oling ey xalq jahondin hama ketdi,  
Kim olama keldi hama armon bila ketdi,  
CHin bandalari oxirat asbobin etdi,  
Ogoh bo'ling charx burung'ilari ketdi,  
Voqif bo'ling ahbobki navbat siza etdi.* [156, 157, 112-116-b.]

Umuman olganda, qissalarda kiritma g'azallarning ahamiyati shundaki, ular qahramonlarning o'z-o'zini so'zlatish orqali xarakterini ochishdek vazifani o'tagan bo'lib, asar obrazlarining nutqlari sifatida ifodalangan. Bugungi kunda obrazlarning nutqi orqali ularning xarakterini yaratish mahorati alohida e'tirof etilayotgan bir paytda, bu mumtoz adabiyotdan hozirgi zamon adabiyotiga kirib kelgan o'ziga xos an'ana, usul ekanligi namoyon bo'ladi.

## Xulosa

Xalq kitoblari qatoriga kiruvchi xalq qissalarini alohida o'ziga xos adabiy jarayonni o'tagan. Tadqiqotda xalq qissalarining bir tarmog'i - badiiy-biografik qissalarining shakllanishi, rivojlanishi, kompozitsion, poetik rang-barang qirralarini yoritishga e'tibor berildi.

Tarixda hayotlari davomida o'z faoliyatlarini, ijodi bilan xalq xotirasida o'chmas iz qoldirgan kishilarning nomlari asrlar davomida yod etilib, xalq og'zaki ijodida ular haqida hikoyalar, rivoyat va afsonalar yaratildi. Keyinchalik badiiy so'z ijodkorlari bunday xalq siymolarini o'z asarlariga, qissa va dostonlariga bosh qahramon qilib kiritganlar. Ularning tug'ilgan davridan to umrining so'ngigacha bo'lgan ibratli hayotini ta'rifu tavsif etganlar. Ibrohim Adham, Said Nasimi, Boborahim Mashrab kabi tarixiy shaxslar to'g'risida "Qissai Ibrohim Adham", "Qissai Said Nasimi", "Qissai Mashrab" badiiy-biografik qissalarini ijod qilindi. Bu tarixiy shaxslar faoliyati bilan bog'liq qissalarining bir necha variantlari bugungi kunimizgacha saqlanib qolgan. Ular sodda, hamma tushunadigan tilda, ishonarli tarzda yaratilgan bo'lsa, ayrimlari esa juda badiiy, mubolag'alarga boy bo'lib, hayotiy, tarixiy haqiqatni aniqlab olishda tadqiqotchiga ma'lum bir qiyinchiliklarni tug'dirishi tabiiy, albatta. Tadqiqotning har bir bobida ushbu vazifalar imkoniyat darajasida alohida-alohida tadqiq etildi. Ishning eng muhim xulosalari quyidagilar:

1. O'zbek adabiyotshunosligida xalq kitoblari uslubida yozilgan asarlarni aniqlash, o'rganish, nashr etish ishlari o'tgan asrning 60-70-yillarida keng tus olgan. V. Abdullaev, N.Mallaev, V.Zohidov, T.Mirzaev, R.Jumaniyozov, H.Oqbo'taev, B.Sarimsoqov kabi adabiyotshunoslari bu yo'nalishda tadqiqot olib borganlar. "Xalq qissasi" va "doston" atamalari yaqin-yaqingacha lingvistik jihatdan parallel qo'llanilib kelingan. Ikkala janrda ham bir xil syujet asosida ijod qilish hollari mavjud edi. Adabiyotshunos olarimizdan N.Mallaev, F.Ravshanov kabilar adabiy dostonlar asosida ishlangan xalq qissalarini o'sha dostonlar bilan o'zaro muqoyasa etib, xalq qissalarining xususiy belgilarini aniqlashtirishga harakat qilganlar.

2. Said Nasimi haqida xalq orasida saqlanib qolgan adabiy manba "Qissai Said Nasimi" asarining yaratilishiga zamin bo'lgan.

3. "Qissai Said Nasimi" ikkita syujetdan iborat: biri ikkinchisidan unib chiqqan. YA'ni avval Mansur Halloj bilan bog'liq

bo'lgan voqeа ikkinchi voqeaga turtki bergan.

4. Said Nasimiyning badiiy tasviri (tashqi qiyofasi, fe'l-atvori, badiiy ijod sohibi ekanligi) bilan tarixiy haqiqat orasida uyg'unlik bor.

5. Asarda manqiblarga xos karomat bilan bog'liq qator manqabaviy lavhalar aks etgan. Ushbu lavhalardagi ramziy belgilarni teran anglash va sharh etish orqali bosh qahramonlarning ma'naviy ruhiyati, botiniy qiyofasi oydinlashtirilib berildi. Manqabaviylik xususiyat qissalarning asosiy negizini tashkil qilib, asarlarning badiiy jihatdan qimmatini oshirgan.

6. Tadqiqot doirasiga olingan badiiy-biografik qissalarda o'zbek folklorini tashkil etuvchi ertak, rivoyat, afsona, latifalarga xos belgilarni hamda yozma adabiyotning nasriy va nazmiy jihatlarini uchratish mumkin. Bu holat adabiy jarayonda janrlarning o'zaro bir-biriga ta'siroti natijasida rivojlanganligini ko'rsatadi. Qissalarga xalq og'zaki ijodiga xos "sandiq", "uchlik", "olma", "go'zalning sehrli surati", "g'ayritabiyy tug'ilish", "tush ko'rish", "davlat qushini uchirish", "sinov shartlar" kabi detal va motivlar kiritilgan. YOzma adabiyotga xos Olloh nomi bilan, oyatlarni aytish bilan boshlash, qur'oniy syujetlarni kiritish, qissa ichida qissani keltirish, qahramonlarning savol-javobini she'riy tarzda berish kabi belgilar

## Asiriy. "Said Nasimiy" qissa (matn)

**Bismillahir rohmanir rohiym**

Siposi beqiyos ul zuljalola,  
Sitoyish benihoyat loyazola.

Vujudi vojib ul xalloqi olam,  
Mirabbiy moliki arzu samo ham.

Yaratdi "kof"-u "nun" din jumla ashyo,  
Baqudrat "kun" degach, bo`ldi huvaydo.

Hama olamg`a rizq-u ro`zi berdi,  
Sherigi yo`qki o`zi yolg`uz erdi.

Aning amrida ma`dan bo`ldi ma`dan,  
Bo`lur zohir yana torik-u ravshan.

Yaratdi botafovut jumla xalqi,  
Kimi bad xulq kimi pokiza xulqi.

Kimini anbiyo-yu avliyolar,  
Kimini zuhd-u obid, atqiyolar.

Kimi osiy, kimi kofir chu shayton,  
Kimi mo`min mute qildi bafarmon.

Egam avsufida yo`qtur nihoyat,  
Biza tavfiq andin ham hidoyat.

Durudi benihoyat Mustafog`a,  
Muhammad afzali koni safog`a.

Yana avlod-u as`hobi tamoma,  
Yana to`rt yori o`n ikki imoma.

Alarg`a rahmati haq ro`za bis bor,  
Aliyum al-qiyoma barcha bisyor.

Ki andin so`ng qilay bir qissa og`oz,  
Xudodin bo`lsa tafviq-u sarafroz.

Ki qolsun bizdin ul kim yodgore,  
O`qug`on yod qilg`ay do`sst-u yore.  
Maqomoti Nasimiy shayxi Mansur,  
Qilay nazm turki tilga san o`qiy ko`r.

Bor erdikim Misr shahrinda bir nur,  
Azaldin avliyo ul oti Mansur.

Kichiklikda xudoyim xub yaratqon,  
Ibodat toata marg`ub yaratqon.

Kecha-kunduz toatda qilib zor,  
Xudoning ishqida tinmay u yig`lor.

Jahon ashg`olidin aslo g`ami yo`q,  
Xudoning xavfidin zarra kami yo`q.

Oning bir singlisi bor erdi chun hur,  
Ibodat ishi erdi ro`zi mastur .

Anol erdi oning oti bilinglar,  
Ular uchun duo takbir o`qinglar.

Anol bir qiz edi chun mahliqoye,  
Jamoli olamoro peshvoye.

Xudoning yodidan bir lahza xoli,  
Emas albatta ul sohib kamoli.

Bo`lur chiltanlara soqiy kechalar,  
Sharobi haq tahurindan icharlar.

Qo`shulub shul Anol chiltanlar ila,  
Tong otquncha xudo yodini qila.

**Karoil** yotqonda Mansurni yoturib,  
Ketar erdi ul anda yakka turub.

Belin sochbog`i birla bog`labon ul,  
Solib yaktay bosha yakka kezar ul.

Ulusdin ongladilar oni ishin,  
Oning ishi edi bul yozu qishin.

Gumoni bad bilan bir necha badxu,  
Dedilar nosazo so`zlarni onsu.  
Qilib tuhmat necha turluk qabohat,  
Ihonatlar qilib qildi malomat.

Xudo ishqida Mansur zor yig`lab,  
Oning o`ti bilan bag`rini dog`lab.

Oshuq o`ynar edilar necha go`dak,  
Oshuq o`ynar edilar necha birdak.

Oshiq otin eshitib ishqil ma`sruq,  
Bo`lib g`olib oshiqlarni olib cho`q.

Qaradi bir so`ngakdur hech sir yo`q,  
Bu go`daklardin unga bir xabar yo`q.

Otar erdi oni olib ilikka,  
Xudodin jazbaye tegib o`ziga.

Bor erdi anda bir kanfiru badxu,  
Chalar erdi ki charxin tinmayin u.

Banogah bir oshuq charxa chiqdi,  
O`shul kanfir ko`zi Mansurg`a erdi.

Dedikim yaxshi javonmard yigitsan,  
Anol singling ishini xub eshit san.

Qovushub bir necha barzangi birla,  
Yurumish ul o`zining tengi birla.

Kechalar fahshi fohisha qilurlar,  
Oning ahvolini olam bilurlar.

Agar erman deyursan yig`g`il oni,  
Maning charximda bor oning yamoni.

O`zi ham avvali andak sezardi,  
Xaloyiq og`zida ul so`z kezardi.

Bu so`zni chun eshitdi, bag`ri kuydi,  
Hayoti bu jahondin ko`ngli to`ydi.

Oni ongdug`oli etdi iroda,  
Tafakkurda bo`lib ul yaxshi zoda.

Kecha bo`lg`ach kesib bir barmog`ini,  
Namak sefdi ko`rar deb o`tg`a oni.

Oning og`rig`i birla uyqu kelmas,  
Bu Mansur sirrini hech kimsa bilmas.

Dedi Mansur Anol uyqulab yotibdur,  
Anol uxladi deb xayol etibdur.

Bo`lib kech kundagi kechadin o`tdi,  
Xayol etdi Anol Mansur yotdi.

Yerindan asta-asta turdi singli,  
Tilab ul damda chiltanlarni ko`ngli.

Belin sochbog`i birla bog`ladi ul,  
Boshina soldi yaktay tushti chun yo`l.

Keta boshladi yolg`uz roh birla,

Ko`nglida chiltani iloh birla.

Turub yerindin asta yurdi Mansur,  
Yetay deb ortidin chun ayladi zo`r.

Qarosidan qarab yetmay izindin,  
Xayoli xom etib elni so`zindin.

Yetushti bir tog`aki anda nogah,  
Muhabbat birla chiltanlarki ogah.

Yorildi ul tog`a ichkari kirdi,  
Bari chiltanlara ta`zim qildi.

Olarning ortidan Mansur yetushti,  
Bu chiltanlarg`a oning ko`zi tushtu.

Adab saqlab bilib turdi u yerda,  
Adab shartin tutub har qaysi erda.

Tedilar anda chiltanlar Anolga,  
Nega kech qoldingiz kim bu mahalga.

Anol aydi og`om uxlatqina kech,  
Qolib erdim vagarna vajh yo`q hech.

Anolga dedi chiltanlar o`sul dam,  
Og`omni uxlatibman deb yema g`am.

Og`ong sening bila birga kelibdur,  
Eshikdadur senga qarab turubdur.

Dedi Mansur ul damda valiydin,  
Valiykim bo`lmag`ay misli valiydin.

## G`azal

Hajringda men besaru somon bo`layozdim,  
Dil xastayu abgor,  
Parvona bo`lib ishq o`tina ham kuyayozdim,  
Yo mehnati bisyor.

Yurdim men o`shal bodi sabodek chaman ichra,  
Vaslingni topay deb,  
Hargiz nazari marhamate bo`lmadi sandin,  
Chun zolimi jabbor.

Bag`rim tutashib yonadur o`tdek na qiloyin,  
Dardimni davosin,  
Dardi mani bechoraga darmon keturgil,  
Ey sho`xi sitamkor.

Majnun bo`lib ul dashti biyobonda yurubman,  
Hargiz ajab ermas,  
Qon bo`ldi yuragim sani hajringda, ayo do`s<sup>t</sup>,  
Yo va`dayi diydor.

Ko`rdimki hama olam aro, topmadim oxir,  
Sendek guli ra`no,  
Bir g`amza bila qildi mani volai shaydo,  
Jonim sanga qurban.

Xurshid sifat sham`i jamoling tutashabdur ,  
G`amdiyda ko`ngulga,  
Har shomu sahar yig`lab ishim ohu fig`ondur,  
Ko`yingda mani zor.

Mushtoqi jamoling mani sargashta-u hayron,  
Ey yori vafodor,  
Qilsang nazare Nasimiyg`a lutfi inoyat  
Ey lola uzorim.

Anol chiqdi eshikka ko`rdi oni,

Olib ichkari kirdi ul zamoni.

Salom ila olarg`a qildi ta`zim,  
Javob oldi alarkim keldi takrim.

Qo`pubon oldi avlim ichra finnur,  
Sharobi haq tahuri qildilar dur .

Shu soatda Anol kezdurdi kosa,  
Gahi so`l yona berdi gohi rosa.

Alar dedi Anolga, ey hasiba,  
Og`ongga kosa bergil bir nasiba.

Anol aydi agar bersam o`shul kas,  
Tugal bir kosani ko`tora bilmas.

O`zi ichdi so`nginda qoldi bir oz,  
Ki bir qultimcha xush berdi anga boz.

Keturib berdi og`osin qo`lig`a,  
Olib ichdi qaramay o`ng so`lig`a.

Chu bo`ldi masti lo ya`qul o`shul dam,  
Yiqildi yotdi lahza ul mukarram.

Zamondin so`ng bo`lub devona majnun,  
Anol haq dedi yo`lg`a tushdi ul kun.

Ko`zi oqi qarorib rangi so`lib,  
Tiliga kelgonin der ul yugurib.

Ayirmas kufr ila iymon so`zini,  
Gahi kufr elidin aylar o`zini.

Anol haq der manol haq der mudoma,  
O`qub alfoza ko`r ul subhu shoma.

Der alfoza ul og`zini ochib,  
Ko`firtib og`zini ko`fikni sochib.

Qayu yerdaki mullolar chu ko`rdi,  
Bu so`zni aymog`il deb oni urdi.

Olar urg`on sayin bu qildi takror,  
Analhaq deb yurudi ko`cha bozor.

Eshitmas tinglamas mullo so`zini,  
Gohi kufr ahlidin aylar o`zini.

Bu so`zni aymog`il deb qozi mufti,  
Mudarris muhtasib ta`zirin aytdi.

Necha yo`l qildilar ta`zir bisyor  
Alarning aytg`oni hech qilmadi kor.

Taqi qozi va mufti xon qoshig`a,  
Borib ta`in qildi xon hazratig`a.  
Bo`lubdur munda bir devona paydo  
Qilur alfozi kufrin huvaydo  
Oni o`lturmaguncha oni qo`ymas (24-bet)  
Necha ta`zir qildiq or qilmas  
Rivoyatlar yozibon benihoyat  
Hadisi mo`tabar ham necha oyat  
Salaflardin rivoyat qildi vofir  
Bu so`zlarni desa kim bo`ldi kofir  
Qilib tavba so`zindin tonmasa ul  
Tutarlar ham solurlar bo`ynig`a g`ul  
Agar oning bilan ul yonmasa bil  
Uqubatlar bila oni qilib qatl  
Xudoning qavli payg`ambar so`zi bu  
Yana ajmo`i ummatlar so`zi bu  
Muni shar`i sharif ila tutinglar  
Shahar o`rtasida bardor etinglar (25-bet)  
Eshitib oni sulton hukm qildi  
Oni jallodlar tutg`oli bo`ldi

Tutub bo`ynig`a g`ul oyog`ig`a zanjir  
Solib shoh oldig`a keldilar oxir  
Ko`ring shoh oldida aytur analhaq  
Taqi shah oldig`a keldilar ul xalq  
Bu so`zni dedi kofir bo`ldi mutlaq  
Yana qilibon ihtisob ul sulton  
Bayakbor bo`l mag`ay bu so`z qabob ul  
Dedi qozi va mufti sharh zohir  
Bu so`z birla bo`lur albatta kofir  
Buyurdi shoh tuting bozora elting  
Ki ondin o`tkaribon dora elting  
Ki ondin so`ng o`zin dora osingiz (26-bet)  
Ki avvalda oning terin so`yingiz  
Tutib dora olib bordilar oni  
Egildi dor oni ko`rgan zamoni  
Dedi ul hol tili birla analhaq  
Ayo nodonlar haq sun`ina boq  
Tutub jallodlar kim dora osdi  
Itik xanjar qo`yub bo`ynig`a bosdi (28-bet)  
Xudoning amri birla dor osmay  
Ituk xanjar oning tilini kesmay  
Ki yeti kecha kunduz turdi dora  
Tilidadir analhaq ko`ngli pora  
Yeti kun turg`on ila o`lmadi hech  
Tanobi dorni ko`bkim qildilar pech  
Yana shahga dedi qoziyu mufti  
U shohning oldida onlar yer o`pdi  
Tedilar podshoh o`lmadi ul  
Ul ekan sehru jodu topdi bir yo`l  
Shariat birla zohir o`ldi kofir  
Uqubat birla shohim oni o`ltur (29-bet)  
Buyurdi shoh ketur darvozag`a deb  
Solib sudrang oni chun bo`ynig`a ib  
Oni darvozada bardor etinglar  
Osilg`on yerida sangsor etinglar  
Uring sangsor ani ey ayyu hannos  
Ki bo`lsa ushbu yerda om ham xos  
Urung sangsor anglo har kim ketarsiz

Ki har yona bu yerdin kim o`tarsiz  
Ki har kim hukmi shohdur ondin o`tdi  
Onga toshu kesakni otdi ketdi  
Onga kor etmadi ta`sir kesaklar  
Ki bo`ldi misli ko`hdek yo`lni beklar  
Oning parvoysi yo`q otg`on kesakdin (30-bet)  
Ziyon yetmas anga o`tmas so`ngakdin  
Banogoh shayx Zunnun ondin o`tdi  
Ki shoh amri deb ul bir tosh otdi  
Rivoyat ba`zidin ul shayxi Zunnun  
Qo`lida bir gul bor erdi ul kun  
Oning birla oni urdi bu sarvar  
O`shul holatda Mansur zor yig`lar  
Dedi ul shayx anga ne bo`ldi Mansur  
Ulus otar kesak toshlar qilib zo`r  
Olarg`a iltifot etmay turursan  
Ki man bir gulni otg`och oh urursan  
Dedi ul shayxg`a ul dam zor Mansur  
Maning holim siza kim erdi mastur  
Olarning otg`onidan hech ziyon yo`q  
Maning holim bilar san hech gumon yo`q (31-bet)  
Sizing otg`oningiz bizga pichoqdin  
Qatig`roq tegdi urg`oni tayoqdin  
Dedi Mansur yig`lab zor Mansur  
Muborak senga bo`lsun dor mashhur  
Sening bo`lsun nigohgoring xudovand  
Bu ishdin bo`lma g`amgin balki xursand  
Dedi Zunnun anga ul damda piri  
Ki mushkul tushsa sanga dastgiri  
Tedi onga xudoyim yoring o`lsun  
Muboraklar sanga doring o`lsun  
Bo`lib alqisa yeti kunda bardor  
O`tan kechon u yerda qildi sangsor  
Anolhaq derman alhaqdur hamisha  
Oning parvoysi yo`q qilg`on bu isha (32-bet)  
Tilindin qo`ymas aytar so`zini  
Chunin vosil qilur haqg`a yuzini (33-bet)  
Yana bo`lmadi deb qoziyu mufti

Boribon shoh oldida yer o`fti  
Bu qinliq birla o`lmadi bu sohir  
Shariat birla ul mashhur kofir  
Shahim o`lturmasang tongla tutilding  
Agar o`ltursang oni san qutilding  
Dedi bo`ynig`a oni if toqinglar (35-bet)  
Agar ul o`lmasa o`tg`a yoqinglar  
Yig`ishturub necha ulug` o`tunni  
Havo uzra chiqordilar tutunni  
O`rabon qoqarog`a otdilar o`tg`a  
Dedi ibrat o`lsun oshnoyu yotg`a  
Kishi kofir bo`lur oning jazosi  
Osib dora o`ta yoqmoq sazosi  
Bu ishlarni bilib avvalda Mansur  
Dedi Zunnuni misri ma`dani nur  
Meni o`tg`a yoqib kul bo`lg`animda  
Kulumdin bir ovuch ol ul zamonda  
Tutar to`fon kabi bu shahrni suv  
Oni bog`larg`a ojiz bo`lsa har ku  
Necha lashkar bilan xon jon chekarlar (36-bet)  
Oni qaytara bilmay qon yutarlar  
Ki oxir charlatur har kim bu suvni  
Agar qaytarsa bog`lasa bu yo`lni  
Xazinamni ochib man mol bisyor  
Berurman ul kishiga oxiri kor  
Kulumdin bir ovuch sol oldig`a bas  
Ketar qaytar bu suvlar bo`lubon pas  
Olursan anda moli benihoyat  
Necha kunlar sang obo`lg`ay kifoyat  
Yo`q ersa bu tengizga g`arq o`lurlar  
Ulug` kichik tamomi g`arq o`lurlar  
Yamonlar shumlig`idan qon ichurlar  
Yamon af `ol chun bad ro`siyohlar  
Kechurdumman xudoyim ham kechurgay (37-bet)  
Oning boshida mehnatni qochurg`ay (38-bet)  
Esiz Mansurni o`tg`a otdi ul el  
Yonib kul bo`ldi Mansur bir necha yo`l  
Olib Zunnun Misriy bir ovuch kul

Yonida saqladi aylab tavakkul  
Xudoning qudratidan qo`pdi bir yel  
Oning orqasidan jo`sh ayladi sel  
Misr shahrini tutdi seli g`arqob  
Necha lashkar bila shoh bo`ldi betob  
Ilojin tobmayin bechora bo`ldi  
Tengiz dardi bilan ovora bo`ldi  
Ki oxir jar chaqirtib har kishi huv  
Tengizni qaytarib nest aylabon suv  
Beroyin benihoyat mol bisyor  
Eshitdi onda Zunnuni neku kor  
Borib bir necha kul oldig`a soldi  
Ki qaytib ul tengiz bir damda ketdi  
Olarg`a berdi shoh ko`p mol behad  
Agar yesa tuganmas necha muddat  
Bularni saqlamay ko`b benavog`a  
Ulashturdi necha miskin gadog`a  
Qilib Mansurni ko`b turluk duolar  
O`qurdi fotiha aylab sanolar  
Xudoning qudratidin ushbu daryo  
Bo`lub girdob kul birla bahar jo  
Sado aylab analhaq der bu Jayhun  
Biroz kul aylanur chun charxi gardun  
U gardun kul oqib bir necha yurdi  
Ki oxirda oqib bir jo`ya kirdi  
Xalab shahrinda shohning bog`ina ul  
Oqib bordi topib ul o`zina yo`l  
Bor erdi shohning bir kenja qizi  
Ibodatda edi ul shabu ro`zi  
Banogoh bog`a bormish ne kuxo`  
Ki ko`rdi aylanur ovoz ila suv  
Taajjubg`a qolib erdi munga qiz  
Tutub muni kelinglarkim ko`ray biz  
Necha jahd ayladilar bu kanizlar  
Yana qo`llar uzotib jumla qizlar  
Tuta bilmadilar ushbu ko`fukni  
Bu qizlar oldig`a soldi silukni  
Banogoh keldi bu qizning qoshig`a

(43-bet)

(44-bet)

Ne ishlarni solur tangri boshig`a (45-bet)  
Boturub barmog`in og`zig`a soldi  
Anolhaq deb u suv ichkari bordi  
Qilib bir necha sayr ul bo`stoni  
Yonib uyiga bordi ul ravoni  
Oning ichiga ul suv bo`ldi vosil  
Xudoning qudratidin bol`di homil  
Qaborib qorniga hotir anosi  
Bu ishni onglabon so`rdi onosi  
Dedi qizman sayr etib bog`a bordim  
Suv uzra oylanur bir narsa ko`rdim  
Banogoh oldima ul keldi tutdim (46-bet)  
Alimga oldimu og`zimg`a yutdum  
Man andin o`zga narsa ko`rgonim yo`q  
Oning yaxshi yomonin bilgonim yo`q  
O`shul kundin beri man mubtalog`a  
Bu mushkul ish tushib qoldim balog`a  
Anodin koshki bo`lmag`oy erdim  
Muningdek ishni ko`rmag`oy erdim  
Anosi eshitib ul mojaroni  
Otasing`a qilib bir-bir bayoni  
Atosi ham aning fikrinda bo`ldi  
U qiz tun kun xudo zikrinda bo`ldi  
Yetib oy ila kuni qorni qabordi  
Oning qayg`usidin rangi sarardi  
Otasi onasiga dedi ey jon  
Bu isha aylali emdi na darmon  
Agar jonday qizimdur ko`z bila qosh (47-b)  
Bu ish bo`lg`usi oxir olama fosh  
Nechuk el og`zini man beklagayman  
Bu noqisni nechuk man saqlag`ayman  
Shahrlar qopusin bog`lasa bo`lur  
Ichinda elini saqlasa bo`lur  
Ulusning og`zini beklasa bo`lmas  
Yoshurib ichida saqlasa bo`lmas  
Masaldur er nadir mashhur erdi  
Og`izdin chiqdi olamg`a yoyildi  
Nedin yoyilibon ahli duog`a

Masaldur jovur ulustin shoha  
Deyurlar shoh qizi o`ynash etibdur  
Oni afsonida shoh berkitibdur (48-bet)  
Iloji ne bo`lur otosi oning  
Mening qizim seningdur sevchi joning  
Xaloyiq oldida sharmanda bo`ldum  
Bu ish dardi bila darmonda bo`ldim  
Agar o`ltursang oni xuni nohaq  
Tutar bizlarni oxir dunyoda haq  
Kengashub eru xotin birla yolg`uz  
Orasida bular ham bor ul qiz  
Sabohda podshoh usta chaqirdi  
Ulug` sanduq menga qil deb buyurdi  
Yasab kelturdi anga mum surtub  
Ulug` eshiki bor ustini urtub  
Ochibon ko`rdilar bir katta sanduq  
Oning ichiga soldi obu ozuq  
Kechasi kelturdi tengizga  
Vidolashib ota ona bu qiz ila (49-bet)  
Xudog`a topshurub tengizga soldi  
Ato onosi yig`lab anda qoldi  
Keturub soldilar tubsiz tengizga  
Tushubdur qoti mushkul kun bu qizga  
Der edi ey sabobaxsh charog`im  
Gulim bog`im bolam raf `i dumog`im (50-bet)  
Kelib o`lturdilar hech ko`rmogondek (52-bet)  
Muningdek ishni hargiz qilmogondek  
Valekin ichidin yonib tutashib  
Firoq o`ti olarg`a haddin oshib  
Vale sanduq oqib suvda shabu ro`z  
Ichinda qiz jigarday qon dilso`z  
Gahi ostin gahi ustun boradur  
Onga ham kechayu kunduz qarodur  
Ko`rinmas oyu kun yulduz ko`zina  
Ketar o`zdin kelur gohi o`zina  
Necha kunlar oqib Bag`doda yetdi  
Banogoh bir baliqchi oni tutdi  
Ki baliq ovlab yururdi nogoh ul

Tengiz o`rtasida sandiqni ko`rdi  
Kema bilan olib chiqdi qirog`a  
Suyunib oldiyu ketdi qarog`a  
Bu sandiq ichida bir o`g`li bo`ldi (53-bet)  
Jamolidin bu sandiq nura to`ldi  
Izim izni bilan ul qiz ko`fikni  
Yutub erdi ko`tardi ushbu yukni  
Bolasi ham oning o`ldi og`izdin  
Bu sandiq ichra to`lg`odi qizdin  
Borib uyiga ochdi ko`rdi bir hur  
Yoninda mohivash o`g`lon bir hur  
Chiqordi so`radi ahvolin oning  
Tarahhum birla onlab holin oning  
Bu ham qildi muayyan sarguzashtin  
Xabar berdi onga bul yozu qishtin  
O`shuldam xotinining rangi so`ldi  
Tutub to`lg`og`i oning o`g`li bo`ldi (54-bet)  
Amir qo`ydi oning otin otosi  
Nasim qo`ydi muning otin anosi  
Ko`kaldoshdi qo`shulub ikkalasi  
Kecha kunduz qilib parvo anosi  
Emaklab o`lturub yurub yugurib  
Hamisha ikkalasi birga yurub  
Onasini qiz o`kundi baliqchi  
Yo`q erdi misli ul ham xushqiliqchi  
Xudoyim moliga berdi barakat  
Biturdi rizqini qilmay harakat  
Bu o`g`lonlar yetushdi yetti yoshg`a  
Sevar erdi baliqchi boshg`a-boshg`a  
Ne topg`onin dukubon to`y qildi  
Bu ikkisin kesib obro`y qildi  
Yurarlar o`ynabon bu ikki o`g`lon  
Nasim aytdi Amira ey inim jon  
Bu Bag`dod shahrina sen xon bo`lursan  
Siyosatlig` ulug` elga buyursan (55-bet)  
Mani sangsor etib ham dora osib  
So`yorsan so`ngra terim yerga bosib  
Terimgatiqdurub somoni bug`doy

Osib darvozada o'n kuncha turg`ay  
Amir aytur ayo jonim og`omsiz  
Yamon yuru qilibon yema g`am siz  
Agar man shah bo`sam birga surali  
Hama Bag`dodni man birga ko`rali  
Bu na so`zdur deding jonim tuvg`onim  
Sanga bo`lsun fido bu molu jonim  
Nasim oyurina yana devona bo`lg`um  
Xaloyiq ichra man afsona bo`lg`um  
Bo`lib xon amring ila o`lturursan  
So`yib terima somon tiqdirursan  
Osib darvozada uch kun terimni        (56-bet)  
Senga oydim bo`lujoq bo`larimni  
Amir ont ichib oydi ey Nasimim  
Erursan sen mening jonim habibim  
Izimni amri birla xon bo`lsam  
Bu Bag`dod shahrining sultonı bo`lsam  
Sening birla ikov birga ko`roli  
Uluslar borini birga so`roli  
Qilib ko`b ont shartu ahdi paymon  
Nasim aytur onga ul so`zni haryon  
Baliqchi berdi mullog`a bularni  
O`qutur bo`ldi mullosi olarni  
Amira o`rgotib berdi saboqni  
Ki avvalida aytib zikri haqni  
Yozib taxtag`a abyatdin necha xat  
Ki andin so`ng Nasiba keldi navbat  
O`qub avvalda ul nomi xudoni        (57-bet)  
Ilmga aytibon zikri sanoni  
Tiliga joriy qildi ul alifni  
O`qutmoq uchun ul damda Nasabni  
Nasab alif dedi onga barobar  
Desa mullosi "be"ni dedi yaksar  
Necha takror aytib qildi ado  
Nasim na der "be"ni qildi ziyoda  
Gijalab desa demas ul Nasimiy  
Alifdin o`zga be tamisni jimiyl  
Nasim hargiz demas urdi yuziga

To`lub xunobadek yoshi ko`ziga  
Dedi mullog`a o`ltursang o`zimni  
Demasman hech ki ul ayg`on so`zingni  
Kerakmas ul manga ta`limi xoning  
Manga o`qut agar bilsang Qur`oning  
O`qu bo`ldiki mullo anda Qur`on (58-bet)  
Ochib Qur`on o`quy debon bu o`g`lon  
Dedi ul dama ma`nisin o`qutg`il  
Ki ondin so`ngra ul xatlarni tutg`il  
Kelibon qahri mulloning u so`zga  
Necha marotaba shofot urdi yuziga  
Nasab oydi kishi ma`nini bilsun  
Va gar ma`nisi yo`q xatni na qilsun  
Dedi bir necha tafsir anda ul on  
Ko`rib oni bu mullo bo`ldi hayron  
Ki ondin so`ng ango mullo o`qutmay  
O`z oldiga qo`ybordi bekitmay  
Kelib ketib yurur ham hurmat etib  
O`qumas anda lekin taxta tutub  
Oning mullosi ko`rub bir kecha tush  
U tush birla oning ko`ngli bo`lub xush  
Tushinda maktab ichinda bir daraxti  
Ko`korib nurbar ko`plarga yoxti (59-bet)  
Erur bo`yi oning misli chinori  
To`la oltun kumushdin shoxalori  
Oning yaprog`lari la`li zabarjad  
Shakardin mevalari anda behad  
Uyondi bu na tush chun bo`ldi hayron  
Bu tush shukronasi chun qildi ehson  
Banogoh keldi maktabga bir abdol  
Munga dediki ravshan aylayin hol  
Tushini qildi bir-bir anga taqrir  
Degay deb bu tushima yaxshi ta`bir  
Dedi devona mullog`a bir o`g`lon  
Bu maktabda valiydur bil oni son  
Yig`ushtur borisin bir yerga oni  
Bilay desang valiyni san bu zamoni  
Berib har birisiga bir pichoqni

Yana har birina ber jujokni (60-bet)

Xudoyim ko`rmagan yerda bularni

So`yunglar deb ham alarni

Qayu ko`dak u jo`jakni so`yodur

Qayu so`ymas bilgil avliyodur

Bu mullo jam` etib jumla ko`dakni

Berib har birisiga bir jujakni

Pichoq berib buyurdi har biriga

Sinayin valisin bitloy ki nogo

Xudoyim ko`rmagan yerda so`yinglar

Vagarna so`ymayin tirik qo`yinglar

Olib har qaysisi bir joya keti

Xudoy ko`rmas bu yer deb uya keti

Biri dahlizda birisi uyda

Biri tuqurtqada birisi jo`yda

Birisi solmada ko`prik taginda

Biri uy toshida biri ichinda

Borisi so`yibon olib keturdi

Bu mullo buyruqin barjo keturdi

Magarkim kelmadi yolg`uz Nasim ul

Balandu past yerkarni kezib ul

Dedi mullo bu o`g`lonlarg`a oni

Na bo`ldikim Nasim kelmadi qani (61-bet)

Olar aydiki devona bo`lubdur

Qo`linda bir jo`jik pichoq tutubdur

Nasimiy so`ng kelib ma`yus turdi

Na bo`ldi deb ango mullosi so`rdi

Dedi haq ko`rmagan yer topmadim man

Balandu pasta istap topmadim man

Na yerga bordim ersa tangri hozir

Ki topmay istadim ul yerni nozir

Gumon etdi bu mullo shul valiydur

Tamom o`g`lonlaring avvalidur

Yana bir necha kundin so`ng ul abdol

Yetib keldi bu matabga o`shul hol

Tedi bildingmu mullo ul valiyni

Tavof ettingmu tutubon alini

Dedi mullo gumon ichra qilibman (62-bet)

Nasimiyni vali anglab turubman  
Dedi devona mullog`a u yerda  
Bilay desang nishonasin bu yerda  
Buyur o`g`lonlar o`tun juflasunlar  
O`tunlarini juflab uflasunlar  
Qayuning o`tini o`tsiz yonadur  
Yaqin bil ul o`gloni avliyodur  
Buyurdi mullo o`glonlarg`a o`tin  
Yig`ishturg`il keraktur bizga butun (63-bet)  
Yoyildi har birisin bir tarafg`a  
O`tun juflab ketardi maktab ichra  
Dedi mullo oni fuf deb yoqinglar  
Yonarkan kimni o`tini topinglar  
Tutub pefukmani puf dedi chandon  
O`tunni hech yoqa bilmas bir o`g`lon  
Nasim neshlab yurubdur dedi mullo  
Dedilar ul qo`shulmas bizga aslo  
Yug`ib bir oz o`tun balchig`a bulg`ab  
Urar suvg`a oni bir necha to`lg`ab (64-bet)  
Bolalar oni turg`onda yomonlab  
Nasim keldi o`tunni loya bulg`ab  
Dedi mullo onga yoqg`ilki uflab  
Nasim ham og`zig`a tutib kuf aylab  
Chiqib bir parcha o`t lovlab tutashdi  
Oni mullosi ko`rib aqli choshdi  
Zamondin so`ng kelib hushina mullo  
Yiqildi oyoqina tedi ey vo  
Tedi oting Nasimiy bo`lsun ey jon  
Seni yo`lingda ming jon bo`lsa qurban  
Yaqin bildim payambar naslidansan  
Valiylar afzalisan aslidinsan  
Mashoyix sarvari Halloji Mansur  
Oningdek erdin bo`lg`on erur nur  
Dedi ma`zur mullom bizga ruxsat  
Bering ruxsat bizga oshkor o`ldi holat  
Harom o`ldi biza ushbu makonlar (65-bet)  
Siza yo`l qutlug`u bizga yoronlar  
Debon huv deb yo`lg`a kirdi shul zamone

Bo`lib devonavash kezdi jahone  
Qilurlar ba`zi roviydin rivoyat  
Quloq solg`il eshitgil to bag`oyat  
Kelib mullog`a xotuni bir o`glon  
Bering tandura o`t yoqsun o`shul on  
Dedi mullo Nasimig`a bor ey jon  
Borib tandura o`t yoqg`il farovon  
Kelib bu ham solib ikki oyog`in  
Yoqa boshladi tandur ichra soqin  
O`zi faryod etib o`qub g`azalni  
O`tur erdi ko`rib ay bu holni  
Tanura yoqmadi deb bu o`tunni  
Oning chun ko`rmadi o`tun tutunni  
So`ka boshladi necha lafzi g`ichlan  
Urarg`a keldi oni bir yig`ochlan  
Ko`zi tushdi tanura o`t lovullar  
Oning ikki oyog`idin oluvlar (66-bet)  
Qizarib misdayin onda tanuri  
Urar shu`la kishi yuzina nuri  
Bu holatni ko`rib yugurib xotun  
Yetushdi mullo yonig`a jigar xun  
Dedi mullog`a bu sirni sarosar  
Dedi bul ham muni bilgan barobar  
Seni bilsun bu holni anglasun deb  
Bu o`g`londin chu g`ofil bo`lmasun deb  
Banogoh bo`lmasun taqsiri nuqson  
Valiyi haq erur beshak bu o`glon  
Borib tushgil oyoqig`a zamoni  
Kelib rahmi kechurgay shoyad oni  
Yugurib keldi tushdi oyoqig`a  
Hijolatdin ko`targan tayoqig`a  
Nasim aydi ko`targil bosh otamsiz  
Kechuring har na taqsirimni ham siz  
Kechurdim gar mango yuz muncha so`ksang  
Urib boshim yorib qonimni do`ksang (67-bet)  
Kishining bir anosi ildizidur  
Bihillashmoq onga dil qayg`usidir  
Bering ruxsat duo aylab ochib qo`l

Muborak sizga uy qutli biza yo`l  
Olib fotiha huv deb kirdi yo`lg`a  
Yugurib gohda sog`u gohi so`lg`a  
Bo`lib cho`llarda vahshiylargo hamroh  
Qo`sulub qurt qushg`a yurdi birgo  
Qayu kiyik qulon qurtlar yarosin  
Boqar emlar edi aylab duosin  
Tushar gohi oshog`a goh balanda  
Yakandin egniga kiygoni janda  
Gohi kelib o`zina gohi bexush  
Gohi alfozi kufr aylab gohi xush  
Necha yillar bo`lib cho`llar makoni  
Chu Majnun vahshiylar birla ravoni  
Debon ul shahsuvori qoba qavsayn<sup>27</sup> (68-bet)  
O`qudi bu g`azalni gavhari ayn.  
G`azalni benihoyat aytib onda  
Uni sig`mas jahon ichra kazanda  
Yozib bir nechasin tashladi g`ora  
Ki qolsin do`stu yora yodgora  
Izidin izlab-izlab bir nechani  
Topib mastur sahfa aylab oni  
Oni ham qildilar daftar kitobi  
Ki shoyad bo`lg`u deb bizga savobi  
Biz andin bu risola ichra bir oz  
G`azallarni solib qilduq bu dam soz  
Birisi bu erur ey tolibi roh  
O`qug`il yaxshi ko`ngling birla tinglo  
G`azalni benihoyat aytib onda  
Uni sig`mas jahon ichra kazanda  
Yozib bir nechasin tashladi g`ora  
Ki qolsin do`stu yora yodgora  
Izidin izlab-izlab bir nechani  
Topib mastur sahfa aylab oni  
Oni ham qildilar daftar kitobi  
Ki shoyad bo`lg`u deb bizga savobi  
Biz andin bu risola ichra bir oz  
G`azallarni solib qilduq bu dam soz

---

<sup>27</sup>“Layli va Majnun” dostonidan bir parcha keltirilgan.

Birisi bu erur ey tolibi roh  
O`qug`il yaxshi ko`ngling birla tinglo (69-bet)

**G`azali Nasimiy**

Ikki jahon manga sig`ar man bu jahona sig`masam  
Gavhari lomakon manam man bu makona sig`masam

Arsh ila farsh kof nun manda bo`lur jumla junun  
Kel so`zingni uzotmakim sharhu bayona sig`masam

Kavnu makondur oyatim bu lomakonda turbatim  
San bu nishonda bil mani balki nishona sig`masam

Ham sadafam ham injuyam hashru sirota ganjiyam  
Muncha qamug`u raht ila man bu do`kona sig`masam

Ganji nihon manam ulush ayni nihon manam ulush (70)  
Gavhari kon manam ulush bahrilakona sig`masam

Garchi muhit a`zamam garchi miskin odamam  
Dard ila kavnu kon manam man bu bayona sig`masam

Jon ila ham jahon ila dayr ila ham zamona ila  
Gavhari lomakon manam dahr zamona sig`masam

Zot ila ham sifat ila qurt ila ham barot ila  
Gul shakarim nabot ila pista dahona sig`masam

Toza baton shajar manam hirqa jakon hajar manam  
Kuyan o`ting zabonasi man bu zabona sig`masam

Zarra manam kumush manam chor ila panju shash manam  
Vahdati kul bayon ila man bu bayona sig`masam

Garchi bu kun Nasimam hoshimam ho Quraysham ho  
Mandin o`lurdir oyatim oyat mana sig`masam (71)

Alqissa Nasimiyning tuvg`on inisi boshim kal bo`lib necha kunlar boshina sho`ra bosib dardiga davo topmay oxir ul Amir o`tunchilikni ixtiyor qilib o`tin toshib sotar erdi. Necha vaqtdin so`ng Xudoyi taolo anga martaba podshohlikni berib davlat qushi boshiga qo`nib shoh bo`lg`oni bir necha nazm birla

Amir kalning so`zin endi eshitgil  
O`qubon qissasin hadina yetgil  
Amir kal erinib o`tin toshurdi  
Na yerda bo`lsa boshini qoshurdi  
Eshoga yuklab o`tun sotar erdi  
Kuni avqoti ondin o`tar erdi  
O`lub erdi otosi bor erdi onosi  
Kunin ko`rar erdi bu ikkalasi  
O`lub Bag`dod xoni taxti xoli  
Bo`lib bekor bo`idi baytu moli  
To`nining bor edi to`qson yamog`i  
Yo`q oning dunyodin ko`ksinda dog`i  
Olarning rasmi erdi bu zamonda  
Uchurur erdilar davlat qush anda  
Agar ul qush qo`nor kimga boyakbor  
Qilur erdilar oni shohi muxtor (72-bet)  
Shahriga chor chorlatdi chiqinglar  
Bu qush kimga qo`nar barcha ko`ringlar  
Ulusning barchasi bir yerga chiqdi  
Yasanib ham tuzanib qushg`a boqdi  
Kelib kal bosha qushi qo`ndi oni  
Tegib boshig`a tirnog`ini qoni  
Boshim-boshim debon yig`ladi ul dam  
Kulushdilar qoshida turqon odam  
Chofushib keldilar beklar mujammal  
Kima qo`ndi deb ko`rdi bar kal  
Ki eski bo`rki, to`ni egnida pora-pora  
Boshining porasi qong`oqli yora  
Oning sosig`idan soz etdi beklar (73-bet)  
Bu qushning fe`li ozdi dedi beklar  
Sabo bo`ldi yig`ildi jumla xalqi  
Olib ul qush baland pasta tamomi

Yubordi keldi kal boshig`a qo`ndi  
Boshim og`ridi dedi kal o`landi  
Yana bo`lmadi qaytinglar jamoat  
Oning chun ushbu kunda yo`qdi soat  
Sabo ertong bilan jumla keloli  
Na bo`lsa tangri hukmini ko`roli  
Bu kun qaytib yana ertong yig`ilib  
Yetushdilar jamoat jam bo`lib  
Yana yubordilar davlat qushini  
Tamomi tutdilar anga boshini  
Uchubon davr etib ul kalga qo`ndi  
Bu yo`l ham boshim dediyu ovundi      (74-bet)  
Bular ham dedilar taqdiri jabbor  
Bo`lubdur biz qilali shohi muxtor  
Etibon ittifoq ul el tamoma  
Oni Bag`doda eltdilar chanona  
Rivoyat qildi ondin ba`zi roviy  
Yoyildi olama chun bo`ldi joviy  
Xalab shohi qizi ichdi ko`fukni  
Qabardi qorni ul ko`tardi yukni  
Ani taftish etib so`rdi anosi  
Banogoh bo`lmasun bu so`z xatosi  
Kengoshib beklari andisha qildi  
Bu beklar bir ish anga pesha qildi  
„Aning ustunda bir ikki kishi qo`y  
Bu ishdin gar topay der bo`lsang obro`y  
Agar kufuk bo`lan qorni qaborib  
Balosi bo`lsa ko`rung jumla borib  
Ki tuvg`on qornidin taqdir haqdin  
Ango zeroiki kirmish ul tamoqdin  
Balosi bo`lsa gar mu`tod birla  
Giriftor ul yamonliq od birla  
Bu so`z birla qo`yub necha mav kul  
Yetushdi ul qiza ham vaqt homil  
Urung sangsor yoxud aylang oni  
Boqing ko`rung ki ul tuvg`on zamoni  
Tug`or vaqt oni to`lg`og`i tutdi  
Nechuk bo`lg`oy debon xunoba yutdi

Yig`ildilar hama beklar zamoni  
Nechuk tug`ar debon ko`rmakka oni  
Xudo sun`i bilan ochib og`izdin  
Bir o`g`ul bo`ldi oydek bu qizdin  
Ani ko`rdi hama beklar zamoni  
Bu qizg`a berdi tangri neki joni  
Suyinchilab borib ul xon bekka  
Tavallo sizlar oning emdi munga  
Xudoni qudrati birlan bu qizdin  
O`g`il bo`ldi qarab turub og`izdin  
U xonning xotuni ham yuklik erdi  
O`shul kun vaqtি yetib o`g`li bo`ldi  
Amir atodi o`g`lini o`zining  
Nasimiy qo`ydi o`g`lini qizining  
Bu ikki o`g`lini aylab ulug` to`y  
Yig`ildilar jamoat ko`chayu ko`y  
Hama xursand xurram shod bo`ldi  
Xalab shahri yana obod bo`ldi  
Boqib doya bular yetdi kamola  
Yetishib to`rt beshu olti sola  
Nasimiy(a) har zamon der erdi doyi  
Yetushur sanga bu otongni joyi  
Xalabni shahriga erka bo`lursan  
Otangni o`rnig`a sen xon bo`lursan  
Tiqib somon terimga meni so`yib  
Olib dfarvozani ustiga qo`yib  
Siyosatlar xaloyiqqa etarsan  
Maning boshimg`a oxir san yetarsan  
Qarindoshmiz ikimiz birga tuvg`on  
Amir aytur ne so`z dersiz ayo xon  
Nasim aytur meni qo`ydek so`yorsan  
Terim darvozada osib qo`yorsan  
Amir ont ichar erdi onda chandin  
Qilib kunda ikovlon ahdu paymon  
Nasimiy bo`ldi andin so`ngra abdol  
Arodin kechdi necha mohu ham sol  
O`tib bir necha kundin so`ngra ul xon  
Amirni qildi shoh o`rnig`a sulton

Amir mindiadolat taxtig`a niz  
Qayu munhi degandin qildi bar riz.  
Etibon ittifoq ul el tamoma  
Oni Bag`doda eltdilar ravona  
Rivoyat qildi ondin ba`zi roviy  
Yoyildi olama chun bo`ldi joviy  
Xalab shohi qizi ichdi ko`fukni  
Qabardi qorni ul ko`tardi yukni  
Ani taftish etib so`rdi anosi  
Banogoh bo`lmasun bu so`z xatosi  
Kengoshib beklari andisha qildi  
Bu beklar bir ish anga pesha qildi  
„Aning ustunda bir ikki kishi qo`y  
Bu ishdin gar topay der bo`lsang obro`y  
Agar kufuk bo`lan qorni qaborib  
Balosi bo`lsa ko`rung jumla borib  
Ki tuvg`on qornidin taqdir haqdin  
Ango zeroki kirmish ul tamoqdin  
Balosi bo`lsa gar mu`tod birla  
Giriftor ul yamonliq od birla  
Bu so`z birla qo`yub necha mav kul  
Yetushdi ul qiza ham vaqt homil  
Urung sangsor yoxud aylang oni  
Boqing ko`rung ki ul tuvg`on zamoni  
Tug`or vaqt oni to`lg`og`i tutdi  
Nechuk bo`lg`oy debon xunoba yutdi  
Yig`ildilar hama beklar zamoni  
Nechuk tug`ar debon ko`rmakka oni  
Xudo sun`i bilan ochib og`izdin  
Bir o`g`ul bo`ldi oydek bu qizdin  
Ani ko`rdi hama beklar zamoni  
Bu qizg`a berdi tangri neki joni  
Suyinchilab borib ul xon bekka  
Tavallo sizlar oning emdi munga  
Xudoni qudrati birlan bu qizdin  
O`g`il bo`ldi qarab turub og`izdin  
U xonning xotuni ham yuklik erdi  
O`shul kun vaqt yetib o`g`li bo`ldi

Amir atodi o`g`lini o`zining  
Nasimiy qo`ydi o`g`lini qizining  
Bu ikki o`g`lini aylab ulug` to`y  
Yig`ildilar jamoat ko`chayu ko`y  
Hama xursand xurram shod bo`ldi  
Xalab shahri yana obod bo`ldi  
Boqib doya bular yetdi kamola  
Yetishib to`rt beshu olti sola  
Nasimiy(a) har zamon der erdi doyi  
Yetushur sanga bu otongni joyi  
Xalabni shahriga erka bo`lursan  
Otangni o`rnig`a sen xon bo`lursan  
Tiqib somon terimga meni so`yib  
Olib dfarvozani ustiga qo`yib  
Siyosatlar xaloyiqqa etarsan  
Maning boshimg`a oxir san yetarsan  
Qarindoshmiz ikimiz birga tuvg`on  
Amir aytur ne so`z dersiz ayo xon  
Nasim aytur meni qo`ydek so`yorsan  
Terim darvozada osib qo`yorsan  
Amir ont ichar erdi onda chandin  
Qilib kunda ikovlon ahdu paymon  
Nasimiy bo`ldi andin so`ngra abdol  
Arodin kechdi necha mohu ham sol  
O`tib bir necha kundin so`ngra ul xon  
Amirni qildi shoh o`rnig`a sulton  
Amir mindiadolat taxtig`a niz  
Qayu munhi degandin qildi bar riz.  
Yana aytay bu olamdin hikoyat  
Egomdin bo`lsa tavfiqu hidoyat  
Nasimiy tog` tuzlarda yururdi  
G`azal, hikmat o`qub sayron qilurdi  
Kezardi goh shahri goh cho`lda  
Ishi kechayu kunduz erdi yo`lda  
Onga keldi qo`shuldi ikki abdol  
Bu uch devona bir bo`ldi mohu sol  
Banogoh shahrga keldi bu uch yor  
Bularg`a pire yo`liqdi boyakbor

(75-bet)

Nasimiy maktaba borg`on zamonda  
Kelib maktabga bir devona anda  
Dedi mulloya munda bir valiy bor  
Valiylardin valekin avli o`n bor  
Bularning piri shul devona erdi  
Shaharga keldi ul pirini ko`rdi  
Uchusi ham ziyorat qildi pirin

So`rashdi bu uchusi naqli shirin  
Turub bir necha dam yoninda oning  
Ochilmasun dedi sirri nihoning  
Ochilmay sir jigar sizlarga ruxsat  
Berurman aylabon sizlarga shafqat  
Tedi qo`ynig`a suqdi ilkin ul on  
Chiqordi birisina berdi bir non  
Oning yuzina bir shaffoti urdi  
Bu ham ta`zim etib qaradi turdi        (76-bet)  
Taqi soldi qo`lin qo`yinig`a niz  
Bir olma oldi berdi birina tez  
Yana bir qizil olma qo`ynidin ul  
Chiqardi so`ydi bichoq birla bir yo`l  
Saboqidin tutub necha o`kurdi  
Oni chorladni Nasimiyg`a berdi  
Tavoze birla oldi qildi ta`zim  
Bularg`a ruxsat qildiyu takrim  
Qo`lin ochib duo qildi olarg`a  
Na sir borini demayin alarg`a  
Olib fotiha bular yurdi ketdi  
Iqomat aylagan manzilga yetdi  
O`lturub dam olib so`zlashdi bular  
Bu so`zlar ma`nisin qo`zg`ashdi bular  
Nasim aydi bu sirning ma`nisi bor  
Nega anglamadingiz ey iki yor  
Ki yetti kun o`tib bo`lg`on zamoni  
Belidin yerga ko`mib non oloni  
Urarlar to o`luncha tosh otibon  
Bu shahr o`rtasida sangsor etibon  
Yana olma olg`anni dora osg`ay  
Soling`ay bo`ynig`a ib oni qisg`ay        (77-bet)

Qizil olmani so`yib manga berdi  
Bilingkim ul alomat nedin erdi  
Mani qo`ydek yera bosib yiqrarlar  
So`yibon terima somon tiqarlar  
Bu so`zni eshitib yig`lashdilar zor  
Bo`yunsundi xudo amrina nochor  
Ki o`tdi yetti kuni ey neku kor  
Birini osdilar birini sangsor  
Nasimiy o`qub anda bu g`azalni  
Halab shahrida qildi ko`b jadalni

X      X      X      X

Ey manodiy ey modini ey nadosin toho  
Ey ki yetmish yedi harfing astu asi kofiho

Sochlaring mohabaati ano hadini assabil  
Suran asmo oxudum surati vaj kuv xudo

Sobit o`ldi jumla ashymda ko`zung usrukligin  
Chun inoyat ayladi xadavin deymish chun rabano

Barqi manshuringki yorab chun jamolingdur saning  
Vo samu oh alfira rahimin oliy arsh ustido

Hur ayning suratidur chuki fi jannoti adn  
Bo`ldi yoki “ bir kon” husniga oinnai getinamo      (79-bet)

Nafhai aystu erur shirin labing ruh olamin  
Jovidon ihyo qilurda jon bag`ishlar borho

Arsh qildi qomating yorab sirotal mustaqim  
Avalu oxir jamolingdur muhitu rahnamo

Surating tohoyu yosin zulfi anbar soyangiz  
Forataqqal mofi asmo aydi holing qil koifo

Yavmidin o`ldiki oshiqa to bu dunyo keldilar  
Chunu bi chuni jamolingdin Nasimiy o`ldi choh

Aydi bu so`zni Nasimiy shoni payg`ambar uchun  
Jon bohaq missal zokari bozgar kibriyo

Anda xalq aydilar: "Ne muncha besabrliq qilursiz" deb, "nechun ko`b-ko`b avliyo o`tdi, besabrliq qilmadi" derlar. Onda Nasimiy ularg`a aydi:"Avvalda biza farmon shuldir ". Taqdirda yozilg`oni deb besh kalima abyot o`qudi:

Halokimdin Muhammad vahiy izidin bu xabar berdi  
Bu taqdiri ilohidur qachon ondin digar berdi

O`tormen dunyodin emdi menak suyi baqo bul kun  
Alomat shomi g`urbatdin sahar vaqtin xabar berdi

Mani bu ro`zni o`n to`rtida farmon qilmishlar  
Xalilig`a xudo qurban qil o`g`ling deb xabar berdi

Nechuk yuz qaytaroyin man ayo do`sstlar bu savdodin  
Azal kilki qalam tortib qazo birla qadar berdi (80-bet)

Agar yuz justujo` qilsa qazog`a hiyla bo`lmasdur  
O`tar subhi bahoring deb xazon shohi sahar berdi

Kushandam garchi ma`lumdir ravo ko`rmam zarar anga  
Azal taqdiri bul ersa qachon ul kim digar berdi

Qazo jomi masovidur bilinglar shoh miskinga  
Birovga garchi g`am berdi birovga toj zar berdi

Yana Said Nasimiy o`z holini bayon qilib bu g`azalni o`qudi:

### **G`azali Nasimiy**

Kimsa yo`qtur bu jahonda man azalda bor erdim  
Gavharing doirasinda man anga darkor edim

Gavharin kon ayladi tutdi jahonni sarbasar

Arshu kursi lavhu qalamning arosinda bor edim

Ul maning sirim bilurdi man ham oning sirini  
Ul mani andog` yaratdi man anga darkor edim

Kiydim odam to`nini kimsa bilmas sIRRINI  
Man bu baytulloni ham solg`onida bor edim (81-bet)

Bir xato qildi debon po`stimni so`yg`ay qozilar  
Mansuru Hallojdek so`zimda ango bor edim

O`n sakiz ming olamni gardish aylab kezmisham  
Daryoning ostinda og`a Yunus qoshinda bor edim

Man Nasimiyl so`ylaram chun haqni barhaq bilmisham  
Oning uchun ul yaratdi man anga darkor edim

### **G`azali Nasimiyl**

Qozi mullo mufti so`rsang mani qayda edim  
Tushdim ul tengizga daryoyi umonda edim

Ul tengiza tushon kishi g`urbat erur oning ishi  
Ichkoridin ichkorida sir ila pinhonda edim

Muso ibn Imron bilan chiqduq ikov Turni tog`iga  
Makkada masjid qilonda Xalilla anda bor edim

Ismoila choldi pichoq pichoq onga kor etmadi (82-bet)  
Ibrohim so`ymoqchi bo`ldi o`g`lini yoninda edim

Yusuf ul quduqda yotdi necha kun hamroh edim  
Otasi ko`b yig`ladi man anda kan`onda edim

Ali bilan choldim qilich Xusayn bila bo`ldim shahid  
O`n sakiz yil qof dog`inda Hamza bila jangda edim

Miskin Nasimiyning joni oshiqlaring tilindadir  
Arshu kursi lavhu qalam do`s t bila sayronda edim

X X X X X

Oshiq kelgil beri jon birla janon mandadur  
Zohido san qayda san nur birla imon mandadur

Mandalur ul yelu ko`kning hikmati ham qudrati  
O`tu yelu tufroqu suv ham jumla yakson mandadur

Haq ta`olo osmondin indurubtur to`rt kitob  
Man alarni manzur etman chunki Qur`on mandadur

Dunyoda kim pahlavonlar Rustamu Zol o`tdilar  
Saddi Iskandar ila taxti Sulaymon mandadur

Yusufg`a bermish edim yuz ming baloyu dard g`am  
Kel beri doru qilayin dardga darmon mandadur

Ya`qub anda yig`ladi hijron ila Yusuf chun  
Ganji xilvat xonalar Misri sulton mandadur

Shohi mardon murtazoning ahli avlodi manam  
Zulfiqori qanbaru duldul hamon mandadur

Man Nasimiyo so`zlarim ul shohimardon aslidin  
Gar qabul etsa xudoyim iydi(oyati) quron mandadur(83-bet)

G`araz anda o`qub muncha g`azalni  
Sitashtu qil xudo boyat ajalni  
Yig`ildi onda ko`b mulloyu qozi  
Nasimiyo qilib ko`b ehtirozi  
Oning chun mastu majnun erdi onda  
Tishoq mullo tedi ushbu zamonda  
Tishoqdin fahm etib mullo zikrni  
Haqorat qildi deb yig`di navkarni  
Yig`ildi besh yuz mulloyu mufti  
Bularning hammasi shaytonni jufti  
Hama mulloyu mufti bilmadilar

Tishoqni ko`b haqorat onda ongladilar  
Toshi oqu ichi qora demakdur  
Yana shubha taomidin yemakdur (84-bet)

Ammo Nasimiy ko`rdi besh yuz mullo oxun qozi mufti yig`ildilar. Nasimiy mahdufa loya`qul bo`lib mahrzuf erdi. Aydi: "Assalomu alaykum ey ichi qora tishlari oq, juma kuni kalda kal mullo musulmonda kal". Bu so`zlarni mullolar eshitdilar. Avaldin ham darg`araz erdilar, tutdilar , ta`zir etdilar . Yana qo`ymadi, takror etdi. Mullolar bu ehtimola ketib edi. Bul aytur: „Juma kuni kun degil, mullo musulmon degil“ der. Juma kunlarining afzali bo`lsa, mullo musulmonlar ning afzali bo`lsa bu so`z bizga haqorat turur dedilar. Ammo Nasimiyning so`zi bu erdi:juma kuni kunlarning ichida kal erdi,mullo musulmonlarning kali erur degani erdi. Mullolar bu ehtimola bormadilar. Zeroki, avvaldin darg`araz erdilar. Tishoq deganda zikri ehtimola keldilar. (85-bet)

Qilib bizlarg`a bu turluq haqorat  
Ki bu devona deb qildi ishorat  
Urubon avvalo bisyor ta`zir  
Solib g`ul bo`ynig`a oyoqa zanjir  
Bu shoh qoshinda ham qildi ioda  
Bo`lub mullolaring qahri ziyoda  
Ihonatlar biza ko`b qildi tayin  
Bo`lub kofir kitobi mujtahiddin  
Biza qildi haqorat dayna qildi  
Xudo ila qildi rasulg`a qildi  
Agar tavba qilib yonsa gunahdin  
Uqubat aylamak lozimdi shahdin  
Munga yong`il desa aylar mukarrir  
Bu so`zda kim bo`lub albata kofir  
Necha ta`zir ila o`lturmak oni  
Xudoning amri payg`ambar nishoni  
Agar o`lturmasa shoh osiy bo`lg`ay  
Shayotin sevunib raqqosa bo`lg`ay  
O`qub qur`on hadisi benihoyat  
Kishi ko`tara bilmas ko`b rivoyat  
Eshitib shoh oni aydi bosinglar

Oni darvozag`a eltib osinglar  
Tishoq der so`zini qo`ymas Nasimiy  
Bular ta`ziridin yo`q zarra bimi  
Yig`ildi keldi mullolar tamomi  
Tamoshoda tamomi xosi omi  
Tutub bog`lab tayoqlab dora osti      (87-bet)  
Nasimiy demishin bisyor bosti  
Nasimiy yeti kecha kun osilib  
So`zidin yonmadi bo`g`zi qisilib  
Munga kor etmadi dori xaloyiq  
Ochi chun saqladi olamga xoliq  
Tilindin ayg`uchi xoliq ekandur  
Ki har necha desa xalq degandur  
Davom dorda osilg`on aytur erdi  
Yoninda muhtasib mufti ko`p erdi  
Kelibon jumla xong`a qildilar arz  
Muning qatli erur shohim biza farz  
Tilindin ayg`uchi xoliq ekandur  
Ki har necha desa xalq degandur  
Chu dora osmoq ila o`lmadi bu  
Magar bu aylayubtur sehru jodu  
Tilin kesib ko`zin o`ymoq kerakdur      (88-bet)  
Yoturib yer yuza so`ymoq kerakdur  
Tutib so`ying dedi yerga yiqinglar  
Terisini so`yib somon tiqinglar  
Yiqitib har biri urdi pichoqni  
Tilindin qo`ymadi oni demakni  
Keturdilar necha o`tkir pichoqni  
Bu qo`ymastur tilindin zikru haqni  
Pichoq kor etmadi necha tayoqlar  
Anga ursa pichoq o`tmas tayoqlar  
Chekibon chora muncha necha jallod  
Urub behad tayoqu g`ayr mu`tod  
Ki oxir dedi ey jallodi zolim      (89-bet)  
Maning hech qolmadi bir zarra holim  
Tabonimdan yorib so`ying terimni  
Abas ta`zim etmang har rahbarimni  
Tabonim birla bosg`onman najosat

Pichoq kesmaga ul bo`lmish kasofat  
Tabonidan tutib so`ydi terisin  
Tamom a`zosidin qo`ymay borisin  
Solib somon ichiga tiqdi bosti  
Keturib oni darvozag`a osti  
Amiru ham vaziru zayli ul shoh  
Shikora chiqmog`a keldi banogoh  
Oni ko`rgach o`qudi bu g`azalni      (90-bet)  
Bayon aylab onga qilg`on jadalni

Ahli iymon ishlarin chun hama inkor etdilar  
Chun Nasimiyni Halab shahrinda bardor etdilar

Qozilar fatvo berib haqni botil etdilar  
Kufr etib imona kelmayddur debon xor etdilar

Haq manga so`zla dedi amr etdi man ham so`zladim  
So`zladim izhor etib olamda bisyor etdilar

Har na desam haq o`zi so`zlar tilimdin doimo  
Bilmadilar asli so`zni fahmi bekor etdilar

So`ydilar chiqordilar shuldam Nasimi terisin  
Yig`lashib ko`kda malak jumlesi zor etdilar

Ey Nasimi vosil o`lding xalqi rahmoniyg`a sen  
Jannatal ma`voda ko`r uyingni gulzor etdilar

Oni onglamadi shoh o`tdi ketdi      (91-bet)  
Shikor etar yerina boricha yetdi  
Shikor aylab ekucha bo`lg`ucha ul  
Yana qaytorg`a yuzlandi tutib yo`l  
Kelib darvozag`a beklar bila shoh  
Nasimiya ko`zi tushdi banogoh  
Nasimi onglabon kelgonin oning  
Quloqig`a yetushsin deb shohning  
Baland ovoz ila faryod qildi  
Qani sharting qani ahding vafosi

Uluslarning erursan podshosi  
Kichiklikda ne vadalar qilibding  
Bu ishlarning bo`lurin san bilibding  
Dedi onda o`qudi bu g`azalni  
Xabardor aylabon boan ajalni                    (92-bet)

Sina chokimdin kelan bu dodlar bedodlar  
Tig`a tushmish ko`faki fulodlar jallodlar

Har na dedim haq dedi og`zim bilan tilim bilan  
Yo manga ayturdi ul shatha arzdodlar

Mullo mufti dedilarki kofir o`lding ham la`in  
Mujibi qatl deb meni o`lturdiul haddodlar

Tobonimdin yordilar tobimg`a to`g`ri bordilar  
Onda qilib tanda jonim nolau faryodlar

Qoziyu mulloyu mufti barchasi johildular  
Qo`y kibi terimni so`ydi bu saku sullohhlar

Chun bichoq siynama yetdi yuragim dod ayladi  
Onda hech kim dodimizg`a yetmadi shaddodlar

Ey Nasimi sabr qil xudog`a yuz ming shukr qil (93)  
Hamma bo`ldi do`zaxiy sharmanda bebunyodlar

Yana avvalg`i ayg`ondin iroda  
Qilib o`qudi anglabon ziyoda  
Yani birg`a o`qug`ay yaxshi tinglo  
O`qub ikki g`azal tedi ayo shoh  
Fahmlab podhsoh ham ko`rdi oni  
Jilovin tortibon turdi zamoni  
Yana bir necha turdi oni tinglab  
O`qudi bir g`azal shoh turdi onglab                    (94-bet)  
Axirinda o`qug`on bu g`azaldur  
Sabab mullolar qismat azaldur

## G`azali Nasimiy

Haqg`a vosildur Nasimiy kel ko`r emdi Sayido  
Sanki Bag`doding amiri kel ko`r emdi Sayido

Sirri holimni sanga man aytqon erdim avvalo  
Qulingga sodiq degilsen kel ko`r emdi Sayido

Mullo mufti qozilar bilmas haqiqat sirrini  
Bilmayin o`lturdilar sen kel ko`r emdi sayyido

Obidu zohid na bilsun sirri orif oshiqi  
Terimini so`ydi alar sen kel ko`r emdi sayyido

Orifu oshiq tilidin haq deyur bir necha so`z  
Har na dedim haq demishdur kel ko`r emdi sayyido

Dedi haq Mansur tilidin kim analhaq mandin ham  
Xosimu qotil o`zidur kel ko`r emdi sayyido

Omoxosing tilidin aytur qilur a`zosidin  
Haq turur bilgil haqiqat kel ko`r emdi sayyido

Har na dedim har na qildim bildilar mandin vale  
Johilu nodon erurlar kel ko`r emdi sayyido      (95-bet)

Bu tahoratsiz faqihlar kim sening hukming bilan  
So`ydilar nohaq terimni kel ko`r emdi Sayido

Hadimiz hasrat elidur doyimiz Mansur erur  
Zulmi nohaq qildi mango kel jo`r emdi sayyido

Asli jaddim shohi mardon Alidur peshvo  
Ul ulug` mahshar kuninda kel ko`r emdi Sayido

Ey Nasimiy g`am yemagil chunki o`lding sen shahid  
Haq bilur aynulyaqindur kel ko`r emdi Sayido

Ki ondin so`ng Nasimiy bo`ldi absam

Demadi so`z so`ngra besh yo kam  
Qo`ya berdi inonin shohi akram  
Tutub motam ichini to`ldurub g`am  
Borib tushti o`zining manziliga  
Buyurdi beklari motam qulig`a  
Borib izzat bilan darvozadin siz  
Osilg`on terini olib kelingiz  
Borib olib keturdi oni eshon (96-bet)  
Oni ko`rgach o`zidin ketdi bu xon  
Yoqosin chok etib faryod qildi  
Ko`ngilda g`am uyin obod qildi  
Bu beklar jumlesi shohg`a qo`shulub  
Qilur faryod shoh ila birga bo`lib  
Dedi shoh jismim uyini yoqorman  
Nechuk mahsharda yuziga boqarman  
Oyoqini quchib surtib yuzini  
Yosh ila to`ldurub ikki ko`zini  
Yoqosi chok joma pora qildi  
Dedi oldingda yuzim qora bo`ldi  
Sening obovu ajdoding qoshinda  
Na derman tongla mahshar bo`lmishinda  
Ali avlodi sayidzodadursan  
Jami`i xalqdin ozodadursan (97-bet)  
Saning oldingda man sharmanda bo`ldim  
O`zimning ishima darmonda bo`ldim  
Yuzung ko`rgoli manda qolmadi yuz  
Tilim gungu lol og`zim so`zlamas so`z  
Xususo bobong oldida ne derman  
O`luncha to oning chun g`ussa yerman  
Dedi bu she`r o`qubon yig`ladi zor  
Bu shohning nolishig`a barcha yig`lor

Vo xato qildim man emdi naylayin vo Sayido  
Tongla mahsharning kuninda naylayin vo Sayido

Sirri holingni manga san aytib erding avvalo  
Ahd qildim bitmadimman naylayin vo Sayido

Ne faqihlar ne vazirlar arz qildilar manga  
Ko`r nodon so`zlaridur man naylayin vo Sayido (98)

O`yla muftilar mango qildi shariat sharhini  
Bilmas erkonlar haqiqat naylayin vo sayyido

O`zlari kofir bo`lib ayrildilar imondin  
Mani ham sharmanda qildi naylayin vo sayyido

Manga gar qilmas shafoat ro`zi mahsharning kuni  
Haq Muhammmad hazratinda naylayin vo Sayido

Chun Amir aydi bir ish qildim xato qildim xato  
Chun azalda qismatingdur naylayin vo Sayido

Tamom etib g`azal bu shahanshoh  
Nasimi o`lgonindin bo`lib ogoh  
Yig`ib jismin oning po`stig`a soldi  
Ko`tardi shoh o`zi qo`lig`a oldi  
O`qub ark ichinda ango janiza  
Hama jam o`ldilar onda namoza  
Eltib xonlar mazori o`rtasida  
Oni qo`ydi chu shohlar orasida  
Berib ko`b osh qildi xatmi qur`on      (99-bet)  
Yig`ishturub hama elni farovon  
Debon ko`b dog` ila Sayid risolat  
O`qudi nola aylab necha abyot.  
Tutub motam anga xonu amirlar  
Hama beku inoqu ko`b vazirlar  
Ki andin so`ng manodi qildi ul shoh  
Na yerda bo`lsa kelsun munda mullo  
Onga in`om ko`b ehson etarman  
Ziyofatlar qilib mehmon etarman  
Na yerda bo`lsa mulloning borisi  
Yetushsin munda qolmasun birisi  
Yig`ildi keldi mullolar tamomi  
Ki qolmay shahrda mullo imomi

Ulug` kichik na kim mullo bor erdi  
Bu xon arkiga bir-bir barcha keldi  
Oning uchun bu xonda odat erdi  
Ishi shoma sahar saxovat erdi (103-bet)  
Na yerda bo`lsa ul ishi bu erdi  
Oni izzat qilib ko`b siylar erdi  
Qilib onlarg`a ko`b in`om ehson  
Ziyofatlar qilib onlarg`a chandon  
Oningdek shoh aylabdur ziyofat  
Debon keldi qilib qat`i masofat  
Olisdin ham yovuqdin jumla bori  
Dedi in`om uchun shohg`a boroli  
Yetushdi shoh qoshig`a jumla qolmay  
Yugurdi nechasi darsini olmay  
Na oxunu na maktabdor qoldi  
Kelib mulloyu mufti jam` bo`ldi  
Suyunib shod xurram hama keldi (104-bet)  
Ki qolmay barcha shoh oldig`a kirdi  
Bor erdi arkinda bir suv xarosi  
Na balki ul xaros, un osiyosi  
Boshin bog`la deb buyurdi onda  
Borib bog`ladilar ushbu zamonda  
Yig`ib kelturdi shah jallod borin  
Dedi mullolari yotqur qatorin  
Tamomin boshini cholg`it bu jo`ya  
Yoturib borisin bir yo`li qo`ya  
Nechoqli osiyo un aylar ondin  
Xamir aylab pishurib necha nondin  
Ekayin nonidin to to`yg`onimcha  
Qilayin mullolarg`a qilg`onimcha  
Cholib jallodlar mullo tamomin  
Ulug` kichikni qo`ymay xosu omni  
Oquzdi jo`ya din ko`rdi ulusha  
Bular qoni bila aylandi osiyo  
Yedi barso bug`doyni qilib un (105-bet)  
Qatig` oqmadni past o`ldi o`shul un  
Bu o`lgan mullo o`n mingdin ziyoda  
Kimi markabsuvor gohi piyoda

Olis yerdin kelur bir mulloyi cho`loq  
Yetushmadim debon in`oma tezroq  
Banogoh bir kishi onga yo`liuqdi  
Dedi onga shahning in`omi yo`qdi  
Qolibman kech yetushmay mullolarg`a  
Malik in`om bergandur ularg`a  
Ayoqim lang uyimdur ham olisroq  
Ne bo`lar meni yetkursang yovuqroq  
Dedi ul odami mullog`akim siz  
Agar borsang so`yar qo`ydek seni tez (106-bet)  
Oxun qozi tamom mulloyu mufti  
Ariqga sig`madilar muncha ko`pdi  
Tamomin qonidin nova oquzdi  
Cholib qonlarini joy chuquzdi  
Olar qoni bilan oylandi osiyo  
Eshiting so`z budur ey soda mullo  
Bu ham joni bilan qochdi iziga  
Inonib ul kishi ayg`on so`ziga  
Necha kun kezlandi uyda ko`runmay  
Tahorat sindururg`a chiqa bilmay (107-bet)  
Yotib yer ostinda necha zamoni  
Ela tushdi muning o`lgan gumoni (108-bet)  
Ko`runmay elga necha muddat o`tdi  
Oning boru yo`g`ini el unutdi  
Ki qo`rqa-qo`rqa chiqdi tashqarig`a  
Kelur deb xon kishisi man sarig`a  
Bo`lub oxir so`nginda oshkora  
Mudarris qildilar ushbu diyora  
Shu mullodin yoyildi anda mullo  
Va gar na yo`q edi mullosi also  
Inoyat qildi tangrim bo`ldi anjom  
Risolai Nasimi bo`ldi itmom  
Egomdin bo`ldi tavfiqu hidoyat  
Yetushdi bu risola chun bag`oyat  
Nasimi ruhidin chun yetdi imdod  
Maqosad manzilini qildi obod  
Asiriy xoksori bebizoat (109-bet)  
Yurutib xomani qildim kitobat

Biavn alqodiri sattoru vahhob  
Tamoma yetdi bu nusxa bahar bob  
Xato bo`lsa xatimda beshu yo kam  
Malomat aylamagil o`ltur absam  
G`alat bo`ldi debon etma iqoim  
Karam birla yopunglar ayb poyim  
Robi`ussoni oyi qo`y yilinda  
Tamom o`ldi Asiriyning qo`linda  
Edi tarix yuz sakson to`quzda  
Qo`yub ming ustiga yo`q shak bu so`zda  
Asiriy ilgida bo`ldi kitobat  
Bo`lub Karrux arosinda bu tammat  
G`araz mendinki qolgay yodgore  
O`qug`ay oni necha do`stu yore (110-bet)  
Tamomi ulumri mana xavfu rajoda  
Yoronlardin umidim ko`b duoda  
Duoyi mustajoblardin umidim  
Qabul etkay debon zularsh mutdim  
Karam daryosidin yore masohib  
Oquzub xastalar holig`a boqib  
Ki shoyad ketkay anda yuz qarosi  
Chu bitkay harm tig`ining yarosi  
Hama xalq dunyodin ketmak kerakdur  
Nishone yodgor etmak kerakdur  
Aningchun el og`zig`a tusharlar  
Faromush bog`ini ondin yashorlar  
Musohiblar faromush etmasun deb  
Maning nomu nishonim ketmasun deb  
Qilibon bir necha so`zlarni manzum  
Umid aylab Asiriy zahli mafhum  
Duo birla qilinglar dafrtarim sayr  
Bi`avn alloh bo`ldi tammat al xayr

## **A D A B I Y O T L A R      R O'Y X A T I**

1. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – T.: “O'qituvchi”, 1980. –346 b.
2. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. – T.: “Movarounnahr”, 2001. – 700 bet.
3. Abdug'afurov A. Erk va ezgulik kuychilari. Ilmiy tanqidiy maqolalar to'plami. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 160 b.
4. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – T.: "O'qituvchi", 1967.– 298 b.
5. Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. (Majidov R. “Xalq kitoblari” termini haqida) . – T.: “O'qituvchi”, 1978. – 269 b.
6. Adabiy turlar va janrlar. 3 tomlik, 2-t. –T.: “Fan”, 1992. – 248 b.
7. Azerbajan edebijjaty tarixi. – Bakы: OZSSR Ilmlar akademiyasi nashri, 1960. - 590 b.
8. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. – T.: G'. G'ulom nom. adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 462 b.
9. Alisher Navoiy ijodini o'rganish masalalari. – Sam.: SamDU, 1981. –108 b.
10. Aslanov V.I. Pevets cheloveka. (K 600-letiyu so dnya rojd. azer-skogo poeta i filosofa Nasimi). – M.: “Znanie”, 1974. – 28 s.
11. Badiiy ijod haqida. – T.: “YOzuvchi”, 1960. – 236 b.
12. Bertels E.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. III t. – M.: “Nauka”, 1965. – 524 s.
13. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. (X-XIX asrlar) – T.: “O'zbekiston”, 1993. – 192 b.
14. Valixo'jaev B. Mumtoz siymolar. I j. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 304 b.
15. Valixo'jaev B. Mumtooz siymolar. P j. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 175 b.
16. Valixo'jaev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. –T.:“Fan”, 1974. –149 b.
17. Jalolov G'. O'zbek folklorida janrlararo munosabat. –T.: “Fan”, 1979. –192 b.
18. Jumaniyozov R. Xalq ijodi – haq ijod. – T.: “O'zbekiston”, 1993. – 79 b.
19. Zokirov M. Erk va ma'rifat kuychilari. – T.: G'.G'ulom nom. adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. –140 b.

20. Ilin G. Starinnye indeyskie skazaniya o geroyax drevnosti. – M.: "Znanie", 1975. – 126 s.
21. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. – T.: "Fan", 1981. - 101 b.
22. Imomov K. Ertak. O'zbek folklori ocherklari. 3 tomlik, 2-tom. – T.: "Fan", 1989. – 316 b.
23. Islom. Spravochnik. – T.: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1989. – 366 b.
24. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. – T.: "Fan", 1982. – 127 b.
25. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1975. – 326 b.
26. Karaev YA. Etap azerbaydjanskogo realizma. – Baku: "YAzylchi", 1983. – 148 s.
27. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. –T.: "YOzuvchi", 1996. - 272 b.
28. Komilov N. Tasavvuf. Tavhid asrori. 2-kitob. – T.: G'.G'ulom nom. adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. - 208 b.
29. Kulizade Z.A. Nasimi – filosof i poet Vostoka. – Gyandjlik. Baku: "Znanie", 1973. – 50 str.
30. Literaturnyy azerbaydjan. (Ibragimov M. Velikiy azerbaydjanskiy poet Nasimi). – Baku: "Znanie", 1973, – 168 s.
31. Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: G'.G'ulom nom. adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – 383 b.
32. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1965. – 745 b.
33. Mirzaev T. Xalq baxshilarining repertuari. – T.: "YOzuvchi", 1979. 14-b.
34. Muhiddinov M. Barhayot an'analar. – T.: "Fan", 1987. – 146 b.
35. Muhiddinov M. Ikki olam yog'dusi. – T.: G'.G'ulom nom. adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 168 b.
36. Navoiy asarlari lug'ati. (Tuzuvchilar P.SHamsiev, S.Ibrohimov). – T.: G'.G'ulom nom. adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. – 784 b.
37. Olim S. Ishq, oshiq va ma'shuq. – T.: "Fan", 1992. – 80 b.
38. Orasli H. Imodiddin Nasimi. – T: "Fan", 1973. – 76 b.
39. Orasli H. Fidokor shoir. – Baku: "YAzylchi", 1942. – 68 b.
40. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. Milliy uyg'onish davri. – Sam.: SamDU, 2003. – 238 b.

41. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. (XVII–XVIII asrlar). – Sam.: SamDU, 2004. – 122 b.
42. Oqqa'rg'oniy Ikromiddin Ostonaqul o'g'li. Komil insonlar vasfi. (Muhammad Siddiq Rushdiy. Avliyolar sulton turonlik valiyalar). – T.: "Kamalak", 1995. – 378 b.
43. Poety Azerbaydjana. (Statya: Rafili M. Poeziya Azerbaydjana) – M.L.: 1962. – 422 s.
44. Ravshanov F. Xolis va uning adabiy merosi. – T.: "Fan", 1996. – 118 b.
45. Sbornik statey o Nasimi. (Seidov M. Rol Nasimi v istorii azerbaydzhano-armyanskikh literaturnykh vzaimosvyazey). – Baku: "Znanie", 1971. – 81 str.
46. Sbornik statey o Nasimi. (Ibragimov M. Nasimi i ego vremya. Gafurov B. Svet dalyokoy zvezdy.) – Baku: "Znanie", 1973. – 286 str.
47. Seidov M. Iz istorii azerbaydzhano-armyanskikh literaturnykh svyazey. – Erevan, 1960. – 344 s.
48. Skazki severnoy Afriki. (Mikushevich V. Ispytanie taynoy. (predislovie)). – M.: Xud. literatura, 1988. – 346 s.
49. Snesarev G.P. Relikty domusulmanskikh verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: "Nauka", 1969. – 223 s.
50. Tohirov Q. Xalq qissasi "YUsuf va Zulayho"ning matni va tadqiqi. – Sam.: SamDU, 2001. – 142 b.
51. Tohirov Q. Oktyabrdan avvalgi o'zbek-turkman adabiy aloqalari problemasiga doir. – T.: "Fan", 1988. – 115 b.
52. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqlol", 1999. – 180 b.
53. Turdiev SH. O'zbek adabiyotida kichik epik janrning shakllanishi. – T.: "Fan", 1978. – 75 b.

## **MUNDARIJA**

So‘zboshi	5
Shoir Asiriy va uning taxallusdoshlari	6
Asiriy va uning “Said Nasimiy” qissasi	13
Said Nasimiyning tarixiy shaxs sifatidagi badiiy talqini	33
Said Nasimiyning manqabaviy hayoti badiiy talqini	44
“Said Nasimiy”da boshqa janrlarga xos mushtarak jihatlarning aks etishi	53
“ Said Nasimiy” qissasining uslubi va badiiy mahurat	61
Xulosa	67
Asiriy. “Said Nasimiy” qissa (matn)	69
Adabiyotlar ro‘yxati	121

**SOBIRJON TOHIROV  
SAODAT YULDOSHEVA**

**ASIRIY VA UNING  
“SAID NASIMIY” QISSASASI**

***Tadqiqot va matn***

Terishga berildi \_\_\_\_\_.2020 y  
Bosishga ruxsat etildi.\_\_\_\_\_.2020 y.  
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16  
“Times”garniturasi. Bosma taboq 5,5 Buyurtma № \_\_\_\_/20

Terishga berildi:\_\_\_\_\_ yil. Bosishga ruxsat etildi:\_\_\_\_\_.2020 yil  
Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>, “Times New Roman” garniturada raqamli bosma usulida  
bosildi. Adadi 100. Buyurtma № 7/19

---

Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178  
SamDu huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning  
malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.